

Mavzu: Hayotiy faoliyati xavfsizligi fani, maqsadi va vazifalari. Tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda hodisalar.

R E J A :

- 1.XFX fani o'qitilishidan maqsad .**
- 2.Fuqarolarni muxofazasi to'g'risidagi qonun va farmonlar.**
- 3.Tabiiy favqulodda hodisalar.**
- 4.Texnogen holatli favqulodda hodisalar.**
- 5.Ekologik holatidagi favqulodda hodisalar.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida: «Mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muxim ahamiyatga ega. Davlat faoliyatining muvaffaqiyati xozir ko'p jixatdan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalar qanchalik keng joriy etilayotgani, kadrlarning kasb tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi» - deb uqtirib o'tganlar.

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o'zgarish bo'layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimiga binoan Respublikamizdagi barcha universitet va institutlarda ta'lim olayotgan bakalavrlarning o'quv rejasiga "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanining kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning bilimini chuqurlashtirishga, xar xil turdagi shikastlanishlar va kasallanish xodisalarini oldini olishda hamda barkamol, sog'lom kadrlarni tayyorlashda yordam berishi so'zsizdir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad **bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi** -bu xar qanday sharoitdagi **inson faoliyatidir**. Insonning hamma faol xarakati (mexnat jarayonida, dam olishda, uyda, hamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muxit bilan aloqasi, uy sharoitidagi va mexnat faoliyatidagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi printsip va usullar asosida: yashash sharoitlarining og'irligi, axoli tibbiy madaniyatining etishmasligi, baxtsiz xodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosga qo'yadigan va xal qiladigan fandır. HFH - bu xar

qanday ko`rinishdagi faoliyatga qo'llanilishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fanining ahamiyati va uning tarkibi.

HFX fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli. Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli, u bilan bog'liq masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtda inson - tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. Shu xavf - xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Yaponiya zilzilasi.Armanistondagi zilzila, Chernobil AES halokati. Jigaristondagi er siljishi, Admiral Naximov paroxodining cho'kishi, Sverdlovskiyda, Chelyabinsk - Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k. Shular natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'lgan, 20000 nogiron va 200000 odam kasallangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42 sessiyasida 1991 yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarini kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi.

Hayot faoliyat xavfsizligi – inson va uning salomatligi uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan texnikaviy sanitar–gigienik va huquqiy tadbirlar majmuidir.

Favqulodda xodisalar deb - keng ma'noda aniq bir xududda sodir bo'ladigan va odamlarni salomatligiga, o'rab turgan muhitga, moddiy boyliklarni zararlanishiga sababchi bo'ladigan xodisalarga aytiladi. Buning natijasida ko'pchilik odamlarni qurbon bo'lishi, o'rab turgan muhitga zarar keltirishi odamlarni sihat-salomatligiga keskin zarar yetkazishi va ularning hayot faoliyati buzilishi moddiy boyliklarni zararlanishi kuzatiladi. Har bir favqulodda xodisa o'zini sabablariga ega, ularni rivojlanishi o'ziga xos xususiyati odamlarga va o'rab turgan muhitga ta'siri ko'riladi. Favquloddavaziyatning zararli va xavfli omillari ta'siri ostida joylasqan aholi ,xayvonlar, inshootlar, moddiy resurslarning barchasi -"Shikastlanish o'chog'i" deyiladi.

Xavfsizlik texnikasi-xavfli ishlab chiqarish omillarning, ya'ni xavfsizlik qoidalarini buzilgandagi baxtsiz hodisalar, shikastlanishlarni keltirib chiqaradigan omillarning insonga ta'sir etishini oldini oladigan tashkiliy va texnikaviy tadbirlar majmuidir.

Ishlab chiqarish sanitariyasi-zararli ishlab chiqarish omillarining, ya'ni kasalliklar keltirib chiqaradigan omillarning ishchilarga ta'sirini oldini oladigan tashkiliy, gigienik va sanitariya-texnikaviy tadbirlar va vositalar majmui.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasi. Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasi ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi. Faoliyat - insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat - faoliyatning yuqori

shakli. Faylasuflarning fikricha, insonning taʼrifi – harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir.

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha boʻlib, ular hayotda uchraydigan aqliy, manaviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

Faoliyat jarayoni modeli. Faoliyat jarayoni modeli ikki elementdan, yaʼni inson va muhit orasidagi toʻgʻri va teskari munosabatlardan tuzilgan deb tasavvur qilish mumkin. Teskari munosabatlar moddiy dunyoning qarama-qarshilik umumiy qonunlaridan kelib chiqadi. "Inson-muhit" sistemasi ikki maqsadli boʻladi:

1) aniq bir natijaga erishish,

2) koʻngilsiz hodisalarni chiqarib tashlash (inson sogʻligʻiga va hayotiga ziyon, yongʻinlar va falokatlar).

Shularning kelib chiqishi va shunga oʻxshash hodisalar oqibatida kelib chiqadigan natijaga xavf deb ataladi.

Xavflar - yashirin (potentsial) va xaqiqiy boʻladi. Yashirin xavflar amalga oshishi uchun aniq shartlar boʻlishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi. Xavf va sabablarni misollarda (raqamlarda) koʻrish mumkin:

1. Soʻnggi 40 yil ichida (1969-2011 y.) tabiiy ofatlar ikki marta koʻpaygan;

2. 1909 yildan 1974 yilgacha asabiy kasalliklar 24 marta koʻpaygan;

3. Dunyoda 500 mln.ga yaqin nogironlar boʻlib, ularning 1/5 qismi baxtsiz hodisa natijasida boʻlgan.

Har qanday faoliyat yashirin (potentsial) xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu fikr mutlaqo xavfsiz faoliyat boʻlmasligiga asoslangan.

Xavfsizlik - bu ayrim extimollarga asoslanib paydo boʻladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir. Xavfsizlik - bu maqsad, HFX boʻlsa shu maqsadga erishish uchun qoʻllaniladigan vositalar, yoʻl-yoʻriq, qoʻllanmalar, usullardir.

HFX - bu xavf-xatarlarni oʻrganish va insonni himoya qilishni oʻrganadigan fandır.

Jismoniy tarbiya instituti sport mutaxassislari va talabalari favqulodda vaziyatlarda oʻzlarini maqsadga muvofiq tutishlari va bosqqalarni toʻgʻri tomonga yoʻnaltirishlari uchun "hayotiy faoliyati xavfsizligi" fani oʻqitiladi.

Favqulodda holatlar vaqtida intizom kuchli boʻlib, pedagog va talabalar berilgan buyruqqa rioya qilishlari shart.

HFX masalalari bilan qadim zamonlardan beri koʻp ulugʻ allomalar shugʻullanib kelishgan. Masalan. Gippokrat eramizdan avvalgi 460-377 yillar, Aristotel eramizdan avvalgi 384-322 yillar, nemis tabibi, olimi va muhandisi

Agrikola 1494-1555 yillar, Mehnat muhofazasidan risola yozgan italyan tabibi, Ramatssini (1633 - 1714) tozalik gigienasiga asos solgan M.V. Lomonosov (1711-1765) tog` konlarida mehnat muhofazasi to`g`risida monografiya yozgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoatda texnika rivojlanishi munosabati bilan, bir guruh olimlar xavfsizlik muammosi bilan shug`ullanganlar: Kirpichev V.L. (1855-1913), Press A.A. (1857-1930), Nikolskiy D.P. (1855 - 1918), Levitskiy V.A. (1867-1936), Skochinskiy A.A. (1874-1960), Kaplun (1897-1943) va boshqalar.

Ulug` o`zbek hakimi Abu Ali Ibn Sino (980-1087) o`z ishlari bilan bundan 1000 yil muqaddam gigiena faniga asos solgan. Texnosfera va xavfsizlik muammosining rivojlanishiga akademik Legasov V.A. o`z ilmiy ishlarini bag`ishlagan.

HFX - uchta o`zaro bog`liq masalani xal etadi:

1. Xavflarni birday (umumlashtirish) deb hisoblash, yani ularning qiyofasiga qarab, koordinati va miqdoriy xususiyatlarini ko`rsatish.
2. Sarf harajatlari va foydasini solishtirish asosida xavflardan himoya qilish.
3. Paydo bo`lishi mumkin bo`lgan salbiy xavflarni yo`qotish.

Mustaqilligimizning dastlabki davrlarida fuqarolarni va xududlarni tabiiy ofatlardan, turli xildagi avariyalardan muhofaza qilish, fuqarolarning mo`tdail hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi vazifalarni xal etish uchun O`zbekiston xukumati tomonidan 1991 yilda **fuqaro mudofasi tizimi fuqaro muhofazasi tizimiga** aylantirildi.

Yangidan tashkil etilgan ushbu tizim O`zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuqaro mudofasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida tinchlik davrlardagi tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari va halokatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish vazifalarini bajaradi.

Mamlakat FM sini rivojlantirishning asosiy kontseptsiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1994 yil 9 aprelda Toshkent shaqrida bo`lib o`tgan Respublika kengashida so`zlagan nutqida bayon etilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining **1996 yil 4 martdagi PF -1378** farmoniga binoan aholini va xalq xo`jaligi inshootlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, Respublikada tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O`zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tashkil qilindi.

Farmon bilan favqulotda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma`naviy qadriyatlarini muhofaza qilish shuningdek tinchlik va xarbiy davrda favqulotda vaziyatlar vujudga kelganda ularning

oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikni asosiy vazifalaridan biri deb belgilanadi.

Aholi va xalq xo'jaligi obektlarini muhofaza etishni taminlashga raxbarlik qilish Respublikada O'z.R bosh vazirining 1 - o'rinbosari favqulodda vaziyatlar vaziriga yuklatildi. Farmonning ushbu bandiga O'z.R. Prezidentining 1998-yil 11- dekabrda PF-2153 farmoni bilan o'zgartirish kiritilib O'zbekiston Respublikasi aholi va xalq xo'jaligi obektlarini muhofaza etishni ta'minlashga raxbar etib **O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri belgilandi.**

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday xollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT) ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va xakazolarga qaratilgan.

Favqulotdda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi Uz. R. Qonunlari.

matanimiz, Prezident tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o'rindadir.

Tabiiy ofatlarni oldini olish va oqibatlarini kamaytirish BMT ning 2010-2015 yillarda rivojlanishini qollab-quvvatlash dasturiga qiritilgan

O'zbekiston davlatni tabiiy ofatlar hatarini oldini olish va boshqaruv salohiyatini oshirish maqsadida BMT va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda 2010 yilning iyul oyida «Tabiiy ofatlar xavf-hatarini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining salohiyatini mustahkamlash»qoshma loyihasi imzolandi.

Asosiy qomusimiz bo'lgan O'z.R. konstitutsiyasining asosini ham **inson, uning qadr-qimmatini salomatligi tashkil etadi.** Insonning hayoti yashashga bo'lgan xuquqi konstitutsiya bilan muhofaza qiladi. Asosiy qomusimizda xavfsizlik fuqarolar muhofazasi masalalariga ham o'rin berilgan. O'z.R. konstitutsiyasining 93- moddasida shunday deyiladi: O'z.R.Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat,epedemiya) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab O'z.R.ning butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilingan qarorini 3 kun mobaynida O'z. R.Oliy majlisining tastig'iga kiritiladi. Favqulotdda holat joriy etish shartlari qonun bilan belgilanadi.

Oliy majlisning vakolatlariga O'z R. Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulotda holat joriy etish va uning muddatini uzaytirish, va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash kiradi. So'ngi yillarda oily majlis tomonidan yangi asrda aholining xavfsizligini kafolatlovchi fuqarolar mas'ulyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zamini belgilovchi bir nechta qonunlar qabul qilindi. "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi", "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida", "Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida", "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Fuqaro muhofazasi to'g'risida(2000y)", "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida", "Radiatsiyon xavfsizlik to'g'risida", "Terrorizimga qarshi kurash to'g'risida" gi qonunlar shular jumlasidandir. Yuqorida sanab o'tilgan qonunlar ichida 1999 – yil 20 – avgustda qabul qilingan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblaniladi.

Aholini va hududlarni muhofaza qilishni asosiy usul va tamoyillari:

- ◆ Insonparvarlik, inson hayoti va sogligini ustivorligi.
- ◆ Ahborotni oz vaqtida berilishi va ishonchli bolishligi
- ◆ oshkoralik
- ◆ Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarini oldindan korib qoyilishi.

" Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish boyicha 2012 yilda bagariladigan tadbirlar yakuni va 2013 yildagi vazifalar togrisida" O'z R Fuqaro muhofazasi boshligining 2012 yil 17dekabrdagi 3- sonli buyrugi keldi. Shunga asosan Institutda "Fuqaro muhofazasi" kunini beshta fakultet pedagog va talabalari orasida otkazishni regalashtirdik.

Favqulodda hodisalar o'zini kelib chiqishiga asosan 4 xil bo'ladi.

1. Tabiiy (tabiiy hodisalar).
 2. Texnogen (ishlab chiqarish bilan bog'liq).
 3. Ekologik.
 4. Ijtimoiy.
1. Tabiiy holatdagi favqulodda xodisalar.

Ular o'z navbatida quyidagi xavfli xodisalarga bo'linadi:

- ✓ Geologik:
- ✓ Hidrometeorologik:
- Epizootik, epifitotik va epidimiologik.

havfli xodisalarga bo'linadi.

Geologik xavfli xodisalarga: yer qimirlashi, erni ko'chishi, tog'-jinslarini ko'chishi va boshqalar.

Er qimirlashi - bu yer yuzasini yer tagi bilan silkinishi, ko'tarib tashlanishi, yerni eng tubidagi energiyani yuqoriga tashlash jarayoni bilan bog'liq bo'lib (asosan tektonik qavatida) yerni qimirlashini sodir etadi.

Tabiiy ofatlar orasida o'zini yetkazgan zarari bilan keltirgan talofatlari bilan birorta favqulodda hodisa bunga teng kelolmaydi. Yerni qimirlash magnituda yoki Rixter o'lchov birligida (ballar) o'lchanadi. Yer qimirlash markazini yerni eng tag qismidagi sodda qilib aytganda "energiya manba'i"da energiyani chiqib ketish uchun yer yuzasiga intilishi yer qimirlashini yoki silkinishini hosil qiladi. Ularni shartli ravisqda quyidagicha bo'lish mumkin:

- kuchsiz (1-4 ball).
- kuchli (5-7 ball).
- zarar keltiruvchi (8 va undan ortiq ballar).

Er surilishi - o'z og'irlik kuchi ta'siri natijasida tuproqni va toq jinslarini pastki qiyalar tomon ko'chishi xisoblanadi. Odatda daryo qirg'oqlarini suv bilan yuvilishi natijasida katta yer jinslarini qiya bo'ylab surilishi natijasida sodir bo'ladi. Shu sababli ko'p davom etadigan yog'ingarcqilikdan so'ng yerni surilisqi faollashadi. Yer surilishi va o'pirilishi qosil bo'lishini asosiy sabablari:

- Tog' jinslarini og'irlik kuchi.
- tuproq erroziyasi va yer o'pirilishi natijasida qiyalikni ortishi.
- er silkinishi:
- qoyani oqirligini o'zgarishi.
- suvni buqlanish bosimini ortishi.
- tog' jinslarini yopisqqoqlik (qovushqoqlik)darajasini pasayishi.

Gidrometereologik havfli hodisalarga: sel, suv bosishi, qor ko'chishi va boshqalari kiradi.

Sel so'zi arabcha "sayl" so'zidan olingan bo'lib, katta suv oqimi ma'nosini beradi.

Sel - bu to'satdan hosil bo'ladigan katta oqimdagi suvni qum, loy, kichik toshlar bilan birga tezlikda oqishiga aytiladi. Tezligi niqoyatda kuchli, massasi katta bo'lganligi sababli yo'lidagi imoratlarni, gidrotexnik inshootlarni, elektr uzatishi tarmoqlarini, bog'larni, chopiladigan erlarni bosib ketadi. Bu bilan odamlar va xayvonlarni o'limiga sabab bo'ladi.

Sellar tg'larni yuqori qismlarida kuchli yomqir yog'isqi natijasida yoki tog'dagi qorlarni va muzlarni tezlikda erishi natijasida xosil bo'ladi. Sel oqimi

asosan daryo , daryo irmoqlari va erni o'pirib xarakatlanadi. Uni kuchi nihoyatda katta bo'lib, katta-katta tog' toshlarini dumalatishi, temir yo'l vagonlarini qulatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasini xamma tog'li xududlari " sel havfi kuchli zona"larga kiritilgan. Bularga Toshkent, Surxondaryo, Namangan viloyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Tog'li xududlarda aprel-may oylarida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli sel olishi ko'p kuzatiladi. Oxirgi vaqtlarda odamni faoliyati natijasida sel olishi xavfi kuchayib bormoqda. Bunday xodisalarga tog'-yon bag'ridagi daraxtlarni kesish, tog'-yon bag'ridagi podalarni boqish, tog'-kon muassasalarida chiqindi mahsulotlarni noto'g'ri joylashtirish, avtomobil' va temir yo'l qurilishida portlatish ishlarini ishlarini noto'g'ri olib borish, yerga noto'g'ri ishlov berish, tog'li xududlarda irrigasiya inshootlarini noto'g'ri joylashtirish, sanoat korxonalari chiqindilarini o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatishi sabab bo'lmoqda . Selga qarshi kurashish uchun tuproqni yuza qavatini mustaxkamlash kerak. Buning uchun daraxtlar ekish lozim. Toqdagi suv omborlaridan vaqti-vaqti bilan suvni chiqarib turish kerak. Selga qarshi kurashish uchun yog'ochlardan suvga qarshi tura oladigan to'siqlar quriladi. (damba, platina).

Suv bosishi O'zbekiston xududida vaqti-vaqti bilan kuzatilib turadigan xodisa bo'lib, ko'pchilik daryolarimizdagi suvlar toshib qirg'oq atrofidagi yashovchi odamlarga moddiy zarar keltiradi.

Suv bosishi deb - daryolarda, suv omborlarida ,ko'llarda suvni o'z meyoridan ko'tarilib , ancha xududni bosib ketishiga aytiladi. Asosiy sababchisi yog'ingarchilikni ko'p va uzoq vaqt bo'lishi, qor va muzliklarni tezlikda erishi, shamolni kuchli ta'siri natijasida suvni ko'tarishi, suvga qarshi qurilgan to'siqlar ko'chib ketishi bo'ladi. Suv muammolarini o'rganish natijalari suv bosishini 4 ta turini belgilab berdi:

- Tog'dagi qorlar tezda erishi natijasida bahor faslida suvlarni miqdorini ko'payib ketishi.
- Yog'ingarchilikni ko'p takrorlanishi natijasida suvni yuzasini yuqoriga ko'tarilishi.
- Qish oylarida daryolarni muzlashi , uni erishi natijasi oqibatida suv yuzasini yuqoriga ko'tarilishi.
- Bo'ron natijasida suvni yuza qismini ko'tarib suv bosishiga olib kelishi.

Suv bosishini oldini olish uchun , albatta " suv olish havfini" axbort vositalari yordamida oldindan xabarini berish lozim. Aholini himoyalashiga o'qitish, uni yuqori darajada tashkil etish, suv bosishini oldini oladigan sharoit xisoblanadi.

Qor ko'chishi-bu tog' bag'rilaridan xar-xil ta'sirot natijasida katta qor ko'chimini sirg'anib tushishi aytiladi. U o'zini xarakat jarayonida boshqa qorlarni

ham o'ziga ergashtirib olib keladi. Katta tezlik bilan kelayotgan qor daraxtlarni ag'darishi, uylarni buzib yuborishi, ko'chalarni to'sib qo'yishi mumkin.

O'z o'zidan ma'lumki, qor ko'chishi bir sababsiz bo'lmaydi, agarda kuchli qor bo'ron bilan yog'ganda, qorni ustiga yomqir yoqqanda, qor yog'ayotgan vaqtda xarorat o'zgarsa yoki kuchli bo'ron bo'lib qor uyumlarini ko'chirib yuborganda sodir bo'lishi mumkin. Qor ko'chishi boshlanishi uchun eski qor qatlami qalinroq masalan balandligi 70 sm, yangi yog'ayotganini balandligi undan kichikroq 30 sm bo'lishi oqibatida xam sodir bo'ladi. Qor ko'chishini oldini olish uchun maxsus tog'da qor ko'chish xizmati bor. Bu xizmatni vazifasi o'zi tog'da joylashgan bo'lib, qor qavatlarini va ob-havoni kuzatib turadi.

Kuzatuvlar asosida oldindan qor ko'chishqi joylarini belgilaydi. Qor ko'chish havfi tug'ilganda qorda yoriq hosil bo'lish, qorni usti nam bo'lganda ustiga qor yog'ishi natijasida ham qor ko'chishi kuzatiladi. Ko'chish havfini ob-havoni keskin o'zgarishi xosil etishi mumkin:

- ❖ Qorni kuchli yoqishi.
- ❖ Kuchli sqamol.
- ❖ Yomqir yog'ishi.
- ❖ Tezlikda isib ketishi.
- ❖ Ob-havoni keskin ochilib ketishi.

Ko'chish sababini qor qatlamini ichida kuchsiz siyrak qorlarni xosil bo'lishi manba xosil qiladi.

Meteorologik xavfli xodisalarga kuchli shamol, bo'ron, to'fon ham kiradi:

Kuchli shamol: o'z navbatida zararli oqibatlari bilan yer silkinishidan kam emas. Kuchli shamol o'zini kucqi bilan niqoyatda katta energiyaga ega bo'ladi. Buni biz yadro portlashidagi energiyaga taqqoslashimiz mumkin. O'zbekiston xududida kuchli shamol yilning istagan vaqtida kutilishi mumkin.

Ularning vaqtlari ma'lum davrlarda takrorlanib turgani uchun aniq aytib berishi mumkin bo'ladi.

O'rama shamollar natijasida ba'zi bir vaqtlarda kuchli yomg'ir, qor yog'ishi, do'l yog'ishi, elektr maydonlarini ko'chishi kuzatiladi. Bo'ron natijasida daraxtlarni ildizi bilan qo'porishi, imoratlarni tomini ko'tarib tashlashi, yuk kranlarini ag'darishi, suvdagi qayiq'larni ko'tarib aqdarib tashlashi, kommunikasiya inshootlarini buzib yuborishi mumkin. Ko'pchilik vaqtda bo'ronlar changli va qorli shamollarni olib keladi. Kuchli bo'rondan so'ng suv to'siqlari ochilib ketib, suv bosish xolatlariga olib kelgani, poezdni vagonlari bilan ag'dargani, ko'priklarni buzib tashlagani, fabrikalarni mo'rkonlarini ag'darib yuborgan xolatlar ma'lum. Ko'pchilik xolatda kuchli yomg'ir yog'isqi bilan mutanosib xolatda bo'lib, yerni ko'chishiga va sel oqimiga sababchi bo'ladi.

Kuchli shamol katta buzilishlarga sababchi bo'ladi. Bunda shamolni xarakat tezligi bo'rondagiga nisbatan kamroq bo'ladi, davomiyligi esa bir necha soatdan

bir necha kungacha bo'lishi mumkin. Yilning fasllariga qarab havoga ko'tarilgan zarrachalarning tarkibiga qarab changli, changsiz, qorli kuchli shamollar bo'lishi mumkin.

Texnogen favqulodda xodisalar.

Katta korxonalarda favqulodda xodisalar vaqtida hamda ishlab chiqarish texnologiyasi buzilgan vaqtda, xar xil mashinalardan foydalanganda texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik natijasida, jiqozlarni saqlash vaqtida xavfsizlik choralari buzilganida, texnogen ko'rinishdagi favqulodda xodisalar paydo bo'ladi. Ularni yetti turga bo'lish mumkin:

1. Transportdagi avariylar va halokatlar : ekipaj a'zolari va yo'lovchilarni o'limiga, qavo kemalarini to'liq parchalanishiga yoki shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar.

Yong'inga, portlashga, xarakatlanuvchi tarkibining buzilisqiga sabab bo'lgan va temir yo'l xodimlarining xolokat xududidagi temir yo'l platformalarida, vokzal binolarida va shaxar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek, tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTZM) lar bilan xalokat joyida tutash xududining zaxarlanishiga olib kelgan temir yo'l transportidagi xalokat va falokatlar.

2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar: tevarak-atrof tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi zaxarli moddalarning (avariya holatida) odamlar, xayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan taqdirda, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentrasionalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya xududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar.

3. Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar: Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi olamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaxarlanishlariga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish zaxiralarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar xududlarida ishlab chiqarish maromining va odamlar hayot faoliyatining buzilisqiga olib keladigan yong'inlar va portlashlar.

Odamlarning shikastlanishiga, zaxarlanishiga va o'limiga olib keladigan hamda qidiruv-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo'llashni talab qiluvchi ko'mir shaxtalaridagi hamda kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan boqliq avariylar, yong'inlar va jinslarning qo'porilishi.

4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar: Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilisqiga olib keladigan GES,

GRES,AES lardagi, tuman issiqlik markazlaridagi elektr tarmoqlaridagi buq-qozon qurilmalaridagi, kompressor, gaz taqsimlash shahobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariyaalar, yong'inlar, aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tuqilishiga olib keladigan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizasiya va boshqa kommunal ob'ektlardagi avariyaalar.

Atmosfera , tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tuqdiruvchi darajada konsentrasiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'ladigan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariyaalar.

5.Bino va inshootlarning birdan qulab tusqisqi bilan boqliq avariyaalar:

Odamlaro'limi bilan boqliq bo'lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv o'tkazilishinihi hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, suningdek, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yonqinlar. Gaz portlashi va boshqa xodisalar.

6.Radioaktiv va bosqqa havfli hamda ekologik jihatdan zararli odatlardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariyaalar:

Sanitariya-himoya xududi tashqariga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo'ladigan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo'l qo'yiladigan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqaradigan texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan ob'ektlardagi avariyaalar; radioizotop buyumlarning yo'qotilishi; biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.

7.Gidrotexnik inshootlardagi xalokatlar va avariyaalar : Suv omborlarida , daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi yo'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga keladigan qamda suv bosgan xududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi ob'ektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan xalokatli suv bosishlari.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar 3 xil bo'ladi;

1.Quruqlik (tuproq , yer osti) holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar ; halokatli ko'chkilar - foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishini va insonning boshqa faoliyati natijasida er yuzasining o'pirilishi, siljishi;

Tuproq va yer sanoati tufayli kelib chiqadigan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft maqsulotlari, shuningdek , qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'lig'I uchun xavf soluvchi konsentrsiyalarda qo'llaniladigan pestisidlar va boshqa zaxarli ximikatlar mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar: havo muhitining quyidagi ingradientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

- oltingugurtli oksid , azotli oksid , uglerod oksid, dioksid, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentrsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zararli moddalar;
- keng ko'lamda kislotali xududlar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yoq qilishi;
- radiasiyani yuqori darajasi.

3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

Er yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqavalari;

Neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, tarkibida og'ir metallar , xar xil zaxarli ximikatlar mavjud chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

Binolar, muxandislik kommunikasiyalari va uy-joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar miqdorining ortishi;

Suv manbalari va suv olish joylarining zarali moddalar bilan ifloslinishi oqibatida icqimlik suvining keskin yetishmasligi.

Hozirgi vaqtda Birlasqan Millatlar Tasqkiloti - BMT bo'yicha favqulodda vaziyatlarning tasnifiga yana qo'shimcha qilib:

- a) ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlar
- b) xarbiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarni kiritish mumkin.

Mavzuni o'zlashtirisq uchun tayanch iboralar:

- 1.Favqulodda hodisalar va favqulodda vaziyatlar (FV).
- 2.X.F.X fani (hayot faoliyati xavfsizligi).
- 3.Fuqaro muqofazasi tizimi.
- 4.FVV (Favqulodda vaziyatlar vazirligi).
- 5.FVDT(Favqulodda vaziyatlar Davlat tizimi)

- 6.Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar
- 7..Texnogen favqulodda vaziyatlar.
- 8..KTZM (Kucqli ta'sir etuvchi zaxarli moddalar)
9. Ekologik favqulodda vaziyatlar.
10. Ijtimoiy favqulodda vaziyatlar.
- 11.Xarbiy tavsifidagi favqulodda vaziyatlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Jismoniy tarbiya instituti talabalariga nima sababdan «Hayot faoliyati xavfsizligi» fani o'qitiladi ?
- 2.Fuqaro muqofazasi tizimi qaerda va qachon tashkil etilgan?
- 3.FVV ligi qachon va kimni farmoni asosida tashkil etilganh?
- 4.O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar masalasiga tegishli qanday qonun va farmonlar qachon qa'bul etilgan?
- 5.FVDT(Favqulodda vaziyatlar Davlat tizimi)qachon tasqkil etilgan?
- 6.Favqulodda vaziyatlar sababi va kelib chiqishiga ko'ra bo'ladi?
- 7.O'zbekiston Respublikasida sodir bo'lipi mumkin FVlar?

**Mavzu:Favqulodda vaziyatlar tarifi va ularning oqibatlarini
tugatish chora tadbirlari.**

Favqulodda vaziyatlar yuz berganda aqolini ogoqlantirish

Reja:

1. Favqulodda vaziyatlar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlar.
2. Respublika Favqulodda vaziyatlar davlat tizimini (FVDT) vazifalari.
3. Aholini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash.
4. Favqulodda vaziyatlar turlari.
5. Favqulotda vaziyatlarda aholini ogoqlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 20.08.1999 yilda qabul qilingan "Aqolini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunga binoan Respublika Favqulodda vaziyatlar xizmati (RFVX) da qo'llaniladigan asosiy iboralarning ta'rifi joriy etilgan:

Favqulodda vaziyat - odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi xamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan va yoki olib kelgan xalokat, xavfli tabiiy va texnogen xususiyatli boshqa ofat natijasida muayyan xududda yuzaga kelgan vaziyatlar;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berish xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlar sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'liqini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan xududlarni xalqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi;

Aholini va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y-xarakatlari majmuidir.

Favqulodda vaziyatlar xududi - favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan xudud.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1 yanvar 2001 yildagi 1-sonli qarori bilan "Tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni klassifikatsiyalash to'g'risida" gi Nizomda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni baholash, ularning xududlarini belgilash va ularga mutanosib ravishda munosabat bildirishda yagona qoidalarini qo'llash belgilangan.

HFX - o'z nazariya va metodologiya usullariga ega. Shunga qaramay HFX – muhandislik, ruhiy holat (psihologiya), inson fiziologiyasi, mehnat muhofazasi, ekologiya, ergonomika, iqtisod va boshqa fanlarning yutuqlariga asoslangan. HFX ning metodologik asosi - bu tartibiy taxlildir. Texnika va sanoat yuqori taraqqiy etgan hozirgi davrda HFX ning ahamiyati yana ham oshib ketdi. Xavfsizlik masalalari yana ham keskinlashib ketdi. SHuning uchun mehnat xavfsizligini chuqur o'rganish, bilish, tashviqot qilish va odamlarni xavf-xatardan himoya qilish masalalari asosida tarbiya qilish kerak. Bu HFX ning vazifasi va maqsadi. HFX - jamiyatimizning mustahkamlanishida xalqning xavfsizlik faoliyati darajasini ko'tarishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi. HFX fanini o'rganmay, odamlar umumiy

inson huquqlarida aytilgan ...hayot, erkinlik, mehnat, shaxsiy daxlsizlikka erisha olmaydi... (Inson huquqlari deklaratsiyasi, 3-bandi).

O'z.R. Prezidentining 1998-yil 11- dekabrda PF-2153 farmoni bilan o'zgartirish kiritilib O'zbekiston Respublikasi aholi va xalq xo'jaligi obektlarini muhofaza etishni ta'minlashga raxbar etib **O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri belgilandi.**

FVDT ning ASOSIY VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

" Favqulodda vaziyatlardan jabrlangan aholini himoya qilish, aholini va xududni favqulodda vaziyatlardan himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq iqtisodiy va xuquqiy normalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

" Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va favqulodda vaziyatlarda tashkiliy-xuquqiy shaklidan qat'iy nazar tashkilotlar, korxonalar va muassacalar hamda ularga bo'ysunuvchi ishlab chiqarish va maxsus ob'ektlarning barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan maqsadli va ilmiy texnik dasturlarni amalga oshirish;

" Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun ajratilgan yoki mo'ljallangan imkoniyat va mablag'larni boshqarishga tayyor holatda bo'lishini ta'minlash;

" Aholi va xududni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasidagi axborotni jamlash, tahlil qilish almashish va berish;

" Aholini favqulodda vaziyatlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarakatlarga tayyorlash;

" Favqulodda vaziyatlar keltirib chiqargan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni taxminlash va baholash;

" Ijtimoiy-gumanitar tadbirlarni amalga oshirish;

" Aholi, shu jumladan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etayotgan shaxslarning, favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasidagi xuquq va majburiyatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAQTIDA AHOLI OLDIGA QUYIDAGI TALABLAR QO'YILADI:

" Muhofazalanishning asosiy usullarini, jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini o'rganishlari xamda o'z bilim va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishlari;

" Favqulodda vaziyatlar ro'y berishiga olib kelishi mumkin bo'lgan avariya, ofatlar va halokatlar taxdididan darak beruvchi alomatlar borligi to'g'risida tegishli organlarga xabar berishlari;

" Favqulodda vaziyatlar taxdid solgan va boshlangan sharoitlarda ogoxlantirish belgilarini, yurish turish qoidalari va xarakat qilish tartibi, umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish usullarini bilishlari;

" Zarurat avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni o'tkazishda yordamlashishlari shart.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi xuquq va majburiyatlari:

O'zbekiston Respublikasi xududida chet el davlatlarining fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng xuquqlarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar.

AHOLINI VA MUTAXASSISLARNI FAVQULOTDDA VAZIYATLARDA XARAKAT QILISHGA TAYYORLASH:

“Umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-xunar kollejlari xamda oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda xarakat qilishga o'rgatish umumiy va majburiydir”. (O'z Rning “Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida” gi Qonuni 1999 yil 20 avgust))

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda xarakat qilish davlat tizimi xabarlar va mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish muassasalarida, kurslarda, maxsus o'quv uslubiyat markazlarida va ish joyida amalga oshiriladi.

Aholini, mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda xarakat qilishga tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublika Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Favqulotlarda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ'ib etish davlat organlari, shuningdek odamlarni muhofaza qilish va qutqarish borasidagi tegishli jamoat birlashmalari tomonidan ta'minlanadi. Bilimlarni targ'ib etish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin.

Favqulodda vaziyatlar jabrlangan odamlar soni, moddiy zarar miqdori va zararlantirish omillari tarqalishi xududlari chegaralariga muvofiq farqlanadi. Bunda ular lokal, maxalliy, xududiy, mintaqaviy, federal va transchegaraviy ahamiyatga ega favqulodda vaziyatlar kabi turlarga ajratiladi:

Lokal ahamiyatga ega favqulodda vaziyatlar - bunda 10 nafardan ko'p bo'lmagan odam jabrlanib, 100 nafardan ko'p bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buziladi. Favqulodda vaziyat ob'ekt xududidan tashqariga chiqmaydi.

Mahalliy ahamiyatga ega favqulodda vaziyatlar - bunda jabrlangan odamlar soni 10 - 50 nafar bo'lib, 100-300 nafar odamning hayot faoliyati sharoitlari buziladi. Favqulodda vaziyat aholi yashash punkti yoki shaxar xududidan tashqariga chiqmaydi.

Xududiy ahamiyatga ega favqulodda vaziyatlar - bunda jabrlangan odamlar soni 50 - 500 nafar bo'lib, 300-500 nafar odamning hayot faoliyati sharoitlari buziladi. Favqulodda vaziyat Respublika xududidan tashqariga chiqmaydi.

Mintaqaviy ahamiyatga ega favqulotda vaziyatlar - bunda jabrlangan odamlar soni 50 - 1000 nafar bo'lib, ko'p minglab odamning hayot faoliyati sharoitlari buziladi. Favqulodda vaziyat Respublikaning ikkita mintaqasi xududini qamrab oladi.

Transchegaraviy ahamiyatga ega favqulotda vaziyatlar - bunda favqulodda vaziyat butun qit'a xududini qamrab oladi va respublika xududiga ham ta'sir ko'rsatadi. RFVX aholini va xududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilishga vakolatli bo'lgan respublika boshqaruv organlarini birlashtirib, markaziy va respublika sub'ektlari ijro xokimiyatining hamda fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organlarining kuch va vositalarini jamlaydi. OON va boshqa davlatlarning FV klassifikasiyalashlari farqli bo'lib qo'shimcha:

A) Xarakteriga ko'ra FV (FV kelib chiqishga sababchisi va keltirib chiqaruvchi manbaaga ko'ra):

1. Ijtimoiy-siyosiy (ijtimoiy-biologik) xarakterli.
2. Xarbiy xarakterli FV

B) FV qaerda sodir bo'lganiga ko'ra :

1. Ishlab chiqarishdagi FV
2. Transportda sodir bo'lgan FV
3. Qurilishdagi FV
4. Qishloq xo'jaligidagi FV va boshqa FV

V) Sodir bo'lish vaqtiga ko'ra FV lar :

1. To'satdan sodir bo'ladigan FV lar
2. Sekin keluvchi (sodir bo'luvchi) FV lar.

FUQAROLARNI FAVQULODDA VAZIYAT HAQIDA OGOHLANTIRISH:

Fuqarolarni muhofaza qilishning uslublari quyidagilardan iborat:

- 1) Fuqarolarni xavfli vaziyat xususida o'z vaqtida ogoqlantirish;
- 2) Radiasiyaga va kimyoviy ta'sirlarga qarshi (RQ va KTQ) omillari;
- 3) Himoya inshootlari bilan ta'minlash va saqlash;
- 4) Evakuasiya qilish (xavfli xududdan vaqtinchalik yoki butunlay uzoqlashtirish);
- 5) Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.

Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni himoya qilishning xar tomonlama omillaridan aloxida o'rin tutadigan uslub-bu fuqarolarni o'z vaqtida

ogoxlantirish xisoblanadi. Ogoqlantirish radio, televizor, uyali aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda fuqarolarni ogoqlantirishdan oldin sirena, ishlab chiqarish korxonalari gudogi, transport vositalarining signallari va boshqa belgilar orqali ogoh etiladi. Ya'ni bu belgilar "DIQQAT XAMMAGA!" degan ma'noni anglatadi. Shu belgilarni eshitgan xar bir fuqaro radio, televizorlarini qo'yishlari zarur. Xar bir ofat yuz berganda, ularni fuqarolarga xamda xalq xo'jaligiga ko'rsatadigan ta'sir xususiyatlarini xisobga olgan holda ogoqlantirish matnlari tuzib chiqiladi.

Masalan: A) "**DIQQAT!** Fuqaro muhofazasi shtabidan gapiramiz, Fuqarolar! Chirchik kimyo korxonasida odamga kuchli ta'sir etuvchi zaxarli modda (KTZM) – ammiakni to'kilishi oqibatida avariya sodir bo'ldi. Zaxarlangan havo Toshkent shaxari xarakatlanmoqda. Kimyoviy zaxarlanish zonasiga yaqin joylashgan korxonalar va aholi yashaydigan mahalla, kvartallar, nomlari ko'rsatilgan holda ishchi xizmatchilar, fuqarolar o'z uylari va ish joylarini xavfsiz xolatda qoldirishlari (gaz, suv, elektrni o'chirishlari) va Toshkentga evakuasiyaga tayyorlansinlar. Kimyo korxonasidan uzoqdagi korxonalar, mahallalardagi (nomlari ko'rsatiladi) yashovchilar o'z ish joylarida, uylarida qo'shimcha germetiklikni ta'minlab saqlanishlari lozim. Eshitganlaringizni qo'ni - qo'shnilarga ham etkazing!"

B) Yer silkinishi ehtimolida :

" Diqqat Fuqaro muhofazasi shtabidan gapiramiz Fuqarolar! Yana yer silkinishi ehtimoli bor! Gaz, suv, elektr, yonayotgan moddalarni o'chirib, uylarni havfsiz qolatda qoldirib, eshitgan ma'lumotlaringizni qo'ni-qo'shnilarga yetkazing. Kerakli narsalarni: kiyim-kechak, chaxsni tasdiqlovchi xujjatlarni, oziq-ovqat, suv olib baland imorat va kranlarlardan uzoqroq ochiq maydonlarga chiqing, saqlaning! Yer silkinishida yuqori qavatli binolarda bo'lsangiz, darxol eshik,

oyna ustunlari tagiga turib oling.Tartib va osoyishtalik saqlansin, Fuqaro muqofazasi yo'riqnomalariga e'tiborningizni qaratng!"

Mavzuni o'zlashtirish uchun tayanch ibora va so'zlar:

- 1.Favqulodda vaziyat.
- 2.Favqulodda vaziyatni oldini olish.
- 3.Favqulodda vaziyat xududi.
- 4.Axoli va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish.
5. FVDT (Favqulodda vaziyatlar Davlat tizimi) vazifalari.
- 6.Favqulodda vaziyatlar turlari.
- 7.Aholi va mutaxassislarni FV muxofazalanishga tayorlash.
- 8.Ogohlantirish signallari.

Mavzuni mustaqamlash uchun savollar:

- 1.Favqulodda vaziyat nima?
- 2.Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun qanday chora-tadbirlar ko'riladi?
3. FVDT(Respublika favqulodda vaziyatlar Davlat tizimi) vazifalari nimalardan iborat?
- 4.Favqulodda vaziyatlar turlari va xususiyatlari qanday?
- 5.Fuqarolarni muhofaza qilishning ogohlantirish uslubini mohiyati qanday?

Mavzu : Radioaktiv zararlanish va ularni oqibatlari

REJA :

- 1.Rdiasiyaviy holat va uni boxolash.
- 2.Radiasiyaviy xavfning odamlarga va xalq xo'jaligiga ta'siri.
- 3.Yadroviy portlashning zararli omillari.
- 4.Nurlanish kasalligi va uning darajalari.

Radiasiyaviy holatlar va ularning xavfsizligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining **2000 yil 31 avgustda "Radiasiyaviy xavfsizlik to'g'risida"** gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi insonlar xayoti, sog'lig'i va mol-mulki, shuningdek, atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanish, radioaktiv ifloslanishlarining zararli ta'sirlaridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni tartibga solishdan iborat.

Radiasiyaviy holat deganda ,joylarni radioaktiv zararlanish darajasi va o'lchami tushunilib, bu aholining yashashiga xamda xalq xo'jaligi ishlab chiqarish ob'ektlarida ishlashlariga ta'sir etadi.

Qonunga radiasiyaviy xavfsizlikka doir yangi taxrirdagi tushunchalar ham kiritilgan, jumladan:

Ionlashtiruvchi nurlanish - radioaktiv parchalanishda , yadroviy yemirilishlarda, moddadagi zaryadlangan zarrachalar xarakatlanishini sekinlashuvida hosil bo'ladigan hamda muhit bilan o'zaro ta'sir etish chog'ida har xil qutbli ionlarni hosil qiladigan nurlanish;

Ionlashtiruvchi nurlanish manba i- o'zidan ionlashtiruvchi nurlarni chiqaruvchi qurilma yoki radioaktiv modda;

Radiasiyaviy avariya - uskuna nosozligi, xodimlarning xatti-xarakatlari tabiiy va texnologik xususiyatli FV tufayli kelib chiqqan, fu1arolarning belgilangan me'yordan ko'proq nurlanish olishga yoki atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib keluvchi yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi;

Radiasiyaviy xavfsizlik-fuqarolarning va atrof-muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofazalanganlik holati;

Yadroviy xavfsizlik - yadroviy materialdan xavfsiz foydalanishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui;

Kuzatuv zonasi-Radiasiyaviy monitoring o'tkaziladigan sanitariya-muhofaza zonasidan tashqaridagi xudud.

Bir qancha ilmiy-tekshirish muassasalarida va sanoat korxonalarida xar xil maqsadlar uchun radioaktiv moddalardan foydalaniladi.

Masalan mashinasozlik sanoatida radioaktiv moddalardan quyma detallardagi kamchiliklarni va payvand qilingan joylarning va detallarning sifatini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Kristallsimon moddalarning tarkibini tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va avtomatlashtirishda ham radioaktiv nurlar yaxshi natija beradi.

Er osti va yer usti yadro portlashlari natijasida radioaktiv moddalar havo va tuproq maxsulotlari bilan aralashadi, so'ng havo oqimi bo'ylab xarakatlanib, sekin-asta yerga tushadi. Bunda ko'zga ko'rinmaydigan radioaktiv zararlanish izi hosil bo'ladi, bu iz qanchalik ko'p bo'lsa, insonlarning yashashlari va ishlashlari uchun shuncha uzoq vaqt xavf tug'diradi. Xuddi shunday holat yadro zaryadi bilan ishlaydigan tarmoqlarda (AES, gamma nuridan foydalanadigan ilmiy laboratoriyalarda) avariya natijasida ham kuzatilishi mumkin. Jumladan, 1986 yildagi Ukrainani Chernobil AES da ga avariya oqibatida to'rtinchi energoblokdan chiqqan radioaktiv moddalar 30 km .li masofagacha tarqalib, u yerdagi jamiki ob'ektlarni (atrof-muhitni , insonlarning yashash-ishlash joylarini kiyim-kechaklarini, moddiy resurslarni, suvni va boshqalarni) shikastlagan. Yana bir daxshatli holat 2011yil 11martda Yaponiyada magnitudasi 9 ga teng bo'lgan yer silkinishi oqibatida "sunami" bo'lib, Fukusima shaxardagi AES da portlashlar yuz berdi. Buni oqibatida atrof-muhitga meyoridan ortiqcha iod va seziy izotopi bir necha yuz marotaba ko'p tarqaldi va Tinch okeanga tarqalishi kuzatildi. Yaponiya xalqi nafaqat yer silkinishidan, radiasiyaviy zararlanishlardan qo'rqdi. Fukusima AES ida 30 dan ortiq qutqaruvchilar xalqini og'ir vaziyatidan qutqarish maqsadida, o'zligi bilgan xolda yillik radiasiyani kuniga oldi.

Radioaktivlik - atom yadrolarining ion nurlanishlari chiqarishi natijasida boshqa bir atom yadrolarining xosil qilishidir.

Radioaktiv nurlanishlar *ionlovchi nurlanishlar* deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekulalarida ionlar hosil bo'ladi. Bunday ionlovchi nurlanishlarga *rentgen nurlari*, *radio va gamma nurlari*, *alfa* va *beta* nurlari, shuningdek, *neytron* oqimlari kiradi.

Alfa nurlari katta ionlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan , xarakat doirasi katta bo'lmagan geliy atom yadrosining musbat zaryadlangan zarrachalari hisoblanadi. Xarakat doirasi katta bo'lmaganligi sababli inson teri qavatigagina ta'sir qilib, terini yorib kira olmaydi, shuning uchun ham uncha zararli emas.

Beta nurlari radioaktiv moddalarning atom yadrolari tarqatadigan elektron yoki pozitron oqimidir. Bu nurlarning xarakat doirasi ancha keng va yorib kirish qobiliyatiga ega. Shu sababli ham inson uchun xavflidir.

Gamma nurlari ionlash qobiliyati katta bo'lmasa-da, katta yorib kirish kuchiga ega bo'lib, yadro reaksiyalari va radioaktiv parchalanish natijasida vujudga keladigan yuqori chastotadagi elektromagnit nurlari hisoblanadi.

Rentgen nurlari moddalarni elektron oqimlari bilan bombardimon qilganda ajralib chiqadigan elektromagnit nurlaridir.

Ularni har qanday elektrovakum qurilmalarida xosil qilish mumkin. Bu nurlarning ionlanish xususiyatlari oz bo'lsa-da, yorib kirish xususiyati nihoyatda katta.

Radiasiyaviy holatni baxolash deganda - joylarni radioaktiv zaraganlik tavsifnomasi va ularning fuqarolarga ,texnika, qurilish va imoratlarga hamda xayvon va o'simliklarga ta'siri tushuniladi.

Tavsifnomaga quyidagilar kiradi:

- ✓ Ob'ekt xududidagi ionlashtiruvchi nurlanishni xavflilik darajasi;
- ✓ Radioaktiv modda bilan zararlangan xudud o'lchami;
- ✓ Fuqarolar va xayvonlarning nurlanish darajasi;
- ✓ Texnika, tuproq, o'simlik, oziq-ovqat, suv, bino va inshootlarning radioaktiv zararlanganlik darajasi;
- ✓ Fuqarolarga va xayvonlarga ionlashtiruvchi nurlanishning xavflilik darajasi;
- ✓ Radiasiyaviy xavfning xalq xo'jaligi tarmoqiga qanchalik zarar yetkazganlik darajasi.

Radiasiya holatining natijalariga qarab zararlangan joylarda aholiga davolash va profilaktik choralarini qo'llash zarurligi aniqlanadi. Razvedkaning bergan ma'lumotlari asosida radiasiyaviy holatni aniqlash va baxolash mumkin, bunday ma'lumotlarni tuman, shaxar viloyat va Respublika fuqaro muhofazasining rahbarlari, ularning shtablari qabul qiladilar. Radiasiyaviy holatni baxolash bilan bog'liq bo'lgan xisoblarni bajarishda turli formulalar, jadvallar, radiasiyaviy o'lchov lineykasi va boshqa xisoblash jixozlaridan foydalaniladi.

Joylarning radioaktiv zararlanish o'lchovi va darajasi ma'lum xududdagi yadro portlashlarining soniga, quvvatiga, turlariga xamda portlash vaqtidagi shamolning tezligiga bog'liqdir.

"Radiasiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunning 12 moddasida radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ✓ Radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ✓ Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanishda fuqarolar olgan nurlanishning shaxsiy dozalarini nazorat qilish va xisobga olishda yagona davlat tizimiga amal qilish;
- ✓ Radiasiyaviy ta'sir tufayli fuqarolar sog'lig'iga zarar yetkazilish xavfi yuqori bo'lganligi uchun to'lanadigan tovon turlari va miqdori belgilab qo'yish;

- ✓ Radiasiyaviy avariya natijasida fuqarolar sog'lig'iga xamda ular mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash;
- ✓ Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyat turlarini belgilash;
- ✓ Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining eksport va import qilinishini davlat tomonidan tartibga solish;
- ✓ Tibbiy-profilaktik tadbirlar o'tkazish;
- ✓ Radiasiyaviy vaziyat xamda radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida fuqarolarni xabardor qilish;
- ✓ Fuqarolarga radiasiyaviy xavfsizlik chora-tadbirlarini o'rgatish;
- ✓ Radiasiyaviy avariya natijasida nurlanishga duchor bo'lgan fuqarolarga yordam ko'rsatish;
- ✓ Radioaktiv ifloslanish zonalarida fuqarolarning yashashiga doir alohida tartiblarni joriy etish;
- ✓ Tegishli xududda radiasiyaviy avariya oqibatlarini bartaraf etish;
- ✓ Radiasiyaviy avariya yuzaga kelish xavfi bo'lgan taqdirda tezkor chora-tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish.

Yadroviy portlashning zararlovchi omillari quyidagilardan iborat:

- Portlash to'liqini yoki zarbli to'liq;
- Yorug'likning tarqalishi;
- Singuvchi radiasiya;
- Joylarni radioaktiv zararlanishi;
- Elektromagnit impuls maydonini

Zarbli to'liq portlash markazidan xamma tomonga tovush tezligidan ham katta tezlikda tarqaladigan, juda katta bosimda siqilgan havo zapasidan iborat.

Zarbli to'liq oldingi 1000 metrni 2 sekundda, 2000 metrni 5 sekundda, 3000 metrni 8 sekundda bosib o'tadi, shu vaqt orasida kishi osmonda yoruq shu'lani ko'rish bilan yashirinlashga ulgursa, zarbli to'liqdan shikastlanishdan saqlanib qoladi. To'liq zarbasining shikastlantiruvchi ta'sirining asosiy ko'rsatkichi uning ta'sir yo'lida ortiqcha bosimni hosil bo'lishidir. Ortiqcha bosim R-to'liq zarbasining ta'sir etish yo'lidagi maksimal bosimi bilan meyoriy atmosfera bosimi ayirmasiga teng bo'lgan ko'rsatkichi bo'lib, u Paskal (Pa)da o'lchanadi.

100 Pa=1 kgs/sm² (1 sm yuzaga 1 kg kuch bilan ta'sir tushuniladi).

Zarbli to'liq yadro portlashi vaqtidagi asosiy shikastlovchi omil bo'lib xisoblanadi va jami portlash energiyasining taxminan 50% i shu omilga to'g'ri keladi.

Zarbli to'liq odamlarni, xarbiy texnika vositalari, qurollarni, mol-mulklarni shikastlaydi va ko'p vayronagarchiliklarni keltirib chiqaradi. Shikastlanishning asosiy sababi zarbli to'liq ta'sirida atmosfera bosimini keskin oshib ketishidir. Buni odamlar *zarba* deb tasavvur qiladilar. Bundan tashqari odam tezlanish bosimini sezadi va shu tufayli yiqilishi yoki oqib ketishi mumkin. Zarbli to'liq ta'sirida odamning turlicha mexanik jaroxatlanishi: tomir va to'qimalari uzilishi, suyaklar sinishi, quloq nog'ora pardasini yirtilishi va boshqalar kuzatiladi.

Zarbli to'liqdan shikastlanish 4 darajali bo'ladi:

1 Birinchi daraja - yengil shikastlanish ($R_f = 0,2 - 0,4$ kgs/sm²).

Bunday shikastlanishlarda asosiy funksional o'zgarishlar: garang bo'lib qolish, eshitish qobiliyatini pasayishi, bosh aylanishi, nutq buzilishi, ayrim xollarda miyani yopiq shikastlanishi kuzatiladi.

Ikkinchi daraja – o'rta darajadagi shikastlanish. Bunday shikastlanganlarda asosan ichki a'zolarining (o'pkaning) zararlanishi kuzatiladi. Og'iz, burun, quloqdan o'rtacha qon oqishi paydo bo'ladi. Tayanch-suyak sistemasida mushak paylarining, paylarning va suyaklarning uzilishi va sinishi kuzatiladi.

Uchinchi daraja – og'ir shikastlanishi. Bunday shikastlanganlarda shikastlanish simptomlari yaqqol ko'rinadi, bundan tashqari ularda bir soatdan bir necha sutkagacha xushdan ketish xollari kuzatiladi. Shikastlanish oqibatida 30% xolda o'lim sodir bo'ladi.

To'rtinchi daraja – o'ta og'ir shikastlanish. Bunday shikastlanganlarda xayotiy muxim a'zolar funksiyasining buzilishi - xushdan ketish, qon aylanishi va nafas olishdagi buzilishlar bilan namoyon bo'ladi. Bunday shikastlanganlar birinchi sutkadayoq hayot bilan vidolashadilar.

Yorug'lik nurlanishi - yadro portlagandan xosil bo'lgan olovli shardan chiqadigan va nixoyat darajada ko'p kuydiruvchi issiqlik energiyasi tarqatadigan yorug'lik nuri oqimidan iborat. Yadro portlashi jami energiyaning taxminan 35% i yorug'lik nurlanishiga to'g'ri keladi. Yorug'lik nuri tarqalishi 8-15 sekund davom etadi, bu nur faqat to'g'ri yo'nalishda tarqaladi. Shaffof bo'lmagan xar qanday to'siq yorug'lik nurlanishi ta'siridan saqlanib qoladi.

Yorug'lik nurlanishi katta masofalarga bir laxzada tarqalib, turli materiallarni eritishi. Yondirishi, himoyalangan odamlar va xayvonlarni kuydirishi yoki ularni ximoyalangan terisini turli darajada kuydirishi, ko'zni zararlash, o'rmonlarda va aholi yashaydigan punktlarda yong'in chiqarish xususiyatiga ega.

Shikastlovchi ta'sir darajasi nur impulsi, ya'ni 1 m² yuzaga tushadigan energiya miqdori bilan belgilanadi va 1 m² yuzaga nisbatan kilojoullarda o'lchanadi. 100-200 kilojoul/m² ga teng yorug'lik impulsi

1-darajali kuyish, 200-400 kilojoul/m² - P-darajali, 400 kilojoul/m² dan ortiq kuyish Sh-darajali kuyish deyiladi.

Moddalarning yorug'lik nurlanishdan zararlanishi ularning qay darajada qizdirilganiga bog'liq bo'ladi. Moddalarning qizishi esa o'z navbatida quyidagi omillarga yorug'lik impulsining kuchiga, moddalarning xususiyatiga moddalarning issiqlikning yutish koeffisientiga, namligiga, yonuvchanligiga bog'liq. Qora rang mato oq rangdagiga qaraganda yorug'lik nurini yutadi. Masalan: qora rangli mato 99% yorug'lik energiyasini yutadi, mosh rang (xaki) mato 60%, oq rang mato esa 25% yorug'lik energiyasini yutadi.

Yorug'lik nurlanishi ko'zga tushganda (ayniqsa, tunda, chunki ko'z qorachig'i kengaygan bo'ladi) ko'z qamashishi kuzatiladi. Ko'z qamashishi vaqtincha davom etadi. Bunga sabab ko'zdagi radopsin pigmentining (to'q qizil rang) kamayishidir. Agar nur yaqin masofadan ko'zga ta'sir qilsa, ko'zning to'r pardasi kuyadi va turg'un ko'rlik holati vujudga keladi. Shuning uchun osmonda birdan chaqnash yuz berganda unga qarash mumkin emas. O'tuvchi (singuvchi) radiasiya - yadro portlashida chiqadigan ko'rinmas va sezilmas gamma nurlar hamda neytronlar oqimidan iborat. Bunga yadro portlash energiyasining taxminan 5% i sarflanadi. Yadro portlash sodir bo'lgandan 15-20 sekund o'tgach yadro va termoyadro reaksiyasi natijasida gamma nurlar, neytronlar oqimi, alfa va beta - zarrachalarining juda kuchli oqimi tarqaladi. Lekin o'tuvchi radiasiyaga faqat gamma-nurlar va neytron oqimi kiradi, alfa va beta zarrachalarning havoda bosib o'tgan yo'li kalta bo'lganligi, ularda o'tuvchanlik xossasi kam. O'tuvchi (singuvchi) radiasiyadan saqlanish uchun pana joylar va inshootlardan foydalaniladi. Himoya qiluvchi vositalarning zichligi qancha yuqori bo'lsa, u gamma nurlarni o'zida shuncha ko'p tutib qoladi. O'tuvchi (singuvchi) radiasiya tirik to'qimalar molekulalarini ionlashtirib, organizmning xayotiy faoliyatini buzadi va kishimni turli darajadagi nur kasalligiga yo'liqtiradi, ba'zan esa xalok qiladi. Odamga 50 rentgen radiasiya qisqa vaqt davomida ta'sir etganda organizmda sezilarli o'zgarishlar yuz bermaydi. Xozirgi vaqtda nur kasalligi kechishiga ko'ra yengil, og'ir va o'tal og'ir turlarga bo'linadi. Nur kasalligi yengil, og'ir va o'tal og'ir turlarga bo'linadi. Nur kasalligi og'irligi va kechishiga ko'ra o'tkir va surunkali bo'ladi.

Joylarni radioaktiv moddalardan zararlanishi - yadro portlash natijasida xosil bo'ladi, bunga yadro portlashi energiyasining taxminan 10% i sarflanadi.

Yadro portlash natijasida xosil bo'lgan ko'p miqdordagi radioaktiv moddalar havo oqimiga ergashib portlash markazidan o'nlab, yuzlab kilometr masofaga tarqaladi. Havo turar joylar, suv manbalari, qishloq xo'jaligi maxsulotlari va boshqa narsalarni zararlaydi. Zararlangan joylardagi radioaktiv moddalar odamlarga va xayvonlarga sirdan ta'sir ko'rsatadi. Mazkur moddalar ovqat, suv

orqali organizmga tushib, ichdan ta'sir ko'rsatadi. Oqibat natijada odam va xayvonlarda turli darajadagi nur kasalligi paydo bo'ladi.

Elektromagnit impuls va ikkilamchi zararlovchi omillar. Yadro zaryadlarining portlashi natijasida havoning ionlanishi kuzatiladi, xosil bo'lgan elektronlarning yuqori tezlikda xarakati tufayli elektromagnit maydon xosil bo'ladi. Buning natijasida elektromagnit razryad va tok xosil bo'ladi. Atmosferada paydo bo'lgan elektromagnit impuls chaqmoq singari tarqalgan holda antennalarda, kabellarda, elektr uzatish tarmoqlarida va simlarda kuchli kuchlanishga ega bo'lgan tok xosil qiladi.

Er yuzida va havoning past qismlarida yadro zaryadi portlaganda elektroimpulsning shikastlovchi ta'siri portlash markazidan bir necha kilometr uzoqlikda kuzatiladi. Yer yuzidan ancha balandlikda va havoda portlatilgan yadro zaryadi natijasida elektromagnit impuls maydoni portlatilgan markazda va yer yuzasidan 20-40 km balandlikda ham elektromagnit impuls maydoni xosil bo'lishi kuzatiladi. Xosil bo'lgan tok avtomat o'chirish moslamalari ishini izdan chiqaradi, radioapparatlar, elektr asboblari va boshqalar izolyasiyasini va elektrlarning buzilishini chiqaradi, buning natijasida shu asboblari bilan ishlayotgan kishilar elektr tokidan shikastlanishlari mumkin.

Yadro zaryadi portlashi natijasida xosil bo'lgan elektromagnit impulslardan ximoyalaniish uchun asboblarni ekranlash kerak bo'ladi.

Yadro zaryadi portlashi natijasida vujudga kelgan ikkilamchi shikastlovchi omillarga neftni qayta ishlash va kimyo korxonalarida paydo bo'lgan yong'inlar natijasida ajralib chiqqan is gazi va kuchli zaxarlovchi ta'siriga ega bo'lgan moddalar sabab bo'ladi. Bu ommaviy kuyish va zaxarlanishlarni keltirib chiqaradi. Zarba to'liqini natijasida gidrotexnik inshootlar, suv omborlari to'g'onlari buzilishi ro'y beradi. Natijada aholi yashaydigan joylar suv ostida qoladi. Bu esa ko'pdan-ko'p kishilarning halok bo'lishiga olib keladi.

Bunday buzilishlar va vayronagarchiliklarning oldini olish uchun korxonalarda himoya-muxandislik ishlari o'tkazilgan bo'lishi kerak.

O'tkir nur kasalligi.

O'tkir nur kasalligi bu organizmning umumiy kasalligi bo'lib xisoblanadi va nurlanish dozasining 1 gr (100 rad) va undan yuqori darajadagi nurlanish dozasi ta'sirida vujudga keladi. Ionlovchi nurlarning ta'sir darajasi ularning miqdoriga, ya'ni tanadan qancha nur o'tganligiga bog'liq bo'ladi. Tirik to'qimalarning nurlanish birligi qilib grey (Gr) olingan. 1 gr 100 radga teng.

Xozirgi vaqtda o'tkir nur kasalligining klinik ko'rinishi va o'tishini to'rt bosqichga ajratish qabul qilingan yengil, o'rta, og'ir va juda og'ir. Kasallikning yengil turida 1-2 Gr nurlanish sodir bo'ladi.

O'rta bosqichda 2-4 Gr, og'ir bosqichda 4-6 Gr, juda og'ir bosqichda 6 Gr dan yuqori miqdordagi nurlanish hollari kuzatiladi. 1-10 Gr dozadagi nurlanishda organizmda asosan ko'mik shikastlanadi, shuning uchun o'tkir nur kasalligining bu turi ko'mik tur deb ataladi. Odam 20 Gr va undan yuqori dozada nurlanish olsa, qon yaratuvchi a'zolaridan tashqari, ichak epiteliysi ham shikastlanadi. Ichak shikastlanganda qon yaratuvchi a'zolarida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermasligi mumkin, ammo shikastlanganlar tezda o'lib qoladilar.

Odam juda katta dozada nurlanish olganda o'tkir nur kasalligining toksemik va serebral turi rivojlanadi, bunda nurlangan odam bir necha soat, ba'zan bir kundan so'ng o'ladi.

Nur kasalligining 1-darajasi (engil daraja) 1-2 Gr (100-200 r) miqdordagi radiasiya doza ta'sirida rivojlanadi. Zararlangan kishilarda 3-5 soatdan so'ng ko'ngil aynishi, qusishi kuzatiladi. Kuchsizlik, bosh og'rishi, ishtaxa yo'qolishi mumkin.

Nur kasalligining II-darajasi (o'rta daraja) 2-4 Gr (200-400 r) miqdordagi radiasiya dozasidan nurlanganda kelib chiqadi. Bunda umumiy xolsizlik, bosh og'rishi, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va takrorlanib turuvchi qayt qilish simptomlari rivojlanadi. Qon tekshirilib ko'rilganda leykositez, limfopeniya aniqlanadi.

Nur kasalligining III-darajasi (og'ir daraja) 4-6 Gr (400-600 r) miqdordagi radiasiyadan nurlanganda kelib chiqadi. Nur ta'sir etgandan 30-60 daqiqa o'tgach, zararlangan kishi ketma-ket qusadi, kuchli bosh og'rishi paydo bo'ladi, kuchli xolsizlik, adinamiya holati rivojlanadi.

Nur kasalligining IV-darajasi (o'ta og'ir daraja) 6 Gr (600 r dan ortiq) dan ortiq nurlanish dozasining miqdori ta'sir etganda rivojlanadi. 15 daqiqadan so'ng zararlanganlarda kasallikning boshlang'ich davri kuchli ravishda rivojlanib boradi. Zararlangan odam beto'xtov qusadi, adinamiya holati paydo bo'ladi, psixomotor qo'zg'alishlar sodir bo'ladi, kolaps rivojlanadi. Teri va shilliq qavatlar qizarib, tana harorati ko'tariladi. Paydo bo'lgan dastlabki alomatlar 3-4 kun davom etadi. Ikkinchi haftaning oxiriga borib o'lim kuzatiladi.

Joylarda radioaktiv moddalar bilan zararlanishning radiasiya darajasi aniqlansa, tezlik bilan "Radioaktiv zararlanish" degan signal beriladi va aholini ximoyalash ishlari o'tkaziladi.

Ular pana joylarga o'tkaziladi. Bundan keyin ularni shu yerda bo'lganda oladigan taxminiy nurlanish dozasi aniqlanadi. Masalan: joylarda radiasiya darajasi 200 R/s ni tashkil qilsa va kishilar shu yerda 3 soat mobaynida qolib ketsa, ularning olgan nurlanish dozasi $D = 200 \times 3 = 600$ rentgenni tashkil qiladi.

Kishilarni zararlanganligini aniqlashda avvalo tananing ochiq qismi (qo'l, yuz) tekshirib boriladi.

Keyin tananing boshqa qismlari – ko'krak, qorin, orqa va oyoqlar tekshirib ko'riladi.

Radioaktiv ,kimyoviy va bakterialogik vositalar falokatlar natijasida aholi yashaydigan punktning territoriyasi (kuchalar, xovlilar) binolar, qurilishlar, transport va xar xil mol-mulklar zaxarlanib qoladi. Zaxarlangan joydagi kishilar og'ir shikastlanishi mumkin.

Shuning uchun radiaktiv moddalar, zaxarlovchi moddalar va kasalliklar tug'diruvchi mikroblar bilan zaxarlangan xamma narsalar albatta zararsizlantirilishi (dezaktivasiya, degazasiya va dezinfeksiya qilinishi) lozim.

Radioaktiv moddalar bilan zaxarlangan yuzalarni bu moddalardan tozalash **dezaktivasiya** deyiladi.

Dezaktivasiya turli usullar bilan bajarilishi mumkin.

Zaxarlangan yuzalardagi radioaktiv moddalarni supurib tashlash yoki yuvib yuborish mumkin. Metall, tosh, asfalt yoqoch va shunga o'xshash boshqa yuzalarni, shuningdek, poyafzalni va rezinalangan to'qimadan yasalgan buyumlarni xam ana shu usulda tozalash mumkin.

Zaxarlangan yuzalarni eritmalar bilan yuvish suv bilan yuvishga nisbatan yaxshiroq natijalar beradi. Toza suv bilan yuvilganda radioaktiv moddalar asosan,yuzalarning o'zidagina yuvilib ketadi. Eritmalar bilan yuvilganda esa fizik-kimyoviy prosesslar sodir bo'lib, bu prosesslar radioaktiv moddalarning g'ovaklar, tirqishlar, ariqchalar, shuningdek, zaxarlangan yuzalardan chiqib ketishiga yordam beradi.

Dezaktivasiya sifatli bo'lganligiga to'la ishonch xosil qilish uchun kiyim-bosh, mol-mulk, texnika vositalarining radioaktiv moddalarning tozalanish darajasi tekshirib ko'riladi, buning uchun maxsus dozimetrik asboblari- radiometrlardan foydalaniladi. Bu tekshirish **dozimetrik nazorat** deb ataladi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun tayanch iboralar va so'zlar:

- | | |
|------------------------------------|--------------------------|
| 1.Radiasiyaviy xavfsizlik | 7.Radiasiyaviy avariya |
| 2.Radiasiyaviy holat | 8.Radioaktivlik |
| 3.Ionlashtiruvchi nurlanish | 9.O'tkir nur kasalligi |
| 4.Ionlashtiruvchi nurlanish manbai | 10.Yadroviy portlashning |
| 5.Yadroviy xavfsizlik | zararlovchi omillari |
| 6.Kuzatuv zonasi | 11.Dezaktivasiya |

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

- 1.Radiasiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun nechinchi yil qabul qilingan?

2. Radiatsiyaviy holat deganda nimani tushunasiz?
3. Ionlashtiruvchi nurlanish deb nimaga aytiladi?
4. Yadroviy portlashning zararllovchi omillarini aytib bering?
5. O'tkir nur kasalligi kelib chiqish sabablari va uning darajalarini keltirib bering?
6. Dezaktivatsiya nima, qanday xollarda amalga oshiriladi?

Mavzu: Kimyoviy zararlanish va ularni bartaraf etish

Reja:

- 1. O'zbekiston respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan kimyoviy sanoat korxonalari.**
- 2. Kimyoviy sanoat korxonalarida sodir bo'lishi mumkin xalokatlarda ko'rildigan chora - tadbirlar.**
- 3. Kimyoviy qurol. Zaxarli moddalar tasnifi va xususiyatlari.**
- 4. Kimyoviy holatni aniqlash va baholash.**

XX asr poyonida xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qolgandi, chunki XIX asrning ikkinchi yarmida sanoatning rivojlanishi va ishlab chiqarishda kimyoviy birikmalarning keng ishlatilishi tufayli ushbu moddalar ishchilar organizmiga ta'sir kuchayishi, ishlab chiqarish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muqit tozaligi va iqtisodning barqaror rivojlanishiga taxdid solib turibdi.

Inson uchun xavfli bo'lgan zaxarli moddalar bilan ishlaydigan korxonalarining soni O'zbekistonda yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bu korxonalar asosan Toshkent, Samarqand, Farqona, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy, Angren va boshqa shaxarlarda (SO_2 , NH_3 , Cl_2 , HNO_3 , H_2SO_4 , CH_3COOH va boshqa zaxarli moddalar) joylashgan. hozirgi kunda Respublikada 300 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalarida zaxarli moddalar ishlatiladi (jadval N 1). Shuning uchun respublikamiz aholisi, ishlab chiqarish korxonalarining ishchi-xizmatchilari favqulodda yuz beradigan vaziyatlarda to'g'ri ish tutishlari, fuqarolar muqofazasi tomonidan beriladigan xar bir yo'riqnoma, vazifalarni to'g'ri bajarishlari va saqlanish qoidalariga rioya etishlari lozim. Buning uchun xar bir korxonada, ayniqsa ishlab chiqarish korxonalaridagi fuqarolar muhofazasi xodimlari avariya

va xalokatlarni, uning oqibatlarini yo'qotish chora-tadbirlarini, xamda ofat ro'y bergan joyda jabrlanganlarga yordam ko'rsatish qoidalarini tushuntirishi zarur.

▣ **OzR 2006 yil 28 sentyabrdagi “Havfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni** havfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosibatlarni tartibga soladi. Sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarning havfli ishlab chiqarish ob'ektlardagi avariya va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir.

Kimyo zavodlari joylashgan shaqarlardagi ba'zi KTZM (kuchli ta'sir etuvchi zaxarli modda)larning fuqarolarga bo'lgan havfi

Jadval N1

Sh A X A R	OBÚEKT	KTZM	Mintaqadagi zaqarlanishi mumkin bo'lgan odamlar soni
Navoiy azot I.Ch.B.		Ammiak, xlor	9250
Samarqand Mineral o'g'it I.Ch. zavodi		Ammiak, xlor	55130
Olmalik	Kimyo zavodi	Ammiak, xlor	1710
Angren	Tilla koni	Ammiak, xlor	450
Chirchiq	Elektrokimyosanoat I.Ch.B.		
		Ammiak, xlor	39400
Farqona	Farqona azot	Ammiak, xlor	607300

Kuchli ta'sir etuvchi zaqarli moddalar bilan ishlaydigan sanoat tarmoqlarida nafaqat avariya oqibatidan fuqarolarga qavf-xatar keltirishi mumkin, balki shu tarmoqlardan chiqindi maqsulotlar xam (atmosfera yoki suv qavzalariga chiqarib yuborilishi) atrof muqitni va tabiatni ifloslantirishi oqibatida insonlar qayotiga jiddiy xavf soladi. Bu borada ayniqsa, metallurgiya, kimyo, biotexnologiya, rezina-texnika, neftni qayta ishlovchi va boshqa sanoat tarmoqlarining salbiy ta'siri juda kattadir. Respublikamizdagi ayrim sanoati rivojlangan ayrim shaqarlarda, jumladan, Samarqand, Farqona, Andijon, Qo'qon, Angren, Olmalik, Chirchiq,

Navoiy va boshqa shaxarlarda havoning ifloslanish darajasi me'yoridan 1,5-2 marta xatto ayrim joylarda 3-6 marta ortiq.

Markaziy Osiyoda havoni eng ko'p iflostantiruvchi Tojikistonning Tursunzoda shaxridagi alyuminiy zavodi havoga belgilangan miqdordan 2 barobar ortiq zaxarli modda chiqarib kelmoqda. Shamolning yo'nalishiga ko'ra ftor birikmasining 80% Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Oltinsoy tumanlariga tushadi. Yana u yerdagi havoning ifloslanishiga Sharundagi briket fabrikasi va g'isht zavodining ta'siri xam kattadir. Bulardan chiqadigan zaxarli moddalar insonlarning salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Kimyo sanoati korxonalari ko'p joylashgan Chirchiqdagi "Elektrokimyo" Farg'onadagi "Azot", "Farg'ona neftsintez", Navoiydagi "Elektrokimyo", "Azot" va boshqa sanoat birlashmalaridan juda xam xavfli zaxarli KTZM tashqariga (atrof-muqitga) chiqarilib yuborilmoqda.

Dunyo miqyosida yiliga havoga uglerod (II) oksidi -250 mln.t., yoqilg'i kukuni -100 mln.t., uglevodorod -88 mln.t., azot (II) oksidi -53 mln.t., ammiak 4 mln.t., oltingugurt vodorodi -3 mln.t., qo'rg'oshin birikmalari -1 mln.t., ftor -0,4 mln. t. chiqariladi.

Bunday sanoat korxonalarining chiqindi maxsulotlari insonlar hayotiga katta xavf solib, turli xil kasalliklarni keltirib chiqarmoqda, umrni qisqartirmoqda xamda atrof muqitni, yerlarni qavoni va suv qavzalarini jiddiy zararlantirmoqda.

Yuqorida aytilganidek, respublikamiz xalq xo'jaligi tarmoqlarining ko'p qismida (KTZM) zaharli moddalar ishlatiladi, saqlanadi va tashiladi. Shunday korxonalarda birorta ta'sir ko'rsatilsa, masalan dushman tomonidan bo'ladigan ta'sirlarda, tabiiy ofat zilzila oqibatida, ishlab chiqarish tarmoqlarida bo'ladigan avariya, temir yo'l transportlaridagi avariya tufayli KTZM to'kilishi yoki tashqariga chiqib ketishi atrof-muqitni, havoni zaxarlaydi. Kimyoviy zaxarlanish o'chog'i deganda kimyoviy zaxarli modda (kimyoviy qurol) ta'siriga uchragan barcha odamlar, xayvonlar, obektlar, inshootlar, texnikalar, atmosfera, o'simliklar bo'lgan xududni tushuniladi. Kimyoviy zaxarlangan o'choqni o'ziga xos xususiyati qaysi zaxarli modda bilan zararlanganligi, shuningdek uni qanday sodir bo'ligani, yil fasliga, ob-havo sharoitiga va ba'zi bir boshqa omillarga bog'liq. Albatta, bunday favqulodda vaziyatlarda avariya o'chog'idagi va unga yaqin bo'lgan atrofdagi fuqarolar jabrlanadi va KTZM xususiyatlariga qarab kimyoviy zaqarlanish xar xil darajada bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi zaxarli moddalar bo'lgan 89 ta obekt bor bo'lib, 6ta kimyoviy xavfli shaxarlar Samarqand, Chirchiq, Farg'ona, Navoiy, Angren, Olmaliq mavjud. Bu shaxarlarda quyidagicha miqdorda zaxarli moddalar saqlanadi:

Chirchiqda-1050 tonna ammiak.

Olmaliqda-2500 tonna ammiak va yana shuncha tonna sulfat kislota.

Angren-14 tonna xlor.

Farg'ona -700 tonna amiak.

Samarqand-1000 tonna amiak.

Navoiy-137 tonna xlor, 2000 tonna nitril akril kislotasi, 96 tonna fosgen va bulardan tashqari amiak va sinil kislotalar bor. Bu kuchli ta'sir qiluvchi zaxarli moddalarning saqlanishi ularni saqlashda ko'zda tutilgan xavfsizlik chora-tadbirlarini ko'rib qo'yilganligi uchun ancha katta xavf manbasi bo'lmasada, lekin biron bir avariya sodir bo'lsa yoki tabiiy ofatlar: masalan, yer qimirlashi yoki toshqinlar bo'lishi natijasida bu zaxarli moddalar saqlanayotgan idishlar va boshqa saqlash anjomlariga zarar etkazilishi natijasida bu idishlar o'z zich yopilganligini yoqotib qo'ysa, unda zaxarli moddalar oqib ketishi ro'y beradi va bu zaxarli moddalar suv havzalariga borib quyiladi va ularning xududimizdagi daryolar suvigi qo'shilib ketishi juda katta maydonlarni zaxarli moddalar bilan zaxarlashda sababchi bo'ladi.

Shuni eslatib o'tish joizki, bu zaharli moddalar saqlanayotgan shaharlarning aksariyati daryolarning boshlanish qismida joylashgan va bunda Chirchiq daryosining uzunligi 174km ni va Sirdaryo uzunligi 2790km ni tashkil qilishi qisobga olinsa, bu moddalarning ta'sir doirasini tasavvur qilish mumkin. KTZM qaynash xarorati 200S gacha bo'lsa, u tezda buglanib, zaxarlanish vaqti qisqa, lekin ta'sir darajasi katta bo'ladi. Agar KTZM ning qaynash xarorati 200°C dan yuqori bo'lsa, buglanish sekinroq ketib, uning zaxarlash vaqti uzoqroq davom etadi, ammo tarqalish xududi kichik bo'ladi.

KTZM lar nafas organlari va teri orqali ta'sir etadi. Shu nuqtai nazardan KTZM lar umumiy zaqarlovchi va qolsizlantiruvchi xillarga bo'linadi. KTZM bilan zaxarlanganda bosh ogrigi, bosh aylanishi, ko'z tinishi, xolsizlanish, ko'ngil aynishi, qusish, o'qiy olmaslik kabi alomatlar kuzatiladi, kuchli zaxarlanishda esa o'lim bilan yakunlanadi. Shuning uchun KTZM bilan zaxarlangan xududlarda xalqning xatti-qarakatlari xuddi kimyoviy qurollar bilan zaxarlangan joylarda ko'riladigan chora-tadbirlarni o'zginasidir, ya'ni himoya inshootlarida saqlanish, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va boshqa omillar qo'llaniladi. Lekin bitta asosiy farqi borki, u xam bo'lsa, ba'zi bir KTZMlar (masalan NH_3 , SO) ni yutiluvchanlik xususiyati past bo'lganligidan ular saqlanishda maxsus sanoat va izolyasiyalovchi gazniqoblardan foydalanish kerak bo'ladi. Agar avariya holatida bir qancha gazlar aralashmasi bo'lsa, faqat izolyasiyalovchi gazniqoblardan foydalanib, avariya joyini tiklash, zararlangan o'choqdan odamlarni evakuasiya qilish tadbirlari ko'riladi. KTZM chiqib ketgan joylarda avariylarni tiklash ancha mushkul jarayonlardan xisoblanadi. Bunda asosiy ishlardan:

- ✓ birlamchi tiklash ishlarini tashkil etish;
- ✓ KTZM tarqalgan xududni o'rash (lokalizasiya qilish) xisoblanadi.

Avariyaning tiklash ishlarini o'sha korxonaning shtatli qismlaridagi zaxarli gazlardan saqlovchi xodimlar olib boradilar. Kerak bo'lsa fuqaro muxofazasining qutqaruv, medisina, yong'inga qarshi, jamoat tartibini saqlash tizimlari xam

yordamga chaqiriladi. Bundan tashqari, avariyanı tiklash ishlariga korxona ishchi xizmatchilarini va o'sha atrofdagi fuqarolarni xam jalb qilish mumkin.

Avariya tiklash ishlarida qatnashadigan fuqarolar o'zini va boshqalarni saqlash qoidalarini bilishlari zarur. Ulardan xar doim zaxarlangan fuqarolarni shikastlangan xududdan olib chiqish, gazniqoblarni kiydira bilish, sun'iy nafas berish, yurakni tashqi massaj qilish, zaxarlangan ko'z, terilarni neytrallash ishlarini bilishlari talab etiladi.

Kimyoviy qurollar - zaxarli kimyoviy birikmalar bo'lib, ular asosan dushman tarafidan ishlatiladigan zaxarli moddalar xisoblanadi. Kimyoviy qurollarning kuchi ularning zaxarli xususiyatiga qarab belgilanadi. Kimyoviy qurollar himoyalannagan odamlar, xayvonlar, o'simlik, yer, suv, havo, inshoot, texnika va jamiki ko'rinadigan narsalarni zaxarlaydi. Bunday qurollar asosan nafas yo'li, teri, oshqozon-ichak va yaralangan joylarda qon bilan ta'sir qilishi mumkin. Zaxarlovchi moddalarning kuchi uning zaxarliligi, tez ta'sir etuvchanligi va chidamliligi bilan o'lchanadi. Dastlabki kimyoviy qurollar unitar tarzda ishlatilgan, ya'ni bitta zaxarli modda kimyoviy qurol sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik binar kimyoviy qurol yaratildiki, buning oldini olish va qurol asoratidan qutilish juda xam muammo xisoblanadi. Binar- ikki va undan ortiq zaxarli moddasi bo'lgan qurol demakdirqaltiratuvchi zaxarli moddalar (xlorasetofe. Kimyoviy qurollar ishlatilganda bug', aerozol yoki tomchi xolatida o'tkaziladi. xamma zaxarlovchi moddalar o'zining ta'sir qilishiga, qanday ishlatilishiga xamda boshqa xususiyatlariga ko'ra:

- asabni falajlovchi (zarin, zomon, Vi-iks);
 - Terida yara paydo qiluvchi (iprit, azotli iprit, lyuizit);
 - umumiy zaxarlovchi (sianid kislota, xlorsian, sinil kislota);
 - bo'g'uvchi xususiyatli zaxarli moddalar (fosgen, difosgen);
- non, adamsit);
- psixokimyoviy zaxarli moddalar (LSD, Bi-Zet).

Zaxarli moddalar zaxarlash xususiyatiga xamda taktik qo'llanishga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- O'ldiruvchi - Vi-iks, zarin, zomon, iprit, sinil kislota, xlorsian, fosgen.
- Vaqtinchalik faoliyatni yo'qotuvchi - Bi-Zet.
- qaltiratuvchi - xlorasetofenon, adamsit, Si-Es, Si-Er.

Kimyoviy qurol qo'llanilgan xududda kimyoviy moddalardan zaxarlanish o'chog'I xosil bo'ladi. Uning kattaligi ishlatilgan zaxarlovchi modda miqdoriga, uning turiga, ishlatish usuliga xamda ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Kimyoviy qurollar organizmga ta'sir etish vaqtiga qarab tez xamda sust ta'sir etuvchi xillarga bo'linadi. Tez ta'sir etuvchi zaxarli moddalarga - zarin, zomon, sinil kislota, xlorsian, Si-Er kirib ularning ta'siri bir necha daqiqada kuzatiladi.

Sekin ta'sir etuvchi zaxarli moddalarga Vi-iks, iprit, fosgen, Bi-Zet kirib, ularning ta'siri bir necha vaqtdan keyin kuzatiladi. Kimyoviy xolat deb, dushman tomonidan kimyoviy qurollar ishlatilganda yoki kimyoviy ob'ektlarda xolokat yuz berganda atrof-muqitga kuchli ta'sir etuvchi zaxarli moddalar(KTZM) tarqalganligi natijasida xosil bo'lgan sharoitga aytiladi.

orqali amalga oshiriladi.Xalq xo'jaligi ishlab chiqarish ob'ektlarida kimyoviy **Kimyoviy holatni baholash deganda**-kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni odamlarga ,xayvonlarga , suv va boshqa ob'ektlarga ta'sir etish darajasini aniqlash xamda kimyoviy xujum yoki ishlab chiqarish tarmoqlaridagi falokat oqibatlarini tugatish uchun eng maqbul uslubni tanlash tushuniladi.

Kimyoviy xolatni baholashda quyidagi ma'lumotlarga tayaniladi:

- zaharli moddalarning turi va uning ishlatilgan vaqti;
- zaxarli moddaning ishlatilish vositasi;
- zaxarli moddaning ishlatilgan joyi;
- shamolning tezligi va yo'nalishi;
- havo va yerning harorati;
- kimyoviy shikastlanishning miqyosi va tavsifini aniqlash;
- havoning turg'unlik darajasi (inversiya,izotermiya va konveksiya)
- fuqarolarning himoyalaniish darajasi.

Kimyoviy holatni baxolash bashorat usuli xamda tekshiruv natijalari holat kimyoviy tekshirish guruqlari , postlari orqali aniqlanadi.

Kimyoviy holatni boholashda havoning turg'unlik darajasini bilish muhim ahamiyatga ega, chunki aynan havoning holatiga ko'ra kimyoviy shikastlanish zonasining miqyosi xamda talofatlanish xajmi sarxisob qilinadi.qavoning vertikal turg'unligi uchta darajaga bo'linadi: **inversiya, izotermiya va konveksiya.**

Inversiya odatda, kechqurungi vaqtlarda quyosh botishiga taxminan , bir soatlar qolganda vujudga keladi va quyosh botgandan bir soatlardan keyin u parchalanib ketadi. Inversiyada havoning pastki qatlami yuqori qatlamidan sovuqroq bo'ladi xamda bu holat zaxarlangan havoning balandlikka tarqalishiga qarshilik ko'rsatadi va zaxarlangan havoning uzoq vaqt saqlanishiga qulay sharoit yaratib beradi.

Izotermiya - havo muvozanatining barqarorligi bilan tavsiflanadi.U ko'proq bulutli havoga xos, lekin inversiyadan konveksiyaga (ertalabki vaqtlarda) va aksincha (kechqurungi vaqtlarda) o'tish soatlarida xam vujudga kelishi mumkin.

Konveksiya odatda, quyosh chiqishidan 2 soat keyin xosil bo'ladi va quyosh botishidan 2-2,5soat oldin buziladi.Bu ko'proq, yozgi ochiq kunlarda kuzatiladi.

Konveksiyada havoning pastki qatlamlari yuqoridagilaridan ko'ra ancha issiq bo'ladi va bunday holat zaxarlangan havoning tez tarqalishiga , oqibatda zaxarlanish ta'sirining kamayishiga olib keladi. KTZM ishlatiladigan ob'ektlardagi avariya kimyoviy holatni baxolash, fuqarolarning zaxarlanish

o'choqlarida bo'lishlari mumkin bo'lgan holda , ularning himoyalaniishini tashkil etish maqsadida o'tkaziladi.

Kimyoviy holatni baholashda bashorat usuli bo'yicha zaxarlangan havoning tarqalishi uchun qulay bo'lgan sharoitda (inversiya, shamol tezligi 1m/sek.da) ob'ektdagi barcha KTZM zaxiralarining tashqariga chiqib ketishi (to'kilish) oqibatlarini o'rganish orqali aniqlanadi. ng falokatini baholash, xaqiqatda sodir bo'lgan vaziyatda o'tkaziladi.Bunda zaxarli moddalarning aniq miqdori va ob-havo sharoitlari xisobga olinadi.Shunga xam axamiyat berish lozimki, qaynash xarorati 20⁰C dan past bo'lgan zaxarli moddalarni (masalan ,fosgen,vodorod florid va shunga o'xshashlar) to'kilishi bilan juda oz vaqt maboyinida bug'lanib ketadi va bug'langan zaxarli modda miqdori, uning to'kilgan suyuq miqdoriga teng bo'ladi.Agar qaynash xarorati 20⁰Cdan yuqori bo'lgan (uglerod IY culfid, sinil kislotasi va boshqalar) va qaynamaydigan zaqarli suyuqliklar (ammiak,xlor,oleum va qokazolar)o'sha ob'ekt xududi bo'ylab tarqaladi va havoning yer ustki qatlamini zaxarlaydi.

KTZM bo'lgan joylardagi kimyoviy xolatni boholaahda , kimyoviy zaxarlangan xudud o'lchamini, kimyoviy shikastlanish o'chog'ini, zaxarli havoning xududga yetib kelish va shikastlash vaqtini xamda kimyoviy shikastlanish o'choqlarida fuqarolarni talofatlanish ehtimollari ko'zda tutiladi.

Degazasiya – zaxarlangan obektlardagi zaxarlovchi moddalarni zararsizlantirish demakdir.Joylarda zaxarlovchi moddalar kimyoviy, fizik va mexanik usullar yordamida zararsizlantiriladi.

Kimyoviy degazasiya qilish degazasiyalovchi eritmalar va ularni resepturalarini zaxarlovchi zaxarlovchi modda bilan reaksiyaga kirishishi tufayli zaxarsiz birikmalar xosil qilishiga bog'liq. Zararlangan joylarga, yo'llarga, inshootlarga va boshqalarga degazasiyalovchi eritmalar sepiladi, quruq moddalardan tayyorlangan suyuq bo'tqa (suspenziya , kashisa) surkab chiqiladi.

Fizik usulda degazasiya qilishda yuqori xaroratdagi gaz oqimlar ta'sirida zaxarlovchi moddalar joylarda qisman parchalanib ketadi va tezda bug'lanadi.Bu usul bilan yo'lging asfalt qoplamasi va qattiq joylar zararsizlantiriladi.

Mexanik usul bilan degazasiya qilishda zararlangan joylarni yuqori qavati kesib olinadi yoki shu joylar sirtiga zaxarsiz tuproq tashlab tekislanadi.Odatda zaxarlangan joylar yuzasi 3-4 sm qalinlikda, qorni 20 sm qalinligi olinadi yoki shu joylarga 8-10 sm qalinlikda tuproq sepiladi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun tayanch iboralar:

1.KTZM ;

7.Inversiya;

- | | |
|----------------------------------|-------------------------------|
| 2.Sanoati rivojlangan shaxarlar; | 8.Izotermiya; |
| 3.Kimyoviy zaxarlanish o'chogi; | 9.Konveksiya; |
| 4.Kimyoviy zaxarlanish; | 10.Kimyoviy xolatni baxolash; |
| 5.Kimyoviy qurol; | 11.Degazasiya; |
| 6.Kimyoviy xolat; | |

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

- 1.Kimyo sanoati rivojlangan shaxarlar va ularda ishlatiladigan zaxarli moddalar?
- 2.KTZM ta'siridagi avariyalarda fuqarolarni xatti -xarakatlarni tushuntiring?
- 3.Kimyoviy qurol nima?
- 4.Kimyoviy qurol ta'sir xususiyatiga ko'ra tasniflanishi?
- 5.Kimyoviy holat qanday aniqlanadi va boholanadi?
- 6.Inversiya,izotermiya va konveksiya qanday holatlar?
- 7.Degazasiya nima ?
- 8.Degazasiya qanday usullarda bajariladi?

Mavzu:*O'ta xavfli kasalliklar, mikroblar va toksinlar bilan zararlanish*

Reja:

1. O'ta xavfli va yuqumli kasalliklar.
2. O'ta xavfli kasalliklarni tarqalish yollari.
3. O'ta xavfli kasalliklar va mikrob toksinlari tarqalganda ko'riladigan chora-tadbirlar.
4. Karantin, Dezinfeksiya, Dezinseksiya, Deratizasiya.

Tashqi muhitning zararli biologik omillariga kasallik tug'diruvchi (patogen) jonzotlar, mikroblar, zambrug'lar, parazitlar kiradi.

Mikroorganizmlarning patogen xususiyatlari mikro (mikro-mayda) tanachalari hayot jarayonida paydo bo'ladigan moddalardir.

Ko'pchilik patogen mikroblar hayot jarayonida zaharli modda (toksin) ishlab chiqaradi, bular hayot faoliyatida tashqi muhitga chiqariladi (ekzotoksinlar) yoki mikroblar tanachasi o'lgandan so'ng (endotoksinlar) tashqi muhitga chiqadi.

Yuqumli kasallik qo'zqatuvchilarni bir necha guruhga ajratishimiz mumkin; bakteriyalar - ko'pchilik yuqumli kasallik qo'zqatuvchilari, viruslar-faqat elektron mikroskop ostida ko'rinadi va juda mayda bo'ladi; riketsiyalar-bakteriyalar va viruslar orasidagi oraliq shakl; bir qancha sodda xujayrali organizmlar.

Infeksiyalar - bu patogen mikroblarni organizmga kirishi ularni ko'payib kasal qilishi yoki qo'zqatuvchilarni tashib yurishidir. Ko'pchilik yuqumli kasalliklarni o'ziga xos xususiyatlaridan biri odamlar orasida tezlikda tarqalishidir.

Yuqumli kasalliklarini odamlar orasida tarqalish kengligiga qarab epidemiya, pandemiya, endemiya, sporadik kasalliklarga farqlanadi.

Epidemiya - aholi orasida kasallikni keng tarqalishi bo'lib, u odamlarni katta guruhlarini qamrab oladi, ular o'zaro yuqish zanjiri orqali boglangan bo'ladilar.

Epidemiya - aholi orasida kasallikni keng tarqalishi bo'lib, u odamlarni katta guruhlarini qamrab oladi, ular o'zaro yuqish zanjiri orqali boglangan bo'ladilar.

Endemiya- aholi orasida yuqumli kasalliklarni sistematik bo'lishi, bunda asosan maqalliy sharoit bilan boqliq bo'ladi.

Sporadik kasallik- aqyon-aqyonda, bir-bir kasallikni paydo bo'lishidir.

Yuqumli kasalliklarni yuqishi quyidagicha : kontak, qavo-tomchi, oqiz-ichak-nafas, transmissiv.

Kontakt usulida yuqumli kasalliklarni yuqishida kasal chaqiruvchi mikroblar terida bo'ladi, oqiz bo'shliqida, jinsiy a'zolarida, ko'zni shilliq qavatida, yara-chaqalarda, yuqqan odamdan qabul qiluvchi odamga o'tishi mumkin. Bundan to'qridan-to'qri kontak va uy-ro'zqor kontakti usullari bo'lishi mumkin.

Havo-tomchi bilan yuqadigan kasalliklar tezlikda tarqalib ketadi, chunki kasal odam kun davomida juda ko'pchilik bilan muomalada bo'ladi. Kasallik qamma joyga tarqalib ketishi mumkin. Bunga misol qilib gripp kasalligini olishimiz mumkin. Agar gripp kasalligini ma'lum bir turi Janubiy Amerikada paydo bo'ladi deb eshitsak, oradan bir qayta o'tar-o'tmas Toshkent shahriga etib kelganini avvalgi yillardan pandemiyalarni guvoqi bo'lganmiz.

Havo-tomchi bilan yuqadigan kasalliklar tezlikda tarqalib ketadi, chunki kasal odam kun davomida juda ko'pchilik bilan muomalada bo'ladi. Kasallik qamma joyga tarqalib ketishi mumkin. Bunga misol qilib gripp kasalligini olishimiz mumkin. Agar gripp kasalligini ma'lum bir turi Janubiy Amerikada paydo bo'ladi deb eshitsak, oradan bir qafta o'tar-o'tmas Toshkent shaqriga etib kelganini avvalgi yillardan pandemiyalarni guvoqi bo'lganmiz.

Biologik ko'chirib yuruvchilarda bu jarayon boshqacha kechadi. Kasallik tarqatuvchi mikro-biologik ko'chiruvchi tanasiga tushgandan so'ng u joyda ma'lum taraqqiyot bosqichini kechiradi, so'ngra qo'zqatuvchi mikroorganizm qa'bul qiluvchi odam organizmiga tushadi. Shu usulda burgalar (toun, chuma, kemiruvchi tifi, anofeles chivini-bezgak. Kiyim-kechak, bosh biti -toshmali terlama, kuleks chivinlari-yapon ensefaliti) keltirib chiqaradilar.

Havo-tomchi orqali yuqumli kasalliklardan yuqishi, bunday usulda ko'pchilik yuqumli kasalliklar (gripp, qizamiq, chin chechak, ko'k yo'tal, sil kasalligi) yuqadi.

Biologik vositalar qo'llanishi oqibatida favqulodda epidimiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar yuzaga keladi. Bular quyidagi ko'rinishlarda yuzaga keladi:

- Aloqida xavfli yuqumli kasalliklar tarqalganda;
- Epidemiya;
- Guruq kasallanishi oqibatida;
- Kasallanishning va o'limning o'sishi natijasida;
- Odamlarning zaqarlanishida;
- Epizootik vaziyat, ya'ni hayvonot dunyosida o'tkir kasalliklarning tarqalishi ;
- Epifitotik vaziyat, ya'ni o'simliklarning kasallanishi

O'ta xavfli kasalliklar mikroba toksinlari odamlarga va xayvonlarga ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega. Ya'ni ular tirik organizmga juda kichik dozada tushsa qam yuqumli kasalliklar epidemiyasini boshlaydi. Ularning tarqalish tezligi juda yuqori, ta'sir vaqti qam uzoq, ular germetik bo'lmagan saqlagichlarga oson kiradi, ularning mikrobinini, toksinini aniqlash juda qiyin.

O'ta xavfli kasalliklar mikroba toksinlari odamlarga va xayvonlarga ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega. Ya'ni ular tirik organizmga juda kichik dozada tushsa qam yuqumli kasalliklar epidemiyasini boshlaydi. Ularning tarqalish tezligi juda yuqori, ta'sir vaqti qam uzoq, ular germetik bo'lmagan saqlagichlarga oson kiradi, ularning mikrobinini, toksinini aniqlash juda qiyin.

Yuqumli kasalliklarning asosiy tasniflari:

O'lat kasalligi bilan kasallangan bemorlardan havo orqali va qurt-qumursqalardan yuqishi mumkin.

Kasallikning yashirin davri 2 - 3 kun. Kasallangan bemor 7-14 kunda ish faoliyatini yo'qotadi. Xastalik to'satdan, shiddat bilan boshlanadi. qaltirash bilan isitma ko'tarilib, qisqa soatlarda tana qarorati 40-41oS gacha yetadi. Kuchli intoksikasiya alomatlari bo'ladi. Bemor jonsarak, xalovati yo'qoladi, betinch bo'ladi, vaqima bosadi.

Sichqon, kalamush, yumronqoziqlar orasida vaqti-vaqti bilan o'lat epizootiyasi uchrab turadi. Bu vaqtda juda ko'plab kemiruvchilar qirilib ketadi.

O'zbekiston sharoitida Buxoro, Navoiy viloyatlari va qoraqalpaqistonning katta qismini egallagan qizilqum cho'llari o'latning o'choqi qisoblanadi.

Kasallikning bir xayvondan boshqasiga o'tishida va hayvonlardan odamga yuqishida burgalar katta rol o'ynaydi.

Uy xayvonlaridan tuya o'lat bilan kasallanishi mumkin.

Odamga kasallik turli yullar bilan yukadi. Kasal xayvonni parvarish kilganda teri orkali yukadi. o'lat mikrobi tutgan burga chaqqanda xam kasallik teri orqali yuqadi. o'latning o'pka turi bilan oqrigan bemor atrofdagilar uchun qoyat qavfli qisoblanadi. Uning balqami bilan millionlab o'lat mikroblari ajralib, atrofga tarqaladi. Bunda mikrob soqlom odam tanasiga nafas yo'llari orqali yuqadi.

O'latning profilaktikasi mamlakatimizda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Toshkent, Buxoro, Uchquduq, Nukus shaqarlarida maxsus o'latga (toun) qarshi kurashish stansiyalari va ularning bo'limlari mavjud. Ular kemiruvchilar orasida o'latning tarqalish darajasini muttasil o'rganib boradilar.

Kuzatuv natijalari qaqida soqliqni saqlash organlari xabardor qilib turiladi. Ushbu tadbirlar samarasi tufayli, o'latning qayvonlardan odamga yuqishining oldi olinadi.

Maxsus profilaktika maqsadida o'latning tibbiy o'choqi va uning atrofida yashaydiganlar o'latga qarshi vaksina (zardob) bilan emlanadi.

Sibir yarasi- kasalligi asosan yirik va mayda shoqli qayvonlar, shuningdek otlar, eshaklar, buqular va cho'chkalar qisoblanadi. o'lgan qayvonning qoni, terisi, yungi va ichki a'zolari xam ancha vaktgacha xavfli bo'lib, shular orqali yuqishi mumkin. Ko'ydirgi kasal qayvon so'yilganda, nimtalanganda, go'shti iste'mol qilinganda, shuningdek infeksiyali chang qavodan nafas olganda xam yuqishi mumkin. Ayrim qollarda kuydirgini qon so'ruvchi pashshalar (so'na, jigalka) qam yuqtirishi mumkin.

Kasallikning yashirin davri 2-3 kun. Kasallangan bemor 7-14 kunda ish faoliyatini yo'qotadi.

Kuydirgi qadim zamonlardan qishloq qo'jaligi qayvonlari va insoniyatga katta talofat yetkazib kelgan. 1780-1789 yllarda Sibirda bo'lib o'tgan epizootiya

davrida rus olimi S.S. Andreevskiy kasallikni qayvonlardan o'ziga qitirib, uning odamlarga qayvonlardan yuqishini isbotlab berdi, o'rgandi va uni "Sibir yarasi" deb atashni tavsiya etdi.

Kuydirgini qo'zgatuvchi mikrobn 1855 yilda Boaueler aniqlagan. U yirik xarakatsiz, aerob bakteriyadir. Tashqi muxitda sporalar qosil qilib, sporalari bir necha yillargacha saqlanib qolishi mumkin. Kuydirgi sporalari ezinfeksiyalovchi moddalar ta'siriga chidamli, 70° S darajada 50 daqiqa qizdirilganda, bir-necha soatdan so'ng nobud bo'ladi.

So'nggi yillarda, keng olib borilayotgan sanitariya-gigienik va veterinariya tadbirlari, qayvonlar go'shti, terisi. Juni ustidan doimiy sanitariya nazorati olib borilayotgani tufayli yurtimizda kuydirgi kasalligi juda kam kuzatilmokda.

Bemor albatta kasalxonaga yotkazilib, aloqidalanishi kerak. Uning parvarish buyumlari aloqida bo'lishi va ular dezinfeksiya qilinishi lozim. Yaraga ishlatilgan boqlov materiallari yoqib tashlanadi.

Kuydirgiga qarshi chora-tadbirlarni veterinariya va tabobat xodimlari birgalikda olib boradilar. Kasallik manbalarini yo'kotish veterinariya xodimlari o'tkazadigan tadbirlarning asosi xisoblanadi.

Uy xayvonlari va ularning maqsulotlari bilan ishlovchi shaxslar (zootexnik va veterinariya xodimlari, ferma, kushxona, teri, jun zavodlari, muyna fabrikalari ishchilari) maxsus kuydirgiga qarshi vaksina bilan emlanadi.

Bemor kasalxonaga yotkazilgandan keyin, uning uyida dezinfeksiya kilinadi. Bemor bilan mulokatda bulgan kishilar 8 kun davomida nazorat ostida buladilar va ularga shoshilinch profilaktika choralari utkaziladi.

Keng omma, ayniqsa qishloq aqolisi va tegishli korxonalarning ishchilari orasida sanitariya maorifi ishlarini keng yulga qo'yish, kuydirgi kasalligi tarkalishini oldini olishda katta axamiyatga ega.

Tulyaremiya -zoonoz kasalliklar guruqiga kiruvchi yuqumli kasallik bo'lib, umumiy zaqarlanish belgilari, isitma va o'ziga xos limfadenitlar paydo bo'lishi bilan kechadi. Asosiy manba zararlangan suvdan foydalanganda, kasallangan kemiruvchilardan ba'zida quyonlardan yuqadi. Odamga muloqat yo'li bilan, qon so'ruvchi qashorotlar orqali (chivin, kana) yoki oziq-ovqat maqsulotlari orqali yuqadi.

Kasallikning yashirin davri 3-6 kun. Kasallangan bemor 40-60 kunda ish faoliyatini yo'qotadi.

Kasallikdan keyin turgun immunitet koladi.

Vabo- bu o'ta qavfli yuqumli kasallik bo'lib, ingichkia ichak bo'shligida vabo vibrionini tezlik bilan ko'payishi natijasida kelib chiqadi.va keng tarkalishga moil xastalik qisoblanadi.

Vabo odamzodga qadim zamonlardan ma'lum qindiston va Bangladesh vaboning endemik o'choqi qisoblanadi.Vaqti-vaqti bilan kasallik qo'shni davlatlarga ,qatto turli qit'alarga tarqalib, katta epidemiya va pandemiyalar beradi. 1817 yildan 1925 yilgacha bo'lgan davrda Yer yuzida vaboning 6 ta pandemiyasi qayd etilgan.

1961 yildan boshlab vaboning yangi -VII pandemiyasi boshlandi. xozirgi tezyurar transport vositalari orqali vabo qisqa muddatda juda uzoq mamlakatlarga tarqalishi mumkin. Jumladan, 1965 yilda qoraqalpaqiston va Xorazmda ham vabo epidemiyasi kuzatilgan.

90-yillardan buyon vabo Amerika , Yevropa, Osiyo, Afrika qit'asidagi 100 dan ortiq mamlakatlarga kirib borgani qayd etilgan. o'zbekistonga xam sayyox-tijoratchilar vositasida vaboning qindiston va Pokistondan kirib kelish qollari uchrab turadi.Zararlangan suv va ovqatdan yuqadi. Kasallikning yashirin davri 3 kun. Kasallangan bemor 5-30 kunda ish faoliyatini yo'qotadi.

Sariq bezgagi- chivin chaqqanda kasallangan odam va qayvonlardan yuqadi. Kasallikning yashirin davri 4-6 kun. Kasallangan bemor 10-14 kunda ish faoliyatini yo'qotadi.

Bobir o'zining "Boburnoma" asarida, o'sha vaqtlarda insoniyatga qiron keltirgan bezgak kasalligi va uning yuzaga kelish sabablari qaqida ma'lumotlar keltiradi. Muallifning fikricha, bezgak kasalini yuzaga keltiruvchi vositalar ob-qavo, bezgak chivinlarining ko'pligi va ularning keng tarqalganligidir.

Suvchechak- badanda o'ziga xos toshmalar bilan kechadigan o'tkir yukumli kasallik bo'lib, uni filtrlanuvchi viruslar ko'zqatadi.Suvchechak keng tarqalgan , oson yuqadigan kasallik xisoblanadi.Kasallik asosan kichik yoshdagi bolalarda uchraydi. Infeksiya manbai - bemor odam.Bu kasal yil davomida uchrab tursa xam, qish oylarida ko'proq qayd etiladi. Virus xavo-tomchi yoli bilan tarqaladi va atrofdagilarga tez yukadi. Soqlom kishi organizmiga virus nafas yo'llari orqali tushadi.Bolalar boqchasi , yaslilarda kasallik qayd etilgan qollarda u tezda shu jamoadagi ilgari kasallanmagan bolalar orasida keng tarqaladi. Ushbu jamoada 21 kun karantin e'lon qilinadi. Kasallikning yashirin davri 14-17 kun. Kasallangan bemor 12-24 kunda ish faoliyatini yo'qotadi.

Botulizm - ovkat toksikoinfeksiyalari ichida oqir kechadigan kasallik qisobdanib, botulizm tayoqchasi va uning zaqari tushib qolgan ovqat maqsulotlari iste'mol qilish natijasida kelib chikadi.Votulus- lotincha so'z bo'lib, kolbasa deganidir.Kasallik asosan zararlanib qolgan konserva maqsulotlarini iste'mol qilganda ro'y beradi.

Kasallikning yashirin davri 0,5-1,5 kun. Kasallangan bemor 40-60 kunda ish faoliyatini yo'qotadi.

Botulizm bu kasallikni botulizm toksini tarqatadi. Bu toksin juda zaqarli qisoblanadi. Masalan, uning 0,00000012 g kristall qoldagi toksini odamni zaqarlashi mumkin. Botulizm kasalligi asosan oshqozon-ichak yo'li bilan tarqalib, asosan markaziy asab tizimining, yurak, asablarini ishdan chiqaradi. Botulizm bilan kasallangan bemor qolsizlanadi, boshi oqrib, ko'rish qobiliyati pasayadi. Til muskullari falajlanadi. Kasalning qarorati soqlom odam qaroratidan ancha past bo'ladi va bu bemor o'z vaqtida davolanmasa o'lim bilan tugaydi. Botulizm sporolari tuproqda doimo mavjud. Sporalar tuproqdan suv, o'simlik, sabzovotga tushadi tarqaladi.

Go'sht va sabzovot konservalari tayyorlashda sanitariya talablariga qat'iy rioya qilish lozim. Uy sharoitida qishda iste'mol qilish uchun tayyorlanadigan maqsulotlar yaxshilab yuvilishi shart. Bankalar yopilganida qavo qolmasligi kerak. Sterilizasiya puxta o'tkazilishi zarur. Tayyor maqsulotlarini salqin joyda saqlash lozim. Suyuklik tiniq bo'lmagan maqsulotni to'kib yuborish kerak. Konservalar qopqoqi qavarib chiqishi uning buzilganligidan darak beradi. Bunday konserva yo'q qilinadi.

Respublikamizning ba'zi xududlarida ba'zi bir kasalliklarning tarqalish ehtimolligi yuqoridir. Buxoro viloyatida Qrim gemmoragik bezgagi kaslligi; Qashqadaryo viloyatida kuydirgi, Qrim gemmoragik bezgagi kaslligi; Andijon, Namangan, Sirdaryo, Surxandaryo, Toshkent Farg'ona va Xorazm viloyatlarida kuydirgi kaksalligi; Qoraqalpog'iston Respublikasida kuydirgi va kana entsafaliti kasalligi tarqalishi ehtimolligi yuqoridir. Qishloq xo'jaligi qayvonlarining zararlanishi nafaqat hayvonot dunyosiga, balki insoniyat hayotiga ham katta xavf soladi. Masalan, 2001 yilning dastlabki oylarida Buyuk Britaniyada Qoramollarning oqsil kasalligi bilan kasallanishi keng miqyosda tarqalib, bu xavf boshqa Yevropa davlatlariga (Belgiya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Rossiya, va boshqa davlatlarga), xatto Markaziy Osiyo davlatlariga (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Xitoy, Suriya davlatlariga) va Avstraliya qitasigacha tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Bu kasallikning tarqatuvchisi filtrlanuvchi virus xisoblanadi va ular kasallangan mollar so'lagi, peshobi, ahlati bilan tashqi muqitga chiqarilib, atrofdagi barcha narsalarni, hayvonlarni, buyumlarni, joylarni fuqarolarni va ularning kiyim-kechaklarini bu kasallik viruslari bilan zararlaydi. Tashqariga chiqarilgan viruslar darhol nobud bo'lmay, balki uzoq vaqt tirik qoladi, uzoq masofalarga tarqaladi va o'sha yerlardagi xayvonlarning kasallanishiga olib keladi.

Kasallik tarqalishining asosiy manbai oqsil bilan kasallangan qayvonlar, qamda zararlangan joydan o'tgan qayvonlar va transtport vositalari qisoblanadi.

Oqsil kasalligining boshlanish davrida qayvonlarning ishtaqasi yo'qola boshlaydi, uning qarorati ko'tarilib 40-42°C gacha chiqib ketadi, sigirlar beradigan suti keskin kamayib ketadi, mollarning og'zidan ipsimon so'lak oqadi, so'ngra ularning

oqzida, tilida va lablarida shishlar paydo bo'ladi. Ular bir-ikki kundan keyin yorila boshlaydi va yarachalarga aylanadi. Shu vaqtda qayvonlar og'zidan juda ko'p ko'piksimon so'lak oqa boshlaydi. Oqsil kasalligiga qarshi uvoffaqiyatli kurashish uchun bu kasallik bo'yicha karantinga rioya qilish, qamda kasallikka qarshi kurashish bo'yicha vetenariya-sanitariya qoidalarini bajarish kerak. Kasallangan mollarning go'shti, suti, terisini, yungini va boshqa xom-ashyolardan foydalanish man etiladi. Shuning uchun kasallangan mollarni yoqish yoki ko'mish orqali yo'q qilib yuboriladi. Zararlangan yem-xashaklar, atrof muqit va joylarni dezinfeksiyalash orqali epizootik vaziyatni tugatish imkoniyati yaratiladi. Qishloq xo'jaligi o'simliklarini zararlashda esa kartoshka chirishi, zambruqli kasallik tarq atuvchilari qamda qurt qumursqalar (Kolorado qo'nqizi, chigirtka va boshqalar) va boshqa vositalar orqali amalga oshirilib, epifitotik vaziyat vujudga keladi. Agar bu vaziyat tezda tugallanmasa, katta iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

OzRning 1999yil 19 avgustdagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida"gi Qonuni qabul etilgan.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash chora-tadbirlarini uchga bo'lish mumkin:

1. Davlat tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar.

2. Tibbiyot chora-tadbirlari.

3. Aholini sanitariya madaniyatini oshirish chora-tadbirlari.

Davlat tomonidan ko'riladigan chora va tadbirlar. Aholini mehnat sharoitini yaxshilashga, xar xil inshootlar qurishda sanitariya meyorlariga amal qilish, vodoprovod va kanalizasiyalar kurishdan iborat

Tibbiy chora va tadbirlar bir maqsadga yo'naltirilgan qolda olib boriladi. Infeksiya manbai topib aniqlanadi va zararsizlantiriladi. Kasal odam - infeksiya manbai sifatida kasalxonaga yotqiziladi va davolanadi. Kasal qayvon yo'q qilinadi yoki davolanadi.

Yuqumli kasalni ko'paymasligi uchun qamma transport vositalarida chora - tadbirlar qo'llaniladi. Karantin e'lon qilinadi. Suv ta'minotlariga aloqida e'tibor , ovqatlarga e'tibor beriladi. o'tish yo'llariga qarshi dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizasiya qo'llaniladi. Aholi emlanadi.

Karantin- yuqumli kasallik tarqalishi extimoli bo'lgan xududga kirib chiqish man etiladigan xudud.

Dezinfeksiya - yuqumli kasalliklar yuqishi oldini olish maqsadida bajariladigan sanitariya tozalash tadbirlari.

Deratizasiya - yuqumli kasalliklarni tarqatishi mumkin bo'lgan kemiruvchilarni yo'qotish tadbirlari.

Dezinseksiya - yuqumli kasalliklarni tarqatadigan hashorotlarni yo'qotish tadbiri.

Mavzuni o'zlashtirish uchun tayanch iboralar :

1. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar.
2. Epidemiya.
3. Pandemiya.
4. Endemiya.
5. Karantin.
6. Dezinfeksiya.
7. Deratizasiya.
8. Dezinseksiya.
9. Epizootik vaziyat.
10. Epifitotik vaziyat.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

1. O'ta qavfli kasalliklar tasnifi ?
2. O'ta qavfli kasalliklarni yuqish yo'llari ?
3. Yuqumli kasalliklar tarqalganda ko'riladigan chora-tadbirlar?
4. Karantin - nima ?
5. Dezinfeksiya nima va qanday maqsadlarda bajariladi ?
6. Deratizasiya nima ?
7. Dezinseksiya qanday qolatlarda bajariladi ?
8. Epizootik vaziyat qanday qolat ?

9. Epifitotik vaziyat nima ?

AXOLI VA XUDUDLARNI TERRORCHILIK XARAKATLARIDAN MUXOFAZA QILISHNI TASHKIL ETISH

Reja:

1. Terrorizm va uning mohiyati, maqsadi.
2. Terrorchilik xarakatlarini amalga oshirish usullari va vositalari.
3. Terrorizmga qarshi kurash.
4. Terrorizm bilan bog'liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari .

Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta qavf turqdirishini odamlar ongiga chukur singdirib borish kerak. Xalqimiz tafakkurida yuksak aqloqiy, ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustaxkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur.

Islom Karimov

O'zRning 2000 yil 15 dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul ilingan.

Terrorizm — jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, axolining keng qatlamlarida vaqima va qo'rquv uyqotishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usulidir. U yashirin (konspirativ) ruqdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali qo'llaniladi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagan uchun xam ko'p qollarda aqolining keng qatlamlari nomidan xarakat qilish taassurotini uyqotish maqsadida diniy shiorlardan nikob sifatida foydalanadilar. Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri bunday xarakat tarafdorlarining «zo'rlik davlatni qulatuvchi va xokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi», degan qoyaga asoslanib xarakat qilishlarida yaqqol kurinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati xech qanday urush bulmayotgan, tinchlik xukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan xolda, siyosiy masalalarni zo'rlik ishlatish bilan qal qilishga intilishda ko'rinadi. Bunday siyosiy masalalar o'z navbatida xududiy, etnik, diniy yoki boshqa shaklu shamoyil kasb etishi mumkin.

Amerikalik mutaxassis B.Jenkins terrorizمنى eng avvalo, qurbonlardan ko`ra guvoxlariga qaratilgan va vaqima uyqotishga yo`naltirilgan zo`rlik, deb baqolaydi. Boshqa bir amerikalik siyosatshunos J.Lojning ta'rifiga ko`ra, terrorizm bevosita qurbonlardan ko`ra ko`proq odamlar fikriga ta'sir o`tkazish uchun qilinadigan taxdid yoki kuch ishlatishdir.

Bu ta'rif va baqolarda terrorizمنى nixoyatda muxim bir xususiyati — uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. Xuddi shu ma'noda, aloxida olingan qar bir terrorchilik xurujining maqsadi terrorchilarning davlat to`ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishdek siyosiy vazifalar bilan bir-biriga mos kelavermasligi oldindan ma'lum. Keyinchalik, amalda, bu nomuvofiqlik terrorchilar jar solayotgan maqsadlar bilan ular erishaetgan natijalar o`rtasidagi ziddiyatga aylanadi.

Terrorizمنى maqsadi:

Kishilarni garovga olish

Ta'magirlik

Insonlarning soqliqiga zarar etkazmoq

Aqolini qo`rqitish, vaqima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish

Tashkilotlarni, guruqlarni, jismoniy yoki yuridik shaxslarni yo`q qilish
qukumat organlari qarakatlariga javoban “qasos olish qarakati”

Davlat qokimiyati faoliyatining barqarorligiga raqna solish

Iqtisodiy zarar etkazish

Millatlararo, dinlararo, xalqaro munosabatlarni chigallashtirish

Davlatning qududiy yaxlitligi va suverenitetini izdan chiqarish

Davlat xavfsizligiga putur etkazish

qarbiy (qurolli to`qnashuv) nizolarni yuzaga keltirish

Siyosiy, iqtisodiy, diniy va b. maqsadlarga erishish

Siyosiy va davlat tuzumini o`zgartirish

Bugungi kunda terorizm turlari juda xam ko`payib ketdi, bulardan **millatchilikga oid, diniy, siyosiy, ana'naviy, yadroviy, kimyoviy, biologik va kiberterrorizmlar.**

Biz shunday davrda yashamoqdamizki, uni qech bir mubolaqasiz, insoniyat taqdirini belgilab beradigan jang sodir bo`layotgan davr deb atash mumkin. Ushbu jangda foydalanilayotgan vosita tom ma'nodagi qurol emas, balki qoyalardir. Yaxshi ma'lumki, qoyalar xar xil bo`ladi: azal-azaldan dunyoda bunyodkor qoyalar bilan bir qatorda, buzqunchilik mafkurasi xam yashab keladi. Aslida, bashariyat tarixi, muayyan ma'noda, bunyodkorlik va buzqunchilik o`rtasidagi kurash tarixidir. Ushbu kurashda bunyodkorlik qolib bo`lgan paytlardagina insoniyat olqa bosgan, buzqunchilik, yovuzlikning quli baland kelgan vaqtlarda esa, tanazzulga yuz tutgan. Axborot almashish va etkazish imkoniyati bugun shunday darajaga etdiki, ular inson xayotini yaxshilashga xizmat qilish bilan bir katorda, uning tinchini buzishga xam sabab bo`lmoqda. Internet kabi ma'lumotlar uzatish vositalari tom ma'nodagi ijobiy jixatini namoyon qilish bilan birga, xalqaro terrorchilar, jumladan, diniy-siyosiy jangarilikning o`z qapaz maqsadlari yo`lida faol foydalanayotgan quroliga qam aylanib kolmoqda.

Bugun muayyan kuchlar o`zlarining qarazli maqsadlariga erishishda kiber bo`shliqdan foydalanishini ifodalovchi "kiberterrorizm" degan tushuncha qam paydo bo`ldi. U mutaxassislar tomonidan terorizmning boshqa qar qanday ko`rinishidan xam ko`ra xavfliroq qodisa sifatida qayd etilmoqda. Xalqaro terorizmning rivojlanishidagi navbatdagi yangi bosqich kiber urushlar shaklida bo`lishi shubqasiz ekani ta'qidlanmoqda. Xalqaro ko`lamdagi, chegara bilmas bunday salbiy xodisaga qarshi kurashning xalqaro tizimini shakllantirish xayotiy zaruratga aylanmoqda. Darqaqiqat, internet qo`poruvchilikni amalga oshirish uchun mo`ljallangan nishonlar qaqida ma'lumotlar manbai, ularni sodir etish uchun lozim mablaqni to`plash va terrorchi tashkilotlar orasidagi ishonchli tezkor aloqa vositasi, ma'lum belgilar bo`yicha turli-tuman odamlarni birlashtirish yo`li, qarazli maqsadlarni tashviqot qilish va buzqunchi qoyalarni tarqib qilish quroli, psixologik terorizmning tashabbuskori vazifasini o`tashi mumkin va afsuski, shunday bo`lmoqda qam. Internet masofadan, ya'ni muayyan mamlakat xududlaridan turib boshqa o`lkada qo`poruvchilikni amalga oshirish imkonini bermoqda.

Terrorchi – terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs.

Terrorchilik guruhi – oldindan til biriktirib terrorchilik qarakatini sodir etgan, bunday qarakatga tayyorgarlik ko`rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruqi.

Terrorchilik tashkiloti – ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruqlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi .

Keyingi paytlarda turli terrorchilik xarakatlarini sodir etish ishlariga ayollar xam aralashib qolmoqda. Bellariga portlovchi moddalar boqlab, o`zini nobud qilayotgan ayollar soni ortib bormoqda. Bu kabi ishlarga qo`l urishlari, o`z

jonlariga qasd qilishlari, umuman, terrorizm yo`liga kirib qolishlarining asosiy sababi, ularning na diniy, na dunyoviy bilimga ega emasliklari, turli oqimlarga nisbatan sof islom dinining munosabatini bilmasliklaridir.

Ba'zi kishilar ayollarning terror yo`liga kirib qolishlarini moddiy qiyinchilik, oiladagi etishmovchilik, ishsizlik, kam ta'minlanganlik, alamzadalik, siyosatdan norozilik kabi qator ijtimoiy qo`latlar bilan boqlashga intiladilar. Aslida esa, teroristlar ayollarning turli oqimlarga kirib, o`zlarini o`ldirish darajasigacha borishlarida ularning ma'naviy-ruxiy olamiga xos xususiyatlardan ustalik bilan foydalanayotganliklarini ko`rish mumkin. Xususan, ma'lumotlarga kura Falastin, AKSh va Kavkazda aldab yoki zo`rlab nomusiga tegish orqali ularni ma'naviy-ruxiy jixatdan boshi berk ko`chaga kiritib qo`yish, so`ng esa bu gunoxni yuvish yuli sifatida "shaxidlik"ni taklif etish va asta-sekin o`z-o`zini portlatishga tayyorlash usulidan keng foydalanilayotganini ko`rsatadi. Amalda esa xotin-qizlar o`z aka-ukalarining ta'sirida xam bunday xarakatlarni sodir etish darajasiga kelganliklarini ko`rsatadi. Jumladan, erkaklar o`zining diniy ilmlardan bexabar, qar ishda itoatkor ayoliga turli oyat-xadislarni noto`qri talqinda tushuntirishi, qo`poruvchilik xarakati uchun jannat bilan mukofotlanishini va'da qilishi, ayolning jannatga kirishi erning roziligiga boqliqligini doimiy o`qtirishi oqibatida ayol-larning o`zini va begunox kishilarni o`ldirib, jinoyatga qo`l urishlari aniqlangan.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo`lgan qiziqish va intilishi xamda ishonuvchanligi, birdaniga va xamma narsaga jumladan boylik, shon-shuxrat, martaba va q-k. ega bo`lishga xarakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruxiy omillarni aloxida ajratib ko`rsatish lozim. "Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan aloxida, Xar kimga xam nasib qilavermaydigan sharaflı ishga qo`l urgan bo`lasan, kerak bo`lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskorıga aylanasan!" — degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga aloxida e'tibor berilayotganini ko`rsatadi. Yoshlar va ayollar ularga xos bo`lgan ruxiy xususiyatlarni yaxshi biladigan va o`zlarining qarazli maqsadlari yo`lida ustalik bilan foydalanayotgan, xalifalik tuzsak barcha muammolarimiz xal bo`ladi deb yurgan terrorchilarning safsatalariga uchib, aldanib qolmokdalar, o`zlarini portlatmoqdalar.

Terrorizm amalga oshirish usullari:

Sovuq va o`q qurol ishlatish;

Portlatish va o`t qo`yishni tashkillashtirish;

Sanoat va transport avariylarini tashkillashtirish;

Transport vositalarini garovga olish, olib qochish va yo`q qilish;

Insonlar qayotiga taqdid solish, ularni garovga olish.

Kimyoviy radioaktiv va biodogik vositalarni qo`llash yoki qo`rqitish

Insonlarni qiynoqqa solish;
Elektromagnit nurlanish;
Ruqiy-infarmatsion ta'sir;
Aloqa va kompyuter tizimlariniizdan chiqarish ;
Vaqima va tartibbuzarliklarni yuzaga keltirish;
qo`rqitish,pora berib o`z tomoniga oqdirish;

Terrorizm amalga oshirish vositalari:

Turli zamonaviy qirquin qurollari;
Portlovchi moddalar (oddiy va yadroviy)
Radioaktiv va zaxarlovchi moddalar, biologik vositalar
Tovushli impulsar va elektromagnit tarqatgichlar
Ommaviy axborot vositalari (internet, televidenie, radio, varaqalar, kitoblar, risolalar)

Bugungi kunda terrorizmga qarshi kurash jaxon xamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda xam begunoq kishilarning qoni to`kilishi, obod joylar vayron bo`lishi, aqoli o`rtasida vaqima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo`lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda. Bu kurashning moxiyati, jumladan, Prezidentimizning "Xozirgi vaqtda ko`z o`ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o`zgarishlar ro`y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, qoyaga qarshi qoya, jaxolatga qarshi ma'rifat bilan kurashish xar qachongidan ko`ra muxim axamiyat kasb etmoqda", — degan fikrlarida o`zining yorqin ifodasini topgan.

Respublikamiz terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy boqliq bo`lgan narkobiznesga qarshi kurashda xam katiy siyosat olib bormoqda. 1999 yilda «Giyoxvandlik vositalari va psixotrop moddalar to`qrisida»gi, 2000 yilda «Terrorizmga qarshi kurash to`qrisida»gi va 2004 yilda «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizumni moliyalashtirishga qarshi kurashish to`qrisida»gi qonunlarning qabul qilingani qam fikrimizni tasdiqlaydi.

Bir so`z bilan aytganda, mamlakatimiz terrorizmga qarshi tizimli va tadrijiy kurash olib bormoqda. Bu kurash davlatimiz suvereniteta, xavfsizligi, barqarorligi va

konstitutsiyaviy tuzumini saqlash, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini kurish va inson xuquqlarini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Terrorizmga qarshi kurashishda quyidagi organ , qo`mitalar va vazirliklar jalb qilingan:

Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Davlat organlari

O`zR Milliy xavfsizlik xizmati

O`zR Ichki ishlar Vazirligi

O`zR Davlat Bojxona qo`mitasi

O`zR Mudofaa Vazirligi

O`zR Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi

Diniy-siyosiy terrorizmga qarshi kurashning oxirgi yillardagi xalqaro tajribasida dinlararo baqrikenglik qoyasi tarqiboti aloxida o`rin tutmoqda. Bugun uni tarqib qilayotgan o`nlab tashkilotlar dunyo bo`ylab faoliyat yurgizmoqda. Ularning orasida YuNESKO kabi global miqyosda amal qilayotgan nufuzli xalqaro muassasalar qam bor.

Bu yunalishda olib borilayotgan ishlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-xukukiy zaminini mustaxkamlash bilan birga, uning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini kuchaytirish jaqon xamjamiyati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Shu bilan birga, terrorchilik tashkilotlarga munosabat, ular faoliyatini baxolashda ikki yoqlama standartlardan voz kechish, bunday tafakkur va yondashuv tarziga barxam berish, ayniqsa, o`sib kelayotgan avlod ongida xususiy manfaatlar va maqsadlardan qat'iy nazar, insonning ertangi kuni va jamiyat istiqboli uchun daxldorlik tuyqusini tarbiyalash va bu boradagi qoyaviy-tarbiy ishlarni tizimli tashkil etish global xayotiy-amaliy axamiyat kasb etayotganini qam ta'kidlash zarur.

Mamlakatimiz ichida o`zlarining qayriinsoniy va qayriislomiy qoyalarini tarqatishga xarakat qilayotgan diniy ekstremistlar qam ana shunday qarazli maqsadlarni, ya'ni yoshlarni chalqitish, ular yordamida mamlakatni o`z taraqqiyot yo`lidan chetlatib yuborishga intiladilar.

Yuqoridagi muloqazalardan xam kishilar ongi va qalbini egallash qoyaviy kurashning bosh maqsadiga aylanganini anglab etish mumkin. «Bugungi kunda, — deb yozadi Yurtboshimiz, — insoniyat qo`lida mavjud bo`lgan qurol-yaroqlar er kurrasini bir necha bor yakson qilishga etadi. Buni xammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin xozirgi zamondagi eng katta xavf — insonlarning ongi va qalbini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo`layotgan kurashlar ko`p narsani xal qiladi. Bu achchiq xaqiqatni xech qachon unutmaslik lozim».

Biz Terrorizmga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz zarur.

Immunitet (lot. immunitas — ozod bo'lish, qutulish) deganda tibbiyotda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli, shu jumladan, zararli ta'sirlardan ximoya qilishga qodir bo'lgan xususiyatlari majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infeksiyon kasalliklarga berilmaslik xususiyatini xam ifodalaydi.

Insonning tuqma bo'lgan ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U xar bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlashga (immunitetga ega bo'lmagan chaqaloqlarning uzoq yashay olmasligini eslaylik) xizmat qiladi.

"Bugungi kunda, — deb yozadi I.Karimov, — yoshlarimiz nafaqat o'quv dargoxlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orkali xam rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jaxon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, qech shubqasiz, zamonning talabiga qam, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga xam to'qri kelmaydi".

qayd etilgan fikrlar xozirgi davrda inson xayotida axborot va bilimlar xilma-xilligining o'rni va aqamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bilimlar mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri xisoblanishini xam qayd etish lozim. Ammo bilimlar ko'p. Terrorizm tarafdorlari xam muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga xarakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'qri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu, bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z moxiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy boqliq bo'lmoqi kerak. Fuqarolarimizning asl islom xaqida xolis va etarli bilimga ega bo'lishlari terorizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri xisoblanadi.

Bugungi kunda, Yurtboshimiz so'zlari bilan aytganda, axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm, mutaassiblik va aqidaparastlik qoyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning xisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning milliy va diniy an'ana va kadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan taxdidlar tobora xatarli tus olmoqda. Butun jaxonda bamisoli balokazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish qayotiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkuraviy immunitet tizimida uning ikkinchi asosiy unsuri — olingan bilimlar zaminida shakllanadigan baqolar, kadriyatlarining o'rni beqiyosdir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baxolar, kadriyatlar xam shunchalik mustaqkam bo'ladi. Bir so'z bilan

aytganda, kadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo`lida mustaqkam kalqon bo`lib xizmat qiladi.

Terrorizmdan muqofazalanish ququqiy, tashkiliy, axborot orqali, ijtimoiy-iqtisodiy va maxsus bo`ladi.

Terrorizmdan muhofaza qilishning usullari:

Terrorizmga qarshi kurash olib boruvchi davlat organlari va aqolining tayyorgarligi;

Axoli evakuatsiyasi ;

Terrorchilik qarakatlarida muqofaza vositalarini qo`llash;

Terrorchilik xarakati sodir bo`lganda aqolini tayyorgarligi:

Terrorizm maqsadi va moqiyatini, terrorchilik qarakatlarini amalga oshirish usullari va vositalarini bilish;

Terrorchilik qarakatlarida muqofaza shakllarini bilish;

Terrorchilik qarakatlari sodir etilganda qarakatni bilish;

Ogoqlantiruvchi-muqofaza choralari;

Portlovchi modda topilgandagi qarakatni ;

Tez qarakat qilish telefonlarini ;

Jabrlanganlarga yordam ko`rsatish qoidalarini ;

Garovdagilarni ozod etish operatsiyasida o`zini tutish qoidalarini;

ShUBHALI BUYuM TOPIB OLINGANDA

zudlik bilan tegishli xizmatlarga xabar bering;

shubqali buyumga yaqinlashmang;

xavfli zonani kamida 100 m radiusda odamlardan bo`shating;

shubqali buyum va xavfli zonani qo`riqlashni ta'minlang;

uyushgan qolda odamlarning evakuatsiyasini ta'minlang;

mutasaddi organlar ko`rsatmalariga rioya qiling;

radio aloqa vositalari, uyali telefon va radioportlatgich ishlab ketishiga olib keluvchi vositalardan foydalanmang.

TELEFON ORqALI TAqDID qILINGANDA

qar bir qo`nqiroqqa bee'tibor bo`lmang;

qo`nqiroq to`qrisida tegishli organlar (MXX, ichki ishlar bo`limi)ga xabar bering, zarur bo`lsa odamlarni evakuatsiya qilishni tashkil eting;

qo`nqiroq qiluvchi bilan uzoqroq muloqotda bo`lishga qarakat qiling (suqbatni yozib olish, boshqa telefondan mutasaddi organlarga xabar berish uchun), uning yoshi, millati, jinsini taxminan aniqlashga qarakat qiling, ovozi, gapirish oqangi, nutqiga e'tibor qarating;

suqbat boshlangan vaqt va uning davomiyligini qayd eting;

gaplashib bo`lgach telefon dastagini qo`ymay boshqa telefon orqali qo`nqiroq qiluvchining nomerini aniqlashga kirishing;

suqbat va uning mazmuni to`qrisida gap tarqatmang.

GAROVGA TUSHIB qOLDINGIZ

ortiqcha qis-qayajon, sarosima, vaqimaga tushmang;

terrorchilar bilan bo`lar-bo`lmas muloqotga kirishmang, sira janjallashmang;

ko`pchilik ichida "singib" keting, yarq etib ko`zga tashlanmang;

jinoyatchining ko`ziga tik boqmang, bu uning sizga nisbatan qaxr-qazabini oshiradi;

yon-atrofigizdagilarni tinchlantiring;

tutqinlikda bo`lgan vaqtda ko`rgan, eshitgan barcha narsalarni, terrorchilarning tashqi ko`rinishi, xatti-qarakatini eslab qolishga qarakat qiling;

qanday egulik taklif etishmasin uni rad etmang;

ruqiy barqarorlikni qo`ldan bermaslikka qarakat qiling;

ozod bo`lishingizga bo`lgan umidni yo`qotmang;

garovdan ozod etilganingizda panaroq joyga o`ting, otishmalar tugamaguncha egilgan boshingizni yuqori ko`tarmang, maxsus xizmat xodimlarining topshiriqlarini so`zsiz bajaring

Yurtboshimiz I.Karimov aytadilarki "Bu xayotni ximoyalash kerak, tinchligimizni ximoya qilishimiz kerak, kelajak avlodni ximoya qilish kerak, oilamizning tinchligini ximoya qilishimiz kerak. Ximoya degani nimaq Ximoya degani – avvalo ogox bo`lish degani".

Shunday ekan ogoxlik muqaddas burchimizdir. Ogox bo`laylik, ogoxlik davr talabi.

Mavzuni o`zlashtirisq uchun tayanch iboralar:

1. Terrorizm
2. Terrorchi
3. Terrorchilik tashkiloti
4. Terrorchilik guruhi
5. millatchilikga oid
6. diniy
7. siyosiy
8. ana'naviy
9. yadroviy
10. kimyoviy
11. biologik
12. kiberterrorizmlar

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O`zRning “Terrorizmga qarshi kurash to`g`risida ”gi Qonuni qachon qabul qilingan?.
2. Terrorizm nima?
3. Terrorizmni maqsadi nimalardan iborat?
4. Terrorchi kim?
5. Terrorchilik guruhi nima?
6. Terrorchilik tashkiloti
7. Terrorizmga qarshi kurashishda qaysi organ , qo`mitalar va vazirliklar jalb qilingan?
8. Terrorizmdan muhofaza qilishning usullari nimalardan iborat?
9. Shubhali buyum topib olinganda nima qilish lozim?
10. Telefon orqali tahdid qilinganda nima qilish lozim?

O`zbekiston xududida kutilishi mumkin favqulodda vaziyatlar

Maruza regasi

1. O`zbekiston xududida kutilishi mumkin FV.
2. Kutilishi mumkin vaziyatlarni oldini olish maqsadida qabul qilingan qonun va qarorlar

3. Xududlarda kutilishi mumkin FV larga tayyorgarlik chora-tadbirlari.

4.Aholini xarakatlari.

«Har bir mintaqada xavfsizlikni ta'minlash muammolari shunchaki mavhum xarakterda bo'lmaydi.

Har qaysi mintaqada o'z xususiyatlari, xavf soladigan o'z manbalari va xavfsizlikni saqlaydigan o'z omillari bo'ladi»

I.Karimov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra bizning mintaqada 7 xil FV turlari tasdiqlangan:

1.Zilzila,er surilishi;

2.Sel,suv toshqinlari va boshqalar;

3.Kimyoviy-xavfli ob'ektlarda avariya va falokatlar (o'tkir zaqarli moddalar ajralib chiqishi);

4.Portlash va yong'in qavfi mavjud ob'ektlardagi avariya va falokatllar;

5.Temir yo'l va boshqa transport vositalarida tashish paytidagi avariya va falokatlar;

6.Xavfli epidemiyalarni tarqalishi;

7.Radioaktiv manbalardagi avariyaalar.

1998 yil 27 oktyabrda 455-sonli O'z.Res Vazirlar Maxkamasining “Texnogen, tabiiy va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida”gi Qarori qabul qilingan.

O'z. R. 1999 yil 20 avgust “Axolini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to'g'risida” gi Qonuni

18-modda – Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda axolini favqulodda vaziyatlarda xarakat qilishga o'rgatish umumiy va majburiydir.

O'z.R Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 24 avgustdagi 242-sonli “O'z. R favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va xarakat qilish Dalat Tizimini yanada takomillashtirish tog'risida”gi Qarori

ZILZILA - bu urning ichki xarakatlari natijasida uning yuzasida paydo bo'ladigan tebranma xarakat.

Er silkinishlarining paydo bo'lgan joyi **zilzila o'choqi**, uning markazi esa **gipotsentr** deyiladi. Gipotsentrning er yuzidagi proektsiyasi **epitsentr** deyiladi.

Gipotsentr va epitsentr oraliqidagi masofa **zilzilaning chuqurligi** deyiladi.

Odatda birinchi tebranishdan so'ng qayta zarbalar bo'lishi muqarrar ular **aftershok** deb ataladi.

Tabiiy ofatlar orasida o'zini etkazgan zarari bilan keltirgan talofatlari bilan birorta favqulodda xodisa bunga teng kelolmaydi. Erni silkinishini **MShK-64** shkalasida **“ballar”**da yoki Rixter o'lchov birligida **“ magnituda”**da o'lchanadi. Er qimirlash markazini erni eng tag qismidagi sodda qilib aytganda “energiya manba'i”da energiyani chiqib ketish uchun er yuzasiga intilishi er qimirlashini yoki silkinishini hosil qiladi. Ularni shartli ravishda quyidagicha bo'lishi mumkin:

kuchsiz (1-4 ball).

kuchli (5-7 ball).

zarar keltiruvchi (8 va undan ortiq ballar).

Zilzilalar 3ga bo'linadi:

1.Vulqon

2.O'pirilish

3.Tektonik

VULQON ZILZILALARI - So'nmagan vulqonlarning xarakati

natijasida xam zilzila bo'lib turadi. Bunday zilzila faqat vulqonli o'lkalarga xos va uning kuchi 5-6 balldan oshmaydi.

Erning chuqur qismida xarorat katta bo'lishi tufayli xosil bo'lgan magmalardan ajralib chiquvchi gaz va bug'ni er ostidan daxshatli kuch bilan otilib chiqishidan kuchli zilzila ro'y beradi. Markaziy Osiyoda xarakatdagi vulqonlar yo'q bo'lganligi uchun bizning mintaqada vulqon zilzilalari bo'lmaydi.

O'pirilish zilzilasi- Ohaktosh qatlamlari er osti suvi ta'siridan erib katta-katta chuqur g'or hosil qilishi mumkin. Karst reliefi keng tarqalgan o'lkalarda yopiq karstlarning ba'zilar juda katta bo'lib, ularning tepa qismi og'irlik kuchi ta'sirida bo'shliqqa o'pirilib tushadi. O'pirilgan joylarda ba'zan ko'l yoki voronkasimon katta chuqurlik hosil bo'ladi. Bunga Pomir tog'laridagi Sarez ko'lini misol qilib keltirish mumkin. O'pirilish zarbasi natijasida er larzaga keladi.

Tektonik zilzilalar- Erning eng ustki qatlami uning qobig'I deyiladi. Er qobig'ining chuqurligi quruqliklarda asosan 30-50 km ni tashkil etib, ba'zi joylarda 70 km gacha boradi, okeanlarda esa 6-8 kmga boradi.

Keyingi qatlam mantiya bo'lib, u 2900 km gacha davom etadi. So'nggi qatlam 2900 km dan to'erning markazigacha davom etib u yadro qatlamidir.

Er qatlamlarida d oimo murakkab kimyoviy, fizikaviy jarayonlar to'xtovsiz bo'lib turadi. Bulardan birinchisi-solishtirma og'irliklari og'ir jinslarning doimo pastga, engil jinslarning yuqoriga bo'lgan xarakati. Ikkinchisi-radioaktivlik xossasi asosida bir jinslardan ikkinchisining xosil bo'lishi yoki jinslarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi natijasida energiya ajralishidir. Bunday reaksiyalar sodir bo'lishiga sabab, erning chuqur qatlamlarida juda katta bosim va issiqlik mavjuddir. Bu esa radioaktivlik xossasiga asosan bir jinslarning ikkinchisiga aylanishiga va issiqlik energiyasi ajralishiga olib keladi. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan u yo'qolib ketmaydi. hosil bo'lgan energiya erning ostida juda katta hajmdagi jinslarni xarakatga keltiradi. O'z navbatida bu kuchlar erning ustki qatlamlarini, er qobig'ini xarakatga keltiradi.

"Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tushdagi) xarakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash t'yg'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 19 iyul № 208-sonli Qarori

Er surilishi - o'z og'irlik kuchi ta'siri natijasida tuproqni va tog' jinslarini pastki qiyalar tomon ko'chishi xisoblanadi.

Odatda daryo qirg'oqlarini suv bilan yuvilishi natijasida katta er jinslarini qiya bo'ylab surilishi natijasida sodir bo'ladi. Shu sababli ko'p davom etadigan yog'ingarchilikdan so'ng erni surilishi faollashadi .

Er surilishi va o'pirilishi xosil bo'lishini asosiy sabablari:

Tog' jinslarini og'irlik kuchi.

Tuproq erroziyasi va er o'pirilishi natijasida qiyalikni ortishi.

Er silkinishi:

Qoyani og'irligini o'zgarishi.

Suvni bug'lanish bosimini ortishi.

Tog' jinslarini yopishqoqlik (qovushqoqlik)darajasini pasayishi.

Sel so'zi arabcha "sayl" so'zidan olingan bo'lib, katta suv oqimi ma'nosini beradi.

Sel - bu to'satdan hosil bo'ladigan katta oqimdagi suvni qum, loy, kichik toshlar bilan birga tezlikda oqishiga aytiladi. Tezligi nihoyatda kuchli, massasi katta bo'lganligi sababli yo'lidagi imoratlarni, gidrotexnik inshootlarni, elektr uzatishi tarmoqlarini, bog'larni, chopiladigan erlarni bosib ketadi. Bu bilan odamlar va xayvonlarni zararlanishi va o'limiga sabab bo'ladi.

Sel 2-10 m/soniya va undan katta tezlikda xarakat qiladi. 1 kub metr sel oqimining og'irligi 2 tonnagacha etadi. Bitta joyning o'zida kuchli sel oqimlarining paydo bo'lish ehtimoli katta emas. Chunki sel hosil bo'lishi uchun faqatgina yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi etarli emas. Buning uchun suv oqimi olib ketishi mumkin bo'lgan tog' massasi xam mavjud bo'lishi zarur. Tog' massasi esa o'z navbatida tog' jinslarining emirilishidan hosil bo'ladi. Uning paydo bo'lishi uchun 5-6 yildan 20-25 yilgacha vaqt ketadi.

Sel suv-toshli, loyli va loy-toshli oqim tarzida bo'lishi mumkin. Oqim tarkibidagi tosh bo'laklari ayniqsa katta vayronagarchilik keltiradi.

Bularga Toshkent, Surxondaryo, Namangan viloyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Tog'li xududlarda aprel-may oylarida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli sel olishi ko'p kuzatiladi. Oxirgi vaqtlarda odamni faoliyati natijasida sel olishi xavfi kuchayib bormoqda. Bunday xodisalarga tog'-yon bag'ridagi daraxtlarni kesish, tog'-yon bag'ridagi podalarni boqish, tog'-kon muassasalarida chiqindi maxsulotlarni noto'g'ri joylashtirish, avtomobil' va temir yo'l qurilishida portlatish ishlarini noto'g'ri olib borish, erga noto'g'ri ishlov berish, tog'li xududlarda irrigatsiya inshootlarini noto'g'ri joylashtirish, sanoat korxonalari chiiqindilarini o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatishi sabab bo'lmoqda .

1996 yid may oyidan 2008 yil oktyab oyigacha davrdagi O'zbekiston xududida sodir bo'lgan sel oqibatida:

Sel 2 guruqga bo'linadi :

Glyatsial

JALALI

Qor va muzlarni tez

Ko'p miqdorda yomqir yoqishi

erishi

natijasida

Aholini xarakati:

Muxofaza tadbirlari. Sel xosil bo'lishida ishtirok etuvchi omillarning anchagina ko'pligi uni o'z vaqtida prognozlashni qiyinlashtirib yuboradi. Shunga qaramay, sel mavsumining boshlanish vaqtini oldindan aytib berish mumkin. Selga qarshi kurashish uchun tuproqni yuza qavatini mustaxkamlash kerak. Buning uchun daraxtlar ekish lozim. Tog'dagi suv omborlaridan vaqti-vaqti bilan suvni chiqarib turish kerak. Selga qarshi kurashish uchun suvga qarshi tura oladigan to'siqlar quriladi. (damba, platina).

Suv bosishi.

Suv bosishi O'zbekiston xududida vaqti-vaqti bilan kuzatilib turadigan xodisa bo'lib, ko'pchilik daryolarimizdagi suvlar toshib qirg'oq atrofidagi yashovchi odamlarga moddiy zarar keltiradi.

Suv bosishi deb - daryolarda, suv omborlarida, ko'llarda suvni o'z meyoridan ko'tarilib, ancha xududni bosib ketishiga aytiladi. Asosiy sababchisi qor va muzliklarning erishi, uzoq vaqt davomida yomqir yog'ishi, shamolni kuchli ta'siri natijasida suvni ko'tarishi, suvga qarshi qurilgan to'siqlar ko'chib ketishi bo'ladi, daryo o'zanlarining muz parchalari bilan to'silib qolishi, to'g'onlarning buzilishi suv toshqiniga sabab bo'ladi.

Suv muammolarini o'rganish natijalari suv bosishini 4 ta turini belgilab berdi:

1. Toqdagi qorlar tezda erishi natijasida bahor faslida suvlarni miqdorini ko'payib ketishi.
2. Yog'ingarchilikni ko'p takrorlanishi natijasida suvni yuzasini yuqoriga ko'tarilishi.
3. Qish oylarida daryolarni muzlashi, uni erishi natijasi oqibatida suv yuzasini yuqoriga ko'tarilishi.
4. Bo'ron natijasida suvni yuza qismini ko'tarib suv bosishiga olib kelishi.

Suv bosishini oldini olish uchun, albatta "suv olish havfini" axbort vositalari yordamida oldindan xabarini berish lozim. Aholini himoyalashiga o'qitish, uni yuqori darajada tashkil etish, suv bosishini oldini oladigan sharoit xisoblanadi.

**Qor ko`chkisi** – og`irlik kuchi ostida tog` yonbaqirlarida xarakatga kelgan va surilayotgan katta xajmdagi qor massasining o`pirilishiga

Kuzatuvlar asosida oldindan qor ko`chishi joylarini belgilaydi. Qor ko`chish xavfi tug`ilganda qorda yoriq hosil bo`lish, qorni usti nam bo`lganda ustiga qor yog`ishi natijasida xam qor ko`chishi kuzatiladi. Ko`chish xavfini ob-havoni keskin o`zgarishi hosil etishi mumkin:

Qorni kuchli yoqishi.

Kuchli shamol.

Yomqir yog`ishi.

Tezlikda isib ketishi.

Ob-xavoni keskin ochilib ketishi.

Ko`chish sababini qor qatlamini ichida kuchsiz siyrak qorlarni hosil bo`lishi manba hosil qiladi.

Qor ko`chkishi katta hajmdagi qor massasi bo`lib, u 70-100 km/s tezlikda xarakat qiladi. Quruq qor ko`chkisining tezligi 360 km/s. ga etishi xam mumkin.

U 25-30 m o`lchamdagi, 20 sm qalinlikdagi kichkina ko`chkidan paydo bo`lishi mumkin.

150 kub.m xajmdagi ko`chkining og`irligi 20 dan 30 tonnagacha etadi.

Zarb kuchi 1 kv. m. ga 50 tonnagacha etadi.

Yog`och uylar 1 kv. m. ga 3 t zarbga bardosh bera oladi.

10 t kuch bilan urilganda asriy daraxtlar ildiz-pildizi bilan qo`porilib chiqishi mumkin.

O`z. R vazirlar Maxkamasining 2011 YIL 24 avgustdagi 242-sonli “O`z. R Favquloddavaziyatlarda ularning oldini olish va xarakat qilish DavlatTizimini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi Qarori

Muxofazadash chora- tadbirlari:

Uchburchak shaklidagi dambalarga kelib urilgan qor massaning xarakati sustlashadi, bo`linib ketadi va boshqa yo`nalishda xarakat qila boshlaydi. Yirik qor ko`chkilarini lish maqsadida ularni sun'iy yo`l bilan tushirib turiladi. Buning uchun artilleriya to`plari, raketalar yordamida o`qqa tutiladi.

Gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikamizda 1999 yil 20 avgustda **“Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to'g'risida” Qonun qabul qilindi.**

Markaziy Osiyoda gidrotexnik inshootlarning ishonchli va uzluksiz, umuman olganda xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlash o'ta muhim xisoblanadi.

Dunyo miqyosida suv omborlarining dambalari va boshqa gidrotexnik inshootlarni ishlatish tajribasi shuni ko'rsatadiki, inshootlar 30-40 yildan ortiq ishlayotgan bo'lsa, u inshootlar avariya (buzilish) xolatiga tushib, katta maydonlarda favqulodda xolatlarga olib kelishi mumkin va natijada insonlar xayotiga, mamlakat iqtisodiyatiga og'ir musibat keltirishi mumkin.

Gidrotexnika inshootlarini avariylarini oldini olish bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan choralar, ularni sodir bo'lgandan keyin ko'rilgan choralarga nisbatan xam samarali xam kam chiqimlidir.

Gidrotexnik inshootlar: to'g'onlar, suv tashlash, suv bo'shatish, suv o'tkazish, nasos stantsiyalari, suv chiqarish inshootlari, tonnellar, gidroelektr stantsiyalari binolari, kanallar, suv omborlari qirg'oklari, daryo va kanallar o'zanlari va tubini toshqin hamda emirishlardan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan inshootlarga aytiladi.

Gidrotexnika	inshootlari	turlari	:
---------------------	--------------------	----------------	----------

Suv – energetika inshootlari;

Suv ta'minoti inshootlari;

Sug'orish inshootlari;

Suv oqava chiqarish inshootlari;

Suv – transport inshootlari;

Baliq xo'jalik inshootlari;

Sport inshootlari;

Bezak inshootlari va xokazo;

Terrorchilik va qo'poruvchilik xarakat sharoitida yoki FV jarayonida gidrotexnik inshootlar ma'lum xavf tug'diradi masalan: Chorbog' suv ombori, sig'imi 2 mlrd kub metr suv mavjud bo'lib tuqonni buzilishi sodir bo'lganda, shaxarning Chirchik daryosiga yaqin qismida joylashgan ob'ektlari va aholi punktlari xalokatli suv bosish xududiga aylanadi.

Xalokatli suv toshqinida Toshkent viloyatidagi sanoat korxonalari turar joy binolar, ekin maydonlari katta zarar ko'rishini mumkin. Xuddi shunday xalokatlar boshqa suv omborlarini buzilishi natijasida yuzaga keladi. Qibray, Bo'stonliq, Toshkent shaxri, Zangiota, Yangiyo'l, Chinoz, Sirdaryo viloyatini ayrim xududlarini suv bosish xavfi bor.

Xavf tuqdiruvchi ko'llardan biri Tojikiston Respublikasi tog'li Badoxshon Muxtor viloyati xududida Pomir tog'ining markaziy qismida joylashgan **Sarez** ko'lidir.

Sarez ko'li (Tabiiy) 1911 yil 18 fevraldan 19 fevralga o'tar kechasi 9 ballik kuchli zilzila tufayli Muqrob vodiysi yonbag'irlarida tarixda misli ko'rinmagan tog' o'pirilib, ko'chki ro'y berdi. Ko'chki Mug'rob daryosini butunlay to'sib qo'ydi va Usoy qishloqini to'liqicha ko'mib tashlaydi. Butun boshli qishloqni barcha aholisi tuproq tosh uyumi ostida qolib halok bo'ladi va bu tog' ko'chkisidan xosil bo'lgan uyum "Usoy uyumi" degan nom oladi. Yuzlab tonna xajmidagi tog' jinslari surilib borib, Mug'rob daryosini vodiysini to'sib juda katta ko'l, jahonda eng yirik tog' ko'li xosil bo'ladi. Xavzasida to'planib xosil bo'lgan suv Sarez qishlog'ini butunlay bosib qoladi. Shuning uchun ko'lning nomi Sarez ko'li deb atalgan. Xozirgi vaqtda mavjud ma'lumotlarga asoslanib Sarez ko'li va Usoy uyumini xolati xaqida quyidagilarni aytish mumkin.

Bugungi kunda ushbu tog' ko'lining yuzasi 80 km² uzunligi 60 km, chuqurligi 500 m, umumiy suv miqdori 19 mlrd. metr kubometrni tashkil etadi.

Gidrodinamik xalokat turlari va sabablari:

Gidrotexnika inshootlariga ularni buzilishiga olib keluvchi quyidagi emiruvchi kuchlar doimo ta'sir ko'rsatib turadi: suv oqimi, tebranish, balchiq-cho'kindilar, o'zgaruvchi xarorat, dinamik kuchlar, metall zanglashi, betonning suyuqlikka qorishib yuvilishi, erning yuvilib ketishi va xokazo.

Shu sababli, vaqt o'tgan sari, rejaga ko'ra bajarish lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari amalga oshirilmasa inshoot emirilib, unga yondosh xududni suv bosish xavfi orta boradi.

Aholini va xududlarni xalokatli suv bosishidan muxofaza qilish choralari :

Gidrotexnik xalokatlar xavfi mavjud xududlarda yashovchi har bir kishi uning uyi, xo'jaligini xalokatli xsuv bosish xududidax joylashganligi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak;

Uzgidromed, FVV, FVDT xokimiyatlar vakillari tomonidan berilgan ko'rsatmalaridagi gidrotexnik xalokatlar va suv toshqinidan himoya qilish yo'l-yo'riqlariga albatta amal qilish lozim;

Ehtimoli bor xalokatli suv bosish zonasida istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatdagi xatti-xarakatlarga tayyogarlik darajasini oshirish;

muhofaza tadbirlarini o'quv mashqlari ko'rinishda bevosita o'tkazish;

evakuatsiya e'lon qilinganda o'zi bilan olishi kerak bo'lgan narsalar (ichimlik suvi, oziq-ovqat va kerakli xujjatlarni) tayyorlab qo'yish;

GTI xalokatlar ro'y berganda:

- suv ostida qolishi mumkin bo'lgan zonalardan aholini va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish;
- darhol xujjatlarni, qimmatbaqo va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zaxiralarini o'zi bilan olish;
- zarur narsalarni yo'qolmaydigan qilib saranjomlab qo'yish;
- chorva mollarini xavfsiz joylarga o'tkazish;
- xalokat yuz berganda to'lqin zarbidan saqlanish uchun shoshilinch choralar ko'rilib belgilangan baland joyga, pishiq inshoot ustiga chiqiladi;
- gidrotexnika inshootlardagi xalokatlar yuz bergandan so'ng suv ta'minoti tizimini sozligini, ustun va devorlarni xolatini, elektr, gazlarni tekshirish zarur;
- agar odam imorat ichida (cherdakda va boshqa joyda) qolgan bo'lsa, qaerdaligini belgilab, qutqaruvchilar mo'ljal olishi uchun signal (kunduzi bayroqcha - kechasi esa fonus) osib qo'yiladi.

Portlash va yonqin xavfi mavjud ob'ektlardagi avariya va falokatlar.

Portlash - bu qisqa vaqtning o'zida chegaralangan hajmdagi katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir.

**Yong`in**-odamlarning hayoti va sog`liqiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek, atrof tabiiy muxitga zarar etkazadigan, nazorat qilib bulmaydigan yonish.

O`z.R .30.09.2009 yil. «**Yong`in xavfsizligi to`qrisida**»

Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 yil 24 iyunda qabul qilingan.

Senat tomonidan 2009 yil 28 avgustda ma'qullangan.

Ushbu qonun 1-6 bob va 1-40 moddadan iborat.

Yong`indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat :

Yong`inlar profilaktikasini o`tkazish va yong`in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Yong`inlarni o`chirish yong`in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish.

Yong`in va portlashning asosiy sababi va turlari:

Yong`in xafvsizlik qoidalariga amal qilmaslik.;

Fuqarolarning layoqdsizligi, e`tiborsizligi;

Elektr simlarining nosozligi;

O`z. R. hududida 2011 yil 9- oy mobaynida sodir bo`lgan yong`inlar :

Yil	Yonqinlar	Jaroqat olganlar	Xalok bo`lganlar
	soni	soni	soni
2011	9051	390	99
2010	9443	535	112

O'zbekiston Respublikasining qonuni «Pirotexnika buyumlari muomalasi tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun qujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'qrisida».

Qonunchilik palatasi tomonidan 2010 yil 22 iyunda qabul qilingan.

Senat tomonidan 2010 yil 28 avgustda ma'qullangan.

Respublika xududida 2011 yilning 9- oy moboynda sodir bo'lgan yonqinlarning sabablari:

<u>Yil-lar</u>	<u>2011</u>	<u>2010</u>
Kastdan ut kuyish	122	134
Texno-logik	94	106
El-r uskun	2659	2612
Isitish pech.	1663	1677
Olov. extiyot.	3389	3752
Bola shux.	1003	1020
Axoli yashash joyi	6956	7022

Shuningdek, yonqin-portlash xavfi mavjud ob'ektlardagi yonqin va portlashlar zilzilalar natijasida xam yuzaga kelishi mumkin

O'z. R. 1999 YIL 19 avgustdagi “Yol xarakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni

O'zbekistonda KTZM chiqib (oqib) ketishi mumkin bo'lgan avariylar eqtimoli bor kimyoviy xavfli ob'ektlar ko'p. Ularda ishlatiladigan ba'zi kimyoviy moddalar o'z qidiga, rangiga ega, lekin ko'pgina KTZM va ZM ning xidi xam, rangi xam bo'lmay, ularni mavjudligini aniqlash uchun maxsus kimyoviy razvedka asboblari zarur bo'ladi.

Gazlarning quyidagi kontsentratsiyada 1 daqiqa mobaynida nafas olinsa, kishilar o'limga sabab bo'lishi aniqlangan:

zarin	- 0,1 mg(l
V gazlar	- 0,4 mg(l
iprit	- 1,5 mg(l

xlortsian	- 2,2-2,5 mg(l
fosgen	- 0,1-0,3 mg(l.

(15-30 daqiqa nafas olganda

Inson uchun havfli bo`lgan zaxarli moddalar bilan ishlaydigan korxonalarning soni O`zbekistonda yildan-yilga ko`payib bormoqda. Bu korxonalar asosan Toshkent, Samarqand, Farqona, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy, Angren va boshqa shaqarlarda (SO₂, NH₃, Cl₂, HNO₃, H₂SO₄, CH₃COOH va boshqa zaqarli moddalar) joylashgan. qozirgi kunda respublikada 300 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalarida zaxarli moddalar ishlatiladi (jadval1).

Kuchli ta'sir etuvchi zaqarli moddalar bilan ishlaydigan sanoat tarmoqlarida nafaqat avariya oqibatidan fuqarolarga xavf-xatar keltirishi mumkin, balki shu tarmoqlardan chiqindi maxsulotlar xam (atmosfera ga yoki suv havzalariga chiqarib yuborilishi) atrof- muqitni va tabiatni ifloslantirishi oqibatida insonlar hayotiga jiddiy xavf soladi.

Bu borada ayniqsa, metallurgiya, kimyo, biotexnologiya, rezina-texnika, neftni qayta ishlovchi va boshqa sanoat tarmoqlarining salbiy ta'siri juda kattadir. Respublikamizdagi ayrim sanoati rivojlangan ayrim shaharlarda, jumladan, Samarqand, Farqona, Andijon, qo`qon, Angren, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaqarlarda havoning ifloslanish darajasi me'yoridan 1,5-2 marta qatto ayrim joylarda 3-6 marta ortiq.

Kimyo sanoati korxonalari ko`p joylashgan Chirchiqdagi “Elektrokimyo” Farqonadagi “Azot”, “Farqona neftsintez”, Navoiydagi “Elektrokimyo”, “Azot” va boshqa sanoat birlashmalaridan juda qam qavfli zaqarli KTZM tashqariga (atrof-muqitga) chiqarilib yuborilmoqda.

Agar avariya qolatida bir qancha gazlar aralashmasi bo`lsa, faqat izolyatsiyalovchi gazniqoblardan foydalanib, avariya joyini tiklash, zararlangan o`choqdan odamlarni evakuatsiya qilish tadbirlari ko`riladi. KTZM chiqib ketgan joylarda avariylarni tiklash ancha mushkul jarayonlardan xisoblanadi. Bunda asosiy ishlardan:

birlamchi tiklash ishlarini tashkil etish;

KTZM tarqalgan qududni o`rash (lokalizatsiya qilish) x.8isoblanadi.

O`z .R .2006 yil 28 sentyabrdagi **“Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to`g`risida”gi Qonuni**

Biologik vositalar qo`llanishi oqibatida favqulodda epidimiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar yuzaga keladi. Bular quyidagi ko`rinishlarda yuzaga keladi:

- Alohida xavfli yuqumli kasalliklar tarqalganda;
 - Epidemiya;
 - Guruh kasallanishi oqibatida;
 - Kasallanishning va o'limning o'sishi natijasida;
 - Odamlarning zaharlanishida;
 - Epizootik vaziyat, ya'ni xayvonot dunyosida o'tkir kasalliklarning tarqalishi ;
 - Epifitotik vaziyat, ya'ni o'simliklarning kasallanishi
- Davlat tomonidan ko'riladigan chora va tadbirlar.**

Aholini mexnat sharoitini yaxshilashga, xar xil inshootlar qurishda sanitariya meyorlariga amal qilish, vodoprovod va kanalizasiyalar kurishdan iborat

- Tibbiy chora va tadbirlar bir maqsadga yo'naltirilgan holda olib boriladi. Infeksiya manbai topib aniqlanadi va zararsizlantiriladi. Kasal odam -infeksiya manbai sifatida kasalxonaga yotqiziladi va davolanadi. Kasal xayvon yo'q qilinadi yoki davolanadi.
 - Yuqumli kasalni ko'paymasligi uchun xamma transport vositalarida chora - tadbirlar qo'llaniladi. *Karantin* e'lon qilinadi. Suv ta'minotlariga aloxida e'tibor , ovqatlarga e'tibor beriladi. o'tish yo'llariga qarshi dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizasiya qo'llaniladi. Aholi emlanadi.
- O'z.R. 1999 YIL 19 avgustdagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OITS kasalligining) oldini olish to'risida" Qonuni**

O'z . R. 2000 yil 31 avgustdagi "Radiatsiyaviy xavfsizlik tog'risida"gi Qonuni

O'z . R. Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 7 oktyabrdagi "O'z R aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida"gi 427-sonli Qarori

"Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish bo'yicha 2012 yilda bajarilgan tadbirlar yakuni va 2013 yildagi vazifalar tyg'risida" O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muxofazasi boshlig'ining 2012 yil 17dekabrdagi 3- sonli buyrug'i

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.O`z Rsi V .Msining qaroriga ko`ra bizning mintaqada 7 xil FV turlari tasdiqlangan,bular qaysilar?

2.O`z.R V. M. **“Texnogen, tabiiy va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to`g`risida”**gi Qarori qachon qabul qilingan?

3.18-modda –**“ Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o`quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda axolini favqulodda vaziyatlarda xarakat qilishga o`rgatish umumiy va majburiydir”**qaysi Qonunda qa`bul etilgan?

4.O`z. R favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va xarakat qilish Dalat Tizimini yanada takomillashtirish tog`risida”gi Qarori qachon qa`bul etilgan?

5.Aftershok deb nimaga aytiladi?

5.Zilzilalar ne`cha hilga a bo`linadi?

6."**Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tUSDagi) xarakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to`g`risida”** O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining nechinchi yildagi **Qarori** ?

7.O`z .R . **“Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to`g`risida”**gi **Qonuni** qachon qa`bul etilgan?

8.O`z . R. 2000 yil 31 avgustdagi **“Radiatsiyaviy xavfsizlik tog`risida”**gi **Qonuni** qachon qa`bul etilgan?

9. O`z R **“Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to`qrisida”** Qonun qachon qabul qilingan?.

10. O`z .R. V. M. “O`z R aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to`g`risida”gi nechinchi sonli Qarori va qachon qabul qilingan?

Mavzu: **FAVQULODDA HOLATLARDA XALQ XOJALIGI TARMOQLARIDA QUTQARUV, BIRLAMCHI TIKLASH ISHLARI** .
va birinchi tibbiy yordamni tashkil etish

Reja :

1. Favqulodda qoatlarda zararlangan xududlarda qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini tashkil etish.
 - a)Kimyoviy zararlangan xududda qutqaruv ishlari
 - b)Biologik zararlangan xududda qutqaruv ishlari.
- 2.QBTI ishlarini shikastlangan o`choqda olib borish usullari
- 3.Tabiiy ofat , fojidan zararlanganlarga tibbiy yordamni tashkil etish.
4. Shoshilinch yordam korsatilganda dastlabki tezkorlik bilan bajariladigan ishlar.

Qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarining tashkiliy asoslari:

Tinchlik davrida xam tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, fojialar kuzatilishi mumkin. Shu sababdan fuqaro muqofazasining eng asosiy vazifalaridan biri, harbiy holatlarda va tinchlik davrlarida favquloddagi vaziyatlarda umumiy shikastlangan o`choqlarda QBTI (qutqaruv va birlamchi tiklov ishlari) ni amalga oshirish xisoblanadi. Shikastlangan o`choqlarda QBTI ni olib borishdan maqsad, fuqarolarni qutqarish va zararlangan odamlarga birlamchi tibbiy yordam ko`rsatish, qutqaruv ishlarini amalga oshirishda xalaqit beradigan avariylarni to`sish, shikastlangan joylarni tiklash ishlarini amalga oshirishda sharoitni yaratish va boshqa vazifalarini bajarish ko`zda tutiladi.

Zararlangan xududlarda quyidagi qutqaruv ishlari bajariladi:

- ✓ Ob'ektlar tomon tizimlarning qarkatlanish yo`llarini razvedka qilish;
- ✓ Shikastlangan ob'ektlarga xarakat qilishda yong`inlarni o`chirish va to`sish;
- ✓ Zaqarlangan, yong`inli, gazga to`lgan, suv bosgan joylarda va yer ostida qolgan odamlarni topish va qutqarish;

- ✓ Shikastlangan, buzilgan va zaxarlangan himoya inshootlaridagi fuqarolarni qutqarish;
- ✓ Havo almashtirgichi buzilgan, shikastlangan himoya inshootlariga havoni yetkazib berish;
- ✓ Shikastlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni davolash shaxobchalariga eltib qo'yish;
- ✓ Xavfli xududdagi fuqarolarni xavfsiz xududlarga evakuasiya qilish;
- ✓ Odamlarni sanitar qayta ishlovdan o'tkazish, uy xayvonlariga veterinar qayta ishlov berish, texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, xom-ashyo, suv va yem-xashaklarni dezaktivasiya va degazasiya qilish.

Boshqa birlamchi tiklov ishlariga quyidagilar kiradi:

- Shikastlangan xududlardagi (zaxarlangan, yiqilgan, buzilgan inshootlar) yo'llarni tozalash;
- Sutqaruv ishlarini olib borishda gazli, elektrli, suvli, kanalizasiya va texnologik tizimlardagi avariyalarni to'sish ishlari;
- Shikastlangan inshootlarni buzish yoki uni mustaxkamlash;
- Aloqa va kommunal-energetik tarmoqlardagi falokatlarni tuzatish va tiklash ishlari;
- Turli xildagi portlovchi qismlarni, portlovchi aslaxalarni topish, zararsizlantirish va yo'qotish ishlari.

QBTI ishlari kunu-tun, doimiy ravishda, xar qanday tabiiy sharoitda olib boriladi. Umumiy qirg'in qurollarining shikastlanish o'chog'ida QBTI ni tashkiliy olib borish uchun, tinchlik davridayoq tuman fuqaro muqofazasining boshlig'I qarori bilan fuqaro muqofazasi kuchlarining xarakat qilish yo'llari tuziladi.

Harakatlanuvchan kuchlar tarkibiga shaqar, tuman fuqarolar muqofazasining xududiy, ishlab chiqarish tamoyilga ko'ra tuzilgan tizimlari xamda xarbiylashgan fuqaro muqofazasi qismlari kiradi.

Ob'ektning fuqarolar muqofazasini xarakatlanuvchan kuchlari asosan umumiy otryadi, qutqaruv otryad xamda ishlarni bajaruvchi tizimlardan tashkil topgan.

Fuqarolar muqofazasining texnika vositalari xamda kuchlari shikastlangan zonaga juda qisqa vaqtda kirishi, QBTI ishlarini muvaffaqiyatli bajarishi, zamonaviy texnikadan unumli foydalanishi, ish jarayonida qo'l ostidagi kuchlarni, tizimlarni almashtirib turishi va boshqa ishlarni bajarishi lozim.

Albatta turli xildagi texnikalardan foydalanmay shikastlangan zonada katta, unumli ishlarni bajarib bo'lmaydi. Faqatgina mexanizmlar yordamigina, jumladan, qurilish va yo'l mashina va mexanizmlari, kommunal-texnika jixozlari yordamida, yer ostida, buzilgan, yonayotgan, gazga to'lgan inshootlar

ichida qolgan, buzilgan himoya inshootlari ostida qolgan fuqarolarni qutqarish va boshqa ishlarni bajarish mumkin.

Bajariladigan ishlarni xarakteriga qarab mexanizmlarni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin:

- Bosib qolgan qimoya inshootlarini ochish, to'silib qolgan, bosib qolgan joylarni ochish va tozalash, yo'llarni tozalashda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar (ekskavatorlar, traktorlar, buldozerlar, kranlar, yuk tashuvchi mashinalar va boshqalar).
- Bosib qolgan chiqish joylari to'silib qolgan inshootlarda teshik ochish uchun ishlatiladigan pnevmatik jihozlar (parmalaydigan va urib sindiriladigan bolg'alar).
- Metallarni kesuvchi jihozlar.
- Suv xaydaydigan mexanizmlar (nasoslar, suv sepadigan mashinalar, yong'inni o'chiruvchi va boshqalar).
- Suv yo'llari orqali tashuvchi mexanizmlar (paromlar, trayler-tyagachlar, yuk tashuvchi priseplar).
- Ta'mirlovchi va xizmat qiluvchi jihozlar (ta'mirlovchi qismlar, benzin, suv quyish, yorituvchi maskanlarda va xizmat ko'rsatuvchi maskanlarda qo'llaniladigan jihoz va mexanizmlar).

QBTI ishlarini muvaffaqiyatli bajarishda mexanizm va mashinalardan oqilona foydalanishdan tashqari, razvedka ishlarini o'z vaqtida tashkil etib o'tkazishi, ko'rsatilgan muddatda ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi, shikastlangan o'choqda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarga tuzilmalarni jalb etilishi, ishlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi, tuzilma boshliqlarining shikastlangan o'choqdagi ishlarning tavsifini oldindan o'rganishi, kommunal-energetik va texnologik jarayonlarga e'tibor berishi, xududda saqlanadigan KTZM (kuchli tasir etuvchi zaxarli moddalar) o'rni, ximoya inshootlarining joyi, tavsifnomasi va boshqa vazifalarga katta e'tibor beriladi.

QBTI ishlari o'sha ob'ektning fuqaro muqofazasi shtabi tomonidan oldindan rejalashtiriladi va favqulodda xolatda qo'l ostidagi kuchlar, mablag', texnikalar, bajariladigan ish xajmi aniqlashtiriladi.

QBTI ishlarini shikastlangan o'choqda olib borish usullari:

Ma'lumki, QBTI ni bajarish usullari va qoidalari, o'sha shikastlangan o'choqda xarakatlanuvchi tuzilmalarga xalaqit beruvchi omillar darajasiga qarab tanlanadi. Jumladan, shikastlangan inshootlarni tavsifiga, kommunal, energetik va texnologik tarmoqlardagi avariya darajasiga, o'sha inshootning axvolidan kelib chiqqan xolda tanlanadi. Keyin shu inshootlardagi odamlar qutqarilib, ularga tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Xuddi shunga o'xshash ishlar tinchlik davrida xam, tabiiy ofatlar, kuchli yer silkinishi natijasida xam olib boriladi. Masalan, Afg'oniston, Meksika, Armaniston, Xindiston, Yaponiya va boshqa mamlakatlardagi yer silkinishi yodga olish

mumkin. Bu yerlarda yer ostida qolgan odamlarni qutqarishda juda katta (16 t) yuk ko'targichlari, projektorlar tunu kun ishladilar. Buzilgan joylarda qolgan odamlar 2-3 xafta davomida qutqarilgan va yashayotgan fuqarolar borligi aniqlangan.

Masalan, 1985 yil Meksikada bo'lgan yer silkinishi oqibatida 13 sutkagacha xarobalar ostida qolib ketgan 4,5 ming odam qutqarilgan. Armanistondagi yer silkinishida esa 5 kundan keyin qutqarilganlar soni 5398 kishini tashkil etgan. Bu falokatda Fransiya, Angliya, AQSh, Shveysariya va boshqa davlatlarning qutqaruv qismlari ishtirok etdilar va o'zlarining eng zamonaviy uskunalari xamda boshqa vositalardan foydalanishi, bir qancha odamlarni tirik saqlab qolganlari ma'lum.

Yuqorida aytib o'tilgan shikastlangan o'choqlarda faqatgina qutqaruv ishlari bajarilmasdan, birlamchi avariyanı tiklov ishlari xam bajarildiki, bunda qutqaruv ishlariga xalaqit beruvchi avariyaalar xamda yangi falokatları keltirib chiqaruvchi avariya va talafotların oldi olindi.

Chunki bular oqibatida fuqarolar qo'shimcha talafot olishlari mumkin edi. Buning uchun, suv tarmog'i, kanalizasiya, gaz, elektr tarmoqlaridagi avariyanı tuzatuvchi tuzilmalar jalb qilindi. Albatta, bu ishlarga umummaqsadli tuzilmalar xam jalb etiladi. Yuqoridagi avariyaaların oldini olishni asosiy yo'li bu shikastlangan uchastkalarga suv, gaz, elektr va boshqa sababchi omillarning kelishini to'sish xisoblanadi. Bunda turli xildagi to'sish omillaridan foydalaniladi.

Inshootların devorları turli xildagi tirgovuchlar orqali mustaxkamlanadi, buziladiganlar esa tamoman buzib tashlanadi. Chunki bu ishlarni qilmasdan turib, odamlarni qutqarish xavfli xisoblanadi.

Kimyoviy shikastlangan o'choqda qutqaruv ishlari birmuncha oldingisidan farqlanadi. Bu xolatda birinchi navbatda ogoxlantirish belgisi "Kimyoviy trevoga" berilib, darxol usha joyga radiasiya, kimyoviy va tibbiy razvedka bo'limlari yuboriladi. Ular shikastlangan joyni, vaqtni, qo'llanilgan qurol turini (yoki zaxarli moddalar - KTZM), zaxarlangan xudud o'lchamini va uni tarqalish yo'lini aniqlab beradilar.

Mana shularga asosanib shu ob'ekt fuqaro muhofazasi boshlig'i qaror qabul qilib, o'zi qutqaruv omillarini xamda kimyoviy zararlanishni to'sish omillarini tashkil etadi. Bunday xolatlarda qutqaruv ishlariga birinchi navbatda sanitar drujinachilari, umumiy otryad, zararsizlantirish guruhlari va mexanizasiya tuzilmalari jalb etiladi.

Bunda xar bir tuzilmalar aniq vazifa va texnikalar, jihozlar bilan ta'minlanadi. Chunonchi:

- Sanitar va qutqaruv tuzilmalariga ish joylarini, transport vositalarini, zararlangan odamlarni o'choqdan olib chiqish, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va evakuasiyanı tashkil etish vazifalari;
- Radiasiyaga qarshi (Rq) va kimyoviy tasirga qarshi(KTq) himoya xamda umumiy tuzilmalarga qutqaruv ishlarining joyi,

KTZM saqlanadigan joylardagi avariyaning to'sish va zaxarlangan inshootlarni, atrof-muqitni degazasiya qilish ishlari;

- Zararsizlantirish guruhlariga degazasiya bajariladigan ish joylari, ob'ektlari, degazasiya qiluvchi eritmalarni tayyorlash va mashinalarni to'ldirish, degazasiya ishlarini olib borish yuklatiladi.

Kimyoviy o'choqda qutqaruv ishlarini bajarishi lozim bo'lgan vazifalar olingandan keyin xar bir tizim boshliqlari o'z qo'l ostidagi fuqarolarni yakka tartibdagi himoya vositalari, antidotlar, ShKP-8(shaxsiy kimyoviy paket) bilan ta'minlaydilar. Shundan keyin ular razvedka, sanitar drujina, Rq va KTq tuzilmalaridan keyin o'z ish joylariga borib, vazifalarini bajarishga kirishadilar.

Bunda birinchi bo'lib, zararlangan odamlarga yordam ko'rsatiladi, ya'ni gazniqob kiydiriladi, antidot berilib, tibbiy yordam ko'rsatiladi va ular xar xil zararlanish toifalariga bo'linib, so'ngra tibbiyot shaqobchalariga evakuasiya qilinadi.

Zararsizlantiruvchi tuzilmalar, xqamma yo'llar, inshootlar, texnikalar degazasiya qilinadi. Shu tariqa kimyoviy shikastlangan o'choqda qutqaruv ishlari bajariladi.

Biologik shikastlangan o'choqda esa biologik razvedka va bakterial moddalar xili, karantin yoki observasiya rejimini qo'llanilishi; sanitar-ekspertiza, oziq-ovqat maxsulotlari, suv, yemlarning zaxarlanganligini aniqlash va ularni zararsizlantirish; epidemiyaga qarshi, sanitar-gigienik, veterinariya ishlari va boshqa omillar amalga oshiriladi.

Bu ishlarni olib borishda biologik shikastlangan o'choqda sanitar-epidemiologik maskan, veterinariya maskani, epidemiyaga qarshi qarakatlanuvchi otryad, shifoxonalar, poliklinika, veterinariya tarmoqlari va boshqa medisina tarmoqlari jalb etiladi. Ular birinchi navbatda og'ir kasallik tarqatuvchilardan saqlash uchun profilaktik omillar olib borishadi. Bunda turli xildagi ta'sir etuvchi antibiotiklardan qamda ShD-2 dan (shaxsiy dorixona), gazniqoblardan foydalaniladi. Xududda kasallik tarqatuvchining aniq turi topilgandan keyin, unga qarshi maxsus dorilardan foydalaniladi. Shundan keyin shikastlanganlarning kasallanish xolatiga qarab xar xil darajada tuzatish muolajalari olib boriladi. Ular darhol kasalxonaga yotqiziladi va juda og'irlari ma'lum joyga, maxsus gurug'lar yordamida evakuasiya qilinib, o'sha yerda davolanadilar.

Biologik (xavfli kasallik tarqalgan) o'choqning tugatilishi u yerdagi oxirgi kasal odamning tuzalib ketish vaqti bilan aniqlanadi. Biologik o'choqda xarakatlanuvchi qismlar, u yerdagi yuqumli kasallik bilan kasallanmasliklari uchun xamma omillarni olib borishlari kerak, ya'ni kasallar bilan muloqatda bo'lmaslik, inshootlar, xonalar, atrof-muqit zararsizlantirib turilishi, kiyim-kechaklarni dezinfeksiya qilishi va o'zini sanitar-qayta ishlovdan o'tkazib turish talab etiladi. Mana shularga rioya qilib, xarakatlanuvchi tuzilmalar xech qanday yo'qotishsiz, o'z vazifalarini bajarib boradilar. Murakkablashgan shikastlanish o'chog'ida QBTI ni olib borish, alohida-alohida o'choqlarda olib borilgan ishlarga nisbatan

bir necha o'n barobar og'ir xisoblanadi. Chunki bu xolatda vaziyat juda murakkab bo'lib, o'choqdagi shikastlantiruvchi omillar turini aniqlash juda og'ir xisoblanadi. Bulardan tashqari bunday o'choqda biror omilga qarshi olib boriladigan omillar ikkinchi omilga tamoman teskari bo'lishi mumkin. Masalan, xavfli epidemiya bilan kasallangan odamlarni davolashda foydalaniladigan karantin omili kuchli binar-xususiyatli kimyoviy qurollar ishlatilganda qo'llaniladigan evakuasiya va boshqa vositalardir.

Murakkablashgan o'choqda biror uslubiy ko'rsatma asosida emas, QBTI sharoitini aniq o'rganish orqali, o'sha yerdagi vaziyatdan kelib chiqqan xolatda ish olib boriladi.

Tabiiy ofat, avriya va fojialarda talafot ko'rganlarga tibbiy yordam tashkil etish.

Bizning mamlakatimizda tabiiy ofat, yirik avariya va fojialar oqibatlarini bartaraf etish maqsadida davlat komissiyalari (respublika, viloyat, shaqar, tuman miqyosida) tuziladi. Ushbu komissiyalar faoliyati talafot ko'rgan aholini xar taraflama qo'llab-quvvatlash maqsadida umumdavlat omillarini tashkil etishga, jumladan, turar-joy muammosi, tabiiy ofat xududida jamoat va sanitar tartibini ta'minlash, kommunal-xo'jalik, savdo, tibbiy xizmat va boshqa muassasalarni muntazam ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Tabiiy ofatning birinchi kunidan boshlab fuqarolar muqofazasining tibbiy xizmat shtablarida kunu-tun navbatchilik belgilanadi, poliklinika shaqobchalarining ishchi-xizmatlchilari uzluksiz ish tartibiga o'tkaziladi.

Davlat komissiyasi mavjud barcha davlat zaxiralarini xamda aholini tabiiy ofatga qarshi kurashga safarbar etadi. Shu bilan birga tabiiy ofatdan zarar ko'rganlar sog'lig'ini saqlash muammosi bilan bog'liq masalalarga birinchi darajali davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida qaraladi. Odatda, davlat komissiyasi tarkibiga sog'lig'ni saqlash organi rahbarlari, FVV boshqarma boshliqlari kiradilar. Bunday sharoitda kasalxonalar, ambulatoriya-poliklinika muassasalarining xodimlari doimiy ish tartibiga o'tkaziladi, tibbiy xizmatning barcha kuch va vositalari xarakatga keltiriladi.

Tabiiy ofat ro'y bergan xududda birinchi yordam aholining o'zi tomonidan, shuningdek, bu xududda mavjud SD (sanitar drujina) kuchlari tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari zarar ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam shu xududdagi tez yordam va birinchi tibbiy yordam kuchlari xamda vositalarini jalb etish orqali amalga oshiriladi, chunki bu yordamlarning salohiyati, zarar ko'rgan joyga tezroq yetib kelish imkoniyatini beradi.

Tabiiy ofatdan xalq xo'jaligi ob'ektlarida zarar ko'rganlarga shu korxonalar boshliqlari xabarligida birinchi yordam ko'rsatiladi. Tez va birinchi tibbiy yordam stansiyalarining xodimlari qutqaruvchilar guruxlari bilan birgalikda buzilgan imoratlar va vayronalar ostida qolganlarni qidirish va birinchi tibbiy yordam ishlarini avvaldan belgilangan xududlarda tezkorlik bilan boshlab yuborishlari kerak. Odamlarni vayronalar ichidan qutqarib olish, topish jarayonida tez tibbiy yordam xodimlari ularga xam birinchi tibbiy yordam ko'rsatishlari kerak. Yarador va o'lganlar ko'p bo'lgan taqdirda, ularni transport vositalariga ortish joylarini belgilash zarur bo'ladi. Bu joylar talafot ko'rganlarni ortish uchun transport vositasi kelishiga qulay bo'lishi lozim. Yengil talafot ko'rganlar transportlarga chiqish joylariga o'z kuchi bilan borishlari uchun ularga yo'nalish belgilab beriladi.

Talafot ko'rganlar transport vositalarida eng yaqin kasalxonalar yoki ambulatoriya va poliklinika muassasalariga evakuasiya qilinadi xamda birinchi vrach yordami ko'rsatiladi. Ba'zi bir xollarda birinchi vrach yordamini ko'rsatish uchun davolash-profilaktika muassasalari negizida shakllantirilgan - birinchi tibbiy yordam otryadlari (BTYoO) jalb etilishi mumkin.

Talafot ko'rgan aholini davolash-evakuasiya ta'minoti tizimidagi birinchi bosqichli ambulatoriya-poliklinika muassasalarida talafot ko'rganlar uzoq qolmasliklarini ko'zda tutish kerak. Shu sababli favqulodda xolat shtablari tabiiy ofatdan zarar ko'rganlari stansionar davolash muassasalariga evakuasiya qilish uchun yetarli bo'lgan transport vositalarini ajratish choralarini ko'rishi kerak.

Toshkent zilzilasi oqibatlarini tugatish tajribasi shuni ko'rsatdiki, talafot ko'rganlarning asosiy qismiga birinchi yordam aynan ambulatoriya-poliklinika muassasalarida berilishi mumkin.

Ushbu zilzila paytida qayd etilgan 1623 jaroqatlardan 496 xolatda birinchi vrach yordami tibbiy tez yordam xodimlari, 781 xolatda ambulatoriya-poliklinika muassasalari tomonidan amalga oshirilgan.

Davolash-evakuasiya ta'minoti tizimidagi ikkinchi xal qiluvchi bosqich sifatida, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda shu xududga yaqin joylashgan davolash muassasalari xisoblanadi. Faqat keyinroq ayrim xollarda talafot ko'rganlar boshqa tor ixtisosdagi davolash muassasalariga joylashtirilishi mumkin.

Talofot ko'rganlarni evakuasiya qilishni to'g'ri tashkil etish va ularga maxsus tibbiy yordam ko'rsatishni uyushtirish uchun favqulodda xolat shtablari davolash-profilaktika muassasasining xolati, ulardagi bo'sh o'rinlar to'g'risida, qaysi davolash muassasasiga qancha odamni yuborish mumkinligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Favqulodda xolat shtablari yuz bergan falokatga to'g'ri baxolay olish asosida davolash muassasalari xodimlari, tez tibbiy yordam stansiyalari, birinchi tibbiy

yordam otryadlari (BTYoO), poliklinika muassasalariga tegishli ko'rsatmalar berishlari lozim. Shu maqsadlarda shtablar tegishli muassasalar bilan doimiy aloqada bo'lishlari talab qilinadi. Talofot ko'rganlarni evakuasiya qilish paytida ularni toifalarga ajratib yordam ko'rsatish maqsadga muvofiq. Kasalxonalarga esa faqat stasionar davolanishga muxtoj bo'lganlar yotkazilishi lozim. Yengil va o'rtacha jaroxat olganlar xamda stansionar sharoitda davolanishi zarur bo'lmaganlar ambulatoriya sharoitida davolanishlari kerak. Turli tan jaroxati olganlar bilan bir qatorda tabiiy ofat natijasida ruxiy shikast olganlarga, somatik va endokrenologik kasalliklari zo'riqib ketganlarga, bolasi tushib qolganlarga alohida tibbiy yordam ko'rsatish zarur. Kasallarning yuqorida ko'rsatilgan toifalariga tibbiy yordam berishda tez yordam va birichni tibbiy yordam ko'rsatish stansiyalari xodimlari yetakchi o'rinda turishlari, ularni xar qanday tasodiflarda to'g'ri qarorga kelishga tayyorgarliklarini oshirish talab etiladi. Tez yordam xodimlari avvaldan yurak-tomir va boshqa kasalliklarni davolash vositalari, zarur asbob va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishlari, bunday kasalliklarni davolash usullari bilan tanish bo'lishlari lozim. Bu toifa kasallarga tibbiy yordam berish uchun ixtisoslashgan tibbiy yordam brigadalarini avvaldan belgilash, tabiiy ofat vaqtida ular xizmatidan (jumladan, akusher-ginekologik, psixonevrologik, kardiologik va q.k.) samarali foydalanish lozim.

Shuni nazarda tutish lozimki, tabiiy ofat paytida (ayniqsa, zilzila) tibbiyot muassasalari buzilishi mumkin. Shu tufayli kasallar, tibbiyot xodimlari va jixozlarni ko'chirishni, davolash muassasalarini moslashmagan binolarga o'tkazishni taqozo qiladi. Bunday maqsadlar uchun muayyan binolar (maktab, bolalar boqchasi va q.k.) tayyorlab qo'yilishi kerak. Tabiiy ofat paytida kasalxonalar va boshqa tibbiyot muassasalarini ko'chirish yuqori saviyadagi tashkilotchilik xamda tibbiyot xodimlarining yuksak darajada ma'naviy tayyorgarligini talab qiladigan qiyin va mashaqqatli ish.

Toshkent zilzila paytida tibbiyot xodimlari tomonidan kasallarni ximoya qilish borasida juda katta ish amalga oshirildi. Kechayu-kunduz davomida zarar ko'rgan kasalxonalardan 2000 dan ziyod kasallar ambulatoriya sharoitida davolanishga chiqarildi. 1000 dan ortiq kasal boshqa davolash muassasalariga o'tkazildi. Ko'chirish mumkin bo'lmagan kasallarning bir qismi kasalxonalarning yozgi chodirlariga o'tkazildi.

Tabiiy ofat natijasida aholi va tibbiyot muassasalarining joylanish xolatida o'zgarishlar ro'y berganligi tufayli, tibbiyot xizmati boshliqlari tibbiyot kadrlarini qayta taqsimlash, yangi tibbiyot muassasalarini asbob-uskunalar bilan jihozlash, o'rinlarni kasallar soniga muvofiqlashtirish, poliklinikalar o'rtasida vrach-xududlarining chegarasini qayta o'rganish va yangi dorixonalar ochish kabi masalalarni ko'rib chiqishlari lozim. Ba'zi xollarda ko'chma dorixonalar va vrachlik punktlarini tashkil etish talab etiladi.

Kasallarga tibbiy xizmat ko'rsaish jarayonida tibbiyot institutlari talabalarini vrachlik va feldsherlik lavozimlariga jalb etish kerak. Bu ishga tibbiy ilmiy-

tadqiqot institutlari muassasalarining xodimlarini xam jalb etish mumkin. Tibbiy yordamni tashkil qilishda aholi o'rtasida tushuntirish va sanitariya-profilaktika ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega.

Yirik fojia va avariyaalar paytida tibbiy yordamni tashkil etish xususiyatlariga xam to'xtalib o'tish kerak. Bularga quyidagilarni kiritish zarur:

- Talafot ko'rganlarga sanitar-drujinalari kuchi bilan birinchi tibbiy yordamni berish, bunda bir ishchi smenada o'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'zda tutiladi. Zarur paytlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun yaqin joylashgan korxonalarning sanitar drujinalari xam jalb etilishi mumkin;
- Tez yordam va birinchi tibbiy yordam kuchlarini tez va ommaviy ravishda jalb etish imkoniyati mavjudligi;
- Xamma jaroxat olganlarga tez va malakali birinchi tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati mavjudligi.

Bu vaziyatda shaxar (tuman)ning barcha tibbiy muassasalari jalb etilishi mumkin. Sanitar drujinalar talofot ko'rganlarga nisbatan kam sonli bo'lgan xolda ularni kichik guruhlariga ajratib, barcha mavjud tibbiyot muassasalariga bo'lib yuborish mumkin.

Kimyo sanoati ob'ektlarida yirik avariyaalar ro'y bergan xolda talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatilishi xam o'z xususiyatlariga ega. Bunday avariyaalar paytida faqat avariya ro'y bergan sex va o'linma ishchilari, raxbarlar, aholi orasida xam zarar ko'rganlar bo'lishi mumkin. Bu narsa yengil uchuvchan gazlar bo'lgan ob'ektlarda ro'y bergan avariyaalar oqibatida yuzaga keladi. Bunday avariyaalar paytida tibbiy yordam ko'rsatish uchun kuch va vositalarni avvaldan, puxta tayyorlash kerak. Kuchli ta'sir qiladigan zaxarli moddalarning havo orqali ta'sir o'tkazishini xisobga olib, shamolning yo'nalishi, xonalarning joylashishi, zararlashi mumkin bo'lgan maydon kattaligini aniqlab, bu xududda ishlovchi va yashovchi insonlar soni to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish talab qilinadi.

Sanitar-talofotlar ko'payishining oldini olish uchun qo'shni korxonalar xizmatchi-ishchilarini ogoxlantirish tartibi belgilanishi zarur. Ular shaxsiy vosita va qurilmalardan foydalana olishlari zarur. Mazkur korxonada mavjud kimyoviy moddaning xususiyatlariga qarab, ulardan zaxarlanganlik paytida qanday ehtiyot choralari ko'rilishi mumkinligi to'g'risida xabardor bo'lishlari, zarur vositalar va transport bilan ta'minlanishlari lozim. Tez tibbiy yordam va birinchi tibbiy yordam xodimlari kimyoviy moddalardan zaxarlanish patologiyasini yaxshi bilishlari, tibbiy yordam ko'rsatish tartibiga rioya qilishlari talab qilinadi. Bu paytda asosiy vazifa zarar ko'rganlarni zaxarlanish xududidan tezroq olib chiqib ketish xisoblanadi. Tibbiy yordam ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlari yakka tartibdagi muhofaza vositalaridan foydalanishlari shart.

Radioaktiv moddalarni saqlash , tashish va qayta ishlash texnologiyasi buzilgan paytdagi atrof-muhitni zararlantiruvchi avariyaalarda tibbiy yordam

ko'rsatishi xam vaziyatni to'g'ri baxolash paytida o'z xususiyatlariga ega. Atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalarga xozirgi davrda kimyoviy sanoatni , turli radioizotop laboratoriyalarini, radioaktiv chiqindilarni ishlab chiqish va ko'mib tashlash joylarini, turli yadroviy reaktorlarni kiritish mumkin.

Radioaktiv moddalar bilan atrof muhit zararlanishining eng katta xavfi atom reaktorlari avariya uchragan paytda sodir bo'ladi. Atom elektrostansiyalarida ro'y bergan avariya paytida uzoq yashovchi atom radioaktiv izolyatorlari atrof muhitni zararlantiradi. Bu paytda nurlanish jarayoni yadro portlashi davridagidan ancha sekin kechadi. Vaqt jihatidan sekin parchalanish yadro portlashi oqibatlaridan kam zarar yetkazmaydi.

Tuproq, suv, binolar, inshootlarning zararlanish ehtimoli insonlar uchun katta xavf tug'diradi. Avariya xududida ishlash mumkin bo'lgan eng katta doza 25 R ga tengdir.

Atom elektrostansiyalaridagi avariya oqibatida tan jaroxatdan tashqari radiasiya talofati xam ro'y beradi. Favqulodda holat tibbiyot tizimlaridagi faoliyatning bosh yo'nalishi suv ta'minoti, oziq-ovqat ustidan radiasiyaga oid nazoratni o'rnatish, aholini epidemiyaga qarshi va davolash profilaktika ta'minotini tashkil etish, barchaga muntazam yod preparatini yetkazib berish lozim bo'ladi. Radiasiya nurlanishi olgan shaxslarni aniqlashga aloxida e'tibor beriladi. Bu jihatdan barcha aholini uch guruhga ajratish mumkin : xech qanday radiasiya jaroxati olmaganlar; oz miqdorda nurlanish olgan va radiasiya jaroxati belgilari bo'lmagan shaxslar; nur kasalligi yoki nurlanishdan kuyishga olib keluvchi nurlanishga uchragan shaxslar.

Birinchi guruxga kiruvchi shaxslar qanday bo'lmasin nazoratga muxtoj emaslar, ammo, radiasiya xududida ishlash paytida ular radiasiya nazoratiga olinadilar. Ikkinchi guruxga kiruvchilar ustidan doimiy tibbiy nazorat o'rnatiladi, bu narsa qon tarkibini doimiy ravishda taxlil qilib borishdan iborat. Bu shaxslar zararlangan xududda ishlashga qo'yilmaydilar. Nurlanish asorati bor shaxslar kasalxonaga yotqizilishi va maxsus tibbiyot muassasalarida davolanishlari kerak.

Shunday qilib, favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmatlari yirik avariya paytida talofaat ko'rganlarga puxta o'ylangan va oldindan rejalashtirilgan tadbirlar asosida yordam ko'rsatishlari zarur.

Favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmati shaxsiy tarkibi, ehtimoli bor bo'lgan ishlab chiqarish avariylari xususiyatini bilishlari va tegishli ravishda talofatlarga qarshi kurashish qurollariga ega bo'lishlari kerak. Bu vaziyatlarda xarakat qilish malakasini tez tibbiy yordam va birinchi tibbiy yordam xamda davolash muassasalari xodimlari yaxshi egallagan bo'lishlari talab etiladi.

Xar bir fuqaroni dastlabki tezkorlik shoshilinch yordam ko'rsatilganda bajariladigan ishlari:

1. Bemorlar transportirovka qilish;
2. Nafasni tekshirish;
3. Qon bosimini o'lchash;
4. Pulsni sanash;
5. Og'iz orqali dorilarni yuborish;
6. Ineksiya yo'llari bilan dorilarni yuborish;
7. Klizmalar;
8. Me'dani yuvish;
9. Grelka qo'yish;
10. Muzli xalta qo'yish;
11. Kompreslarni qo'yish;
12. Qonni to'xtatish;
13. Bog'lama tayyorlash va qo'yish;
14. Shina qo'yish;
15. Yurakka tashqi massaj qilish;
16. Sun'iy nafas oldirish "og'izdan-o'izga", "og'izdan-burunga";
17. Ko'zga, quloqqa va burunga dorilarni yuborish;
18. Tana haroratini o'lchash;
19. Vannalar qilish;
20. Tez yordam mashinasini chaqirish;

Mavzuni o'zlashtirish uchun tayanch so'z va iboralar:

1. Qutqaruv birlamchi tiklov ishlari (QBTI);
2. Tiklash ishlari;
3. Qutqaruv ishlarida xarakatlantiruvchi kuchlar;
4. Kimyoviy o'choqda QBTI ishlari;
5. Biologik o'choqda QBTI ishlari;
6. Degazasiya;
7. Shina qo'yish;

8. Yurakka tashqi massaj;
9. Me'dani yuvish;
10. Muz qo'yish;

Mavzuni mustaqamlash uchun savollar:

1. Qutqaruv ishlari nimalardan iborat?
2. Tiklash ishlariga nimalar kiradi?
3. Kimyoviy shikastlangan o'choqda qutqaruv va tiklov ishlari nimalardan iborat?
4. Biologik shikastlangan o'choqda qanday kechiktirib bo'lmaydigan ishlar bajariladi?
5. Zararsizlantirish omillariga qanday jarayonlar kiradi?
6. Zilzila ro'y bergan xududdagi talofat ko'rganlarga tibbiy yordamni tashkil etish?
7. Tabiiy ofat ro'y bergan xududlarda sanitar-gigiena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish?
8. Yirik avariya va fojea davrida talofat ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish xususiyatlari?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.Yo.Yormatov, O.R. Yo'ldoshev, A.L, Xamraeva
"Hayot faoliyati xavfsizligi" Toshkent "Aloqachi" nashryoti 2009yil.
- 2 M.Tojiev, I.Ne'matov, M.Ilgomov
"Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muqofazasi" Toshkent, "Ta'lim manbai" jamiyati 2002 yil.
- 3 M.M.Sultonova "Fuqarolar muqofazasidan ma'ruzalar " Toshkent O'zDJTI ,1995yil
- 4 R.Ramazonova, X.Sodiqova
"Favqulodda vaziyatlar uchun tibbiy xamshiralar tayyorlash"
Toshkent , "Yangi asr avlodi" 2006 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar :

1. M.D.Axmedova , X.A. Abdukodirov, Sh.Sh.Shovaqobov ,
M.T. Karimova, S.T.Inomova "Yukumli kasalliklar va bemorlar porvarishi"
Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002yil
2. A.Zokirjo'jaev, " Bolalar yuqumli kasalliklari " Toshkent, M.Ch.J
"Ma'suliyatli matbaa" bosmaxonasi ,2008yil.
3. J.I.Vodyanova "Infektsionnye i parazitarnye bolezni" tom 1,11, 2000g,
Kiev "Zdarove"
4. Ye.T.Shuvalova "Infektsionnye bolezni" Moskva "Medisina" 1990y
5. M Tojiev, I Ne'matov,M.Ilgomov "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro
muqofazasi ", Toshkent .M.Ch."Ta'lim manbai " 2002 yil